


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYADA
ZAMONAVIY YO'NALISHLAR”**

moduli bo'yicha

O'QUV – USLUBIY MAJMUA

Toшкент - 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: O‘zMU, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.n. M.Nazarov

Taqrizchi: O‘zMU iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.n. S.K. Tashtayeva

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)**

MUNDARIJA:

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	13
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	15
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	50
V. GLOSSARIY	77
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	80

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzuksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti, tarkibiy tuzilishi va undagi o‘zgarishlar, zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari, konsepsiyalari, tadqiqot natijalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, amaliy tadbipi bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy – metodologik asoslari bo‘yicha xorij va mahalliy tajribani o‘rganish;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari – aholi va uning ijtimoiy hayot sharoitlarini tadqiq qilish, sotsial va madaniy geografiya, geourbanistika, jahon xo‘jalik tizimlarining rivojlanishi konsepsiyalari va tendensiyalarini tadqiq qilish, ishlab chiqarishni joylashtirish va mintaqaviy siyosat masalalari va boshqalar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: **Tinglovchi:**

- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obyekti va predmetidagi o'zgarishlar hamda zamonaviy nazariya va konsepsiyalarni **bilishi** kerak.
- aholini hududiy tashkil etish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda zamonaviy nazariya va konsepsiyalarni amaliyatga tadbiq etish;
- geografiya ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borish va olingan natijalarni amaliyatda qo'llay olish;
- geografiyaning zamonaviy yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borish va olingan natijalarni amaliyatda qo'llay olish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- geografik tadqiqotlarda GAT (GIS) texnologiyalaridan foydalanish;
- geografiya fanining xorij va respublikamizdagи muammolari, yechimlari va rivojlanish yo'nalishlari asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- oliv ta'lim geografik fanlarining mazmunini respublikamizdagи ta'limning barcha bo'g'inlaridagi geografik bilim va ilm bilan uzviyligi va uzuksizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlар, test so'rovlари, aqliy hujum, guruqli fikrlash, kichik guruqlar bilan ishlash, kolokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada zamonaviy yo'nalishlar" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Tabiiy geografiyada zamonaviy yo'nalishlar va tadqiqotlar", "Geotizmlar nazariyasi" va "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonidagi kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy yo'nalishlariga doir tadqiqotlar va ularning natijalaridan foydalanish hamda amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Жами	Назарий	Амайи
1.	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari. Tadqiqot obyekti va predmetidagi o‘zgarishlar, asosiy termin va tushunchalari, kategoriyalari	2	2	
2.	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik masalalari	2	2	
3.	Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar bo‘yicha zamonaviy nazariya va konsepsiylar	2	2	
4.	Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati	2	2	
5.	Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar. Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish	2		2
6.	Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari. Jahon xo‘jaligi tizimining rivojlanish konsepsiylari va tendensiylari	4		4
7.	Sotsial va madaniy geografiY. Servis geografiyası	4		4
8.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosat masalalari	2		2
Jami:		20	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari. Tadqiqot obyekti va predmetidagi o‘zgarishlar, asosiy termin va tushunchalari, kategoriyalari.

- 1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi va fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari.
- 1.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmetidagi o‘zgarishlar, asosiy termin va tushunchalari, kategoriyalari.

2-Mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik masalalari

- 2.1. Geografiyada frontal va fundamental tadqiqotlar.
- 2.2. Geografiya fanining ijtimoiylashuvi, iqtisodiy lashuvi.
- 2.3. Geografiya fanida differensiatsiya va integratsiya jarayonlari.

3-Mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar bo‘yicha zamonaviy nazariya va konsepsiylar

- 3.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish masalalari.

3. 2.Hududiy ishlab chiqarish majmualari. 3.3.Geosiyosiy va siyosiy-geografik tadqiqotlar.

4-Mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati.

4. 1.Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning mazmuni, ilmiy-nazariy ahmiyati. 4.2.Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar. Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish (2 soat).

1.1. Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar..

1.2. Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish.

2-amaliy mashg‘ulot. Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari. Juhon xo‘jaligi tizimining rivojlanish konsepsiyalari va tendensiyalari (4 soat).

2.1. Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari.. 2.2. Juhon xo‘jaligi tizimining rivojlanish konsepsiyalari va tendensiyalari.

3-amaliy mashg‘ulot. Sotsial va madaniy geografiY. Servis geografiyasi (4 soat).

3.1. Sotsial va madaniy geografiY.

3.2. Servis geografiyasi.

4-amaliy mashg‘ulot. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosat masalalari (2 soat).

4.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. 4.2.Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va uning geografik xususiyatlari.

Mustaqil ta’lim

Tinglovchi mustaqil ishni modulning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- o‘quv, ilmiy adabiyotlardan va meyoriy hujjatlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanadi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktabrda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 16 martda qabul qilingan «Axolini ro‘yxatga olish o‘g‘risida»gi O‘RQ-611 Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 2 iyulda qabul qilingan «Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-626-sonli Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muosasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

20. A.S.Soliyev, N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov, F.T.Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiY. Darslik. 2019.
21. Abdunazarov O'.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibraimova A.A. Umumiyl tabiiy geografiY. Darslik. Toshkent, 2019.
22. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
23. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
24. Basil Gomez, John Paul Jones. Research Methods in Geography. A Critical Introduction. United Kingdom. Wiley-Blackwell Publishing Ltd. 2010.
25. Colin Flint, Peter J. Taylor. Political Geography: World-economy, Nation-state and Locality. Taylor & Francis, 2012.
26. Dr.S.Harichandan, Dr.Asam Shaik, Mrs. Sujana Sunni. Methodos of teaching geograph. English,2009.– 93p.
27. Elmar Kulke. Wirtschaftsgeographie. Herstellung: 2004, Ferdinand Schoningh, Paderborn. München, Deutschland.
28. Goudie A. Physische Geographie. Heidelberg, Berlin. Spektrum Akademischer Verlag. 2002.
29. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. – 186 b.
30. Jennifer Hickes Lundquist, Douglas L. Anderton, David Yaukey. Demography: The Study of Human Population Fourth Edition. - 2014.
31. Karimova V.A., Zaynudinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari.– T.: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti", 2014. –192 b.
32. Michael Pacione. Urban Geography: A Global Perspective Kindle Edition. England, 2012.
33. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Accoun 2015. - 134 pp.
34. Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography. Second Edition. SAGE Publications Ltd. London EC1Y1SP. 2010.

35. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.
36. Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart 2004.
37. Rachel Pain. Introducing Social Geographies. Routledge, UK, 2001.
38. Richard J. H. Fundamentals of Geomorphology. Second Edition. London and New York. Routledge. 2011. – 466.
39. Robert E.Gabler, James F.Petersen, L.Michael Trapasso. Essentials of Physical Geography. Thomson Brooks/Cole. Thomson Higher Education 10 Davis Drive Belmont, CA 94002-3098 USA. 2007.
40. Sergey M. Govorushko. Natural Processesand Human Impacts. Interactions between Humanityand the Environment Springer Dordrecht Heidelberg London New YorkSpringer Science+Business Media B.V. 2012.
41. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. GeoekologiY. – T.: Universitet. 2017. – 144 b.
42. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi.-T.,2018.
43. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019.- 252 b.
44. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –T.: Bilim, 2005.
45. Vincent J. Del Casino, Jr. Social Geography: A Critical Introduction Wiley-Blackwell, USA. 2009.
46. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 edition 2015. - 350 pp.
47. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN, 2015. 572b.
48. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. T.: Turon zamin ziyo, 2016.
49. Anoxin A.A., Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii: Uchebnoye posobiye. – SPb. Izd-vo SPbGU, 2018. – 279 s.
50. Arxangelskiy V.N., Zvereva N.V. Teoreticheskiye osnovi monitoringa regionalnoy sotsialno-demograficheskoy politike. - M.:MAKS Press, 2009.-220.
51. Bo’riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
52. Vtorov P.V., Drozdov N.N. BiogeografiY. – M.: Vlados, 2001.
53. Informatsionniye texnologii v pedagogicheskem obrazovanii / Kiselev G.M., Bochkova R.V. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Dashkov i K, 2018. - 304 s.
54. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
55. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B. Informatsionniye sistemi. - T.: Aloqachi, 2017.- 256 str.
56. Kolbovskiy YE.Y. Landshaftnoye planirovaniye: ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / YE.Y.Kolbovskiy. – Moskva. «Akademiya», 2008.
57. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Y.G.-3-ye izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”, 2012.–319 s.
58. Lastochkin A.N. Osnovi obshey teorii geosistem. Kn. 1 i 2. Uchebnoye posobiye. Izd-vo.Peterburgskogo un-ta. 2016 – 132 s.
59. Mamatqulov M. O’rta Osiyo geomorfologiyasi. —T.: Universitet, 2008.

60. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyot. – T.: Kamalak, 2013. 61.
- Sochava V.B. Vvedeniye v ucheniye o geosistemax. -Novosibirsk, 1978.
62. Tojiyeva Z.N., Do'smonov F.A. DemografiY. O'quv qo'llanma.–T.: "Nodirabegim", 2019.
63. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
64. Hasanov I., G'ulomov P.N., Qayumov A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). O'quv qo'llanma.-T.: Universitet, 2010.

II. Internet saytlar

65. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
66. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
67. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
68. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyonET
69. <http://uzgeo.uz> – O'zbekiston Geografiya jamiyatı.
70. www.geogr.msu.ru – MGU geograficheskiy fakultet.
71. www.spbu.ru – Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet fakultet geografii i geoekologii.
72. www.igu-online.org – Xalqaro geografiya jamiyatı.
73. www.rgs.org – The Royal Geographical Society (with the Institute of British).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quydagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’moti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assisment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi. **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assisment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarining mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek,

o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishma topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test

Yangilik — 6y:

- A) Xabar
- B) Ma’lumot
- C) Dalil
- D) Ob-havo ma’lumoti



Qiyosiy tahlil

Ekoliya va landshaft, qurilish, sanoat ekologiyani qiyosiy tahlil qiling .



Tushuncha tahlili

Shafarozlik va ekologik arxitekturani izohlanr...



Amaliy ko‘nikma

Ikkilamchi resursl ardan foydalanishning ekologik asoslari ni aniqlang

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

1-MAVZU: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Tadqiqot obyekti va predmetidagi o'zgarishlar, asosiy termin va tushunchalari, kategoriyalari

REJA:

- 1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi va fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari.
- 1.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmetidagi o'zgarishlar, asosiy termin va tushunchalari, kategoriyalari.

Tayanch iboralar: *Geografiya, geografiya fanlari tizimi, iqtisodiy geografiya, ijtimoiy geografiya, tabiat, hudud, aholi, geografik o'rinni, obyekt, predmet, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiyot, xo'jalik.*

1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi va fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yoki keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya jamiyat hayotining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishining turli jihatlarini o'rganuvchi kompleks geografik fan sifatida hozirgi zamon fanlar tizimida va ijtimoiy hayotimizda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar faqat vaqt (davr) davomida kechmaydi, ular ayni paytda muayyan joyda, ya'ni makonda ham sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning ana shunday hududiy jihatlari geografiya fanining tadqiqot doirasiga kiradi. Biroq, jamiyat rivoji bilan uni o'rganuvchi fanlarning tadqiqot obyekti ham murakkablashib va takomillashib boradi. Bu tabiiy va o'z-o'zicha qonuniy holdir.

Ma'lumki, har qanday fan o'z tadqiqot obyektiga va o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Bu yerda obyekt serqirra borliq, hodisa va voqealar bo'lib, u birgina fan uchun emas, balki ko'p fanlar birikmasiga xizmat qiladi. Foto yoki kinoapparat, videokamera obyektivi barcha borliqni qamrab oladi va unda bizni qiziqtirmaydigan narsalar ham o'z aksini topishi mumkin. Vaholanki, har bir fan hodisa yoki voqealarni o'zining xususiyati va mohiyatidan kelib chiqib

faqat bir tomonini o‘rganadi. Ana shu “bir tomoni”, yoki jihatni har qaysi fanning ***predmeti*** hisoblanadi va u aniq narsa yoki voqeasi hodisani o‘rganishini bildiradi.

Demak, obyekt keng qamrovli tushuncha, predmet esa nisbatan tor va aniq ma’noda bo‘lib, u shu obyektning qaysi qismini o‘rganishni anglatadi. Bu borada qator misollar keltirish mumkin. Masalan, aholi, ayni paytda iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsiologlar, geograflar, tibbiyotchilar, huquqshunoslar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi. Ammo har qaysi fan “o‘z burchagidan” yoki boshqacha qilib aytganda, o‘z maqsad va vazifasi doirasida aholini o‘rganadi. Jumladan, iqtisodchilar uchun aholi bu asosiy ishlab chiqarish kuch, mehnat qiluvchi subyekt sifatida ko‘riladi; etnograflarni aholining qiziqtiruvchi tomoni uning milliy urf-odati, kiyinishi, an’analaridir, demograf esa, aholining takror barpo etilishi, uning tabiiy va migratsion xarakati

(tug‘ilish, o‘lim, ko‘chib yurish), nikoh, ajralish va boshqa tomonlarini ilmiy asosda tahlil qiladi va h.k.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning **obyekti** avvallari *ma’lum bir mamlakat yoki rayonning xo‘jaligi va aholisi, ishlab chiqarish kuchlarining joylanishidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u xo‘jalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimi, hududiy ijtimoiy - iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi*. Shunga muvofiq, ushbu **fanning vazifasi** ham o‘zgarib bordi: ilgari asosiy e’tibor qayerda nima borligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi kunda esa *nima uchun u yoki bu voqelik aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy asosda izohlab va baholab berilishi talab etiladi*. Bunday qonuniyatlarni chuqur anglash fanning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, u endi turli yiriklikdagi hududiy ijtimoiyiqtisodiy tizimlarning *tahlilidan* ularning *tashhisiga*, undan esa *prognoz* va *boshqarish* darajasiga ko‘tarilmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanishidagi jarayonlar iqtisodiy geografiya obyektining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shunga mos ravishda bu fanning tadqiqod predmeti va vazifalari ham takomillashib boradi. Ayni paytda bunday evolyusion jarayonlar fan nomini zamon talabiga muvofiqlashuviga olib keladi. Binobarin, an’anaviy *iqtisodiy geografiya* asta-sekin *iqtisodiy va sotsial geografiyaga*, u esa, o‘z navbatida, yanada murakkabroq va mujassamroq shaklga - *ijtimoiy geografiyaga* aylanmoqdaki, bu ushbu fanni jahon miqyosidagi andozalariga moslashtiradi.

Umuman olganda, “iqtisodiy geografiya” tushunchasini dastlab ulug‘ rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrning 60-yillarda ishlatgan. Lekin fan sifatida keyinchalik boshqalar

tomonidan yaratilgan¹. Iqtisodiy geografiya fani ta’rifini birinchilar qatorida nemis olimi Alfred Veber 1909 yilda bergen. Uning fikricha, bu fan “hududlarning iqtisodiy xususiyatlari, funksiyasi”ni o‘rganadi.

XX asrning 70-yillarida an’anaviy iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy (sotsial) geografiyaga aylandi. Keyinchalik bu fanning turli qirralarini aks ettiruvchi inson, gumanitar, sotsial, ijtimoiy geografiya kabi nomlar paydo bo‘ldi. Hozirda Rossiya va ayrim MDH mamlakatlarida u “Iqtisodiy, sotsial, siyosiy va rekreatsiya geografiyasi” deb rasman yuritiladi. Bu nomga madaniy geografiya, turizm va boshqa notabiiy geografik yo‘nalishlar ham kirishga da’vogar bo‘lib turishibdi. Shu sababdan, fikrimizcha, fan nomini bunday murakkablashtirmasdan uni bir so‘z bilan “Ijtimoiy geografiya” deb belgilash ma’qulroq bo‘lsa kerak. Biroq, bu yerda “ijtimoiy” so‘zi sotsial so‘zi bilan ma’nodosh emas, aksincha u kengroq tushuncha hisoblanadi.

Aytish joizki, mazkur fanning muayyan bir barqaror, barchani qanoatlanturuvchi ta’rifi yo‘q. Buning sababi — geografiya fanining keng qamrovligi, obyekt va nomining davrlar mobaynida o‘zgarib turishidir. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya ta’riflarining ko‘pchiligidagi ishlab chiqarish quchlari, ularning joylashish **xususiyatlari** ta’kidlanadi. Bular ushbu fanning o‘zak tushunchasiga, aksiomasiga aylanib qolgan. Albatta, bu bejiz emas, chunki iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy geografiyaning mohiyatini esa ularning joylashuv xususiyatlari belgilab beradi. Qolaversa, rivojlanish faqat aniq bir joyda, makonda amalga oshadi, shu bois, **joylanish rivojlanishning hududiy in’ikosidir**.

Masalaga bunday yondashuv, nazarimizda, iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq. Ma’lumki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan Germaniyada nemis olimlari I. Tyunen, A. Veber, A. Lyosh, V. Kristaller va boshqalar tomonidan qo‘rib chiqilgan. Ammo, ular o‘zlarining joylashtirish (shtandort) g‘oyalarining natijasini «iqtisodiy geografiya» deb ta’riflashmagan. Aksincha, bu masalalar ko‘proq hududiy iqtisod yoki geoiqtisod doirasida, iqtisodiyot fanining bir qismi sifatida qaralgan.

O‘ylaymizki, hozirgi kunda ham fanning ta’rifida «ishlab chiqarish kuchlarining joylashushi» iborasini qoldirish mumkin, zero har qanday joylashtirish muayyan bir hududda amalga oshiriladi. Biroq fanimizning bugungi predmeti uchun bu kifoya qilmaydi; u endi iqtisodiygina emas, balki iqtisodiy va sotsial, ijtimoiy geografiya maqomini olmoqda. Shu

¹ Xorijda “Iqtisodiy geografiya” tushunchasini, Y.G.Saushkin fikricha, birinchi bor 1882 yilda F.Ratselning shogirdi nemis olimi V. Gots tomonidan qo‘llanilgan.

sababdan bunday tor ta'rif fanning nomi bilan mazmunini, surati bilan siyratini, shakl va mohiyatini muvofiqlashtirilmaydi.

To‘g‘ri, “ishlab chiqarish kuchlari” eng avvalo uning subyekti, egasi bo‘lgan aholini ham o‘z ichiga oladi. Lekin bu yerda aholi asosan ishchi kuchi mazmunida, ya’ni iqtisodiy kategoriya shaklida nazarda tutiladi. Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chetda qoladi. Busiz fan ilgarigidek iqtisodiy, ya’ni ***ishlab chiqarish geografiyasi*** bo‘lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta’rifini taxminan shunday berish mumkin. ***Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o‘rganadi (prof.A.Soliyev).*** Qisqacha qilib esa, *ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to‘g‘risidagi fan*, deb ta’riflash to‘g‘ri bo‘ladi. Shubhasiz, keltirilgan ta’rif ham mutloq aniqlikka da’vogar bo‘lmasada, u iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarni o‘z doirasiga olgan holda, fanning tub mohiyatini o‘zida aks ettiradi va uni to‘la ifodalab beradi.

Berilgan ta’rifning ega va kesimi, aniqlovchisi va to‘ldiruvchisi, ya’ni birinchi va ikkinchi darajali bo‘laklari mavjud. Chunonchi, agar ushbu ifodadan gapning egasi - ***“turli mamlakat yoki rayon”, “hudud”*** tushunchalari olib tashlansa, u holda geografiyaga o‘rin qolmaydi. Binobarin, aynan ana shu iboralar ushbu ta’rifning geografiyaga taalluqliligidan dalolat beradi. Xuddi shunday ***“xususiyat”*** (kesim) so‘zi ham geografiya uchun o‘ta muhimdir, chunki fanning asosiy va pirovard maqsadi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, inson hayot tarzining turli rayonlardagi o‘ziga xos va betakror xususiyatini ochib berishdan iboratdir (tarixda ham xuddi shunday — jamiyat taraqqiyotidagi turli davrlar xususiyati aniqlanmasa, ushbu fan o‘z mohiyatini yo‘qotadi). Zero, ***hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo‘lmasligi kerak.*** Agar hamma joy bir xil rangda tekis, bir xil darajada bo‘lganda geografiyaning ham, qolaversa, jamiyat rivojlanishining ham o‘zi bo‘lmash edi.

Yuqoridagi fan ta’rifining kengayib ketmasligi uchun unga majmualar yoki komplekslar (tizimlar) g‘oyasi kiritilmadi. Aslida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o‘zi o‘rganayotgan voqealikni muayyan hududda va faqat alohida - alohida emas, balki o‘zaro aloqadorlikda, ya’ni ma’lum bir hududiy majmua va tizimlar doirasida ko‘radi.

Ta’kidlash joizki, iqtisodiy geografiya va umuman geografiya fanining tadqiqot obyekti evolyusion tarzda o‘zgarib, kengayib kichik masshtabli ko‘rinishni egallab borgan. Bunday jarayon qisman Buyuk geografik kashfiyotlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan va u dunyonи, katta-katta hududlarni bilish, ular bilan tanishishga qaratilgan. Endigi sharoitda, Yer yuzida barcha joylar

ochilib, o‘zlashtirilib bo‘lingandan so‘ng, kichik hududlarni **yirik masshtabli tadqiqot asosida o‘rganish** va to‘plangan bilimlar ilmiy jihatdan umumlashtirilishi, turli hududiy qonuniyatlar aniqlanishi zarur bo‘lib qoldi. Bunday **metodologik yondashuv** chuqur va aniq ilmiy xulosalarga olib keladi. Masalan, deyarli butun G‘arbiy Yevropaga teng keluvchi G‘arbiy Sibir hududiy ishlab chiqarish majmuasi emas, balki nisbatan kichik maydonlarda bunday hududiy majmualarning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, qonuniyatlarini tadqiq qilish muhimroq va amaliyoq bo‘lib qoldi. Umuman olganda esa, ***kattada kichikni, kichikda kattani ko‘ra bilish, ko‘p va turli masshtabli geografik tadqiqotlarning asosiy tamoyillaridan, talablaridan biri hisoblanadi.*** Shu bois, yuqorida berilgan ta’rifni yanada mukammallashtirgan xolda, ya’ni: “**iqtisodiy va sotsial geografiya ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar (majmualar) doirasida o‘rganadi**”, deb ifodalash mumkin.

So‘nggi yillarda iqtisodiy va sotsial geografiyanı *ijtimoiy geografiya* deb atashga moyillik sezilib turibdi². Bu, birinchidan, fanning o‘zini ichki rivojlanish qonuniyatları, undagi differensiatsiya va integratsiya jarayonları bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu fan nomini rivojlangan mamlakatlardagi shakliga muvofiqlashtirish bilan asoslanadi. Darvoqe, ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda fanimiz aynan shunday: ijtimoiy, gumanitar yoki inson geografiyası sifatida rasman qabul qilingan.

Hozirgi davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o‘z ichiga uchta yirik blokka mansub fan tarmoqlarini qamrab oladi. Bular, **birinchi blok** – iqtisodiy, yoki ishlab chiqarish geografiyası (sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish va b.); **ikkinchi blok** – sotsial-iqtisodiy geografiya (aholi, aholi punktlari, mehnat resurslari, migratsiya, aholiga xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyası va b.); **uchinchi blok** – sotsial geografiya (tibbiyot, jinoyatchilik, din, xulq-at’vor, turmush tarzi, turizm va b.).

Bundan tashqari, yana bir masalaga e’tibor berish zarur. Ma’lumki, geografiyaning bosh falsafiy masalasi **tabiat bilan inson (jamiyat)** o‘rtasidagi munosabat va aloqadorlikni o‘rganishdan iboratdir. Bu ikkilikning biri - tabiatni o‘rganuvchi fanlar turkumini “tabiiy geografiya” deb yuritilishi hech kimda shubha qoldirmaydi. Ammo uning ikkinchi bo‘lagi, ya’ni inson yoki jamiyat masalalarini tadqiq etuvchi fanni bir so‘z bilan qanday ifodalash mumkin? Bu

² “Sotsial” so‘zi o‘zbek tilida ko‘pincha “ijtimoiy” ma’noda qo’llaniladi. Vaholanki, bunday emas; ular ayrim hollarda mustaqil qo’llash huquqiga ega; sotsial (tor) jamoani, ijtimoiy (keng) esa jamiyatni anglatadi.

yerda «iqtisod» so‘zi hech mos kelmaydi va u tabiatga “muqobil” tura olmaydi. Iqtisod va hayot, iqtisod va siyosat bo‘lishi mumkin,

biroq **tabiat va iqtisod birligi, juftligi aslo qovushmaydi.** Binobarin, ana shu mantiqiy mulohaza nuqtai nazaridan ham notabiyy geografik fanlar majmuini inson, jamiyat geografiyasi yoki yanada to‘g‘rirog‘i *ijtimoiy geografiya* deb yuritish maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiy va sotsial geografiyani ijtimoiy geografiya shaklida ifodalash sobiq Ittifoqda ham ko‘pchilik olimlar - Y. G. Saushkin, V. M. Goxman, S. YA Nimmik, M. D. Sharigin va boshqalar tomonidan ancha yillar muqaddam ishlatilgan edi.

Barcha fanlarda bo‘lganidek, geografiya, shu jumladan, ijtimoiy geografiyada differensiatsiya (turlanish) jarayoni ketmoqda. Shu bois, mamlakatimizda jahonning ilg‘or davlatlaridagi boy tajribalar, yangi ilmiy yo‘nalishlar ham joriy etilsa, bo‘lajak yosh mutaxassislar zamon talabi darajasida tayyorlangan bo‘ladi.

Geografiya fanining yana bir ajoyib va betakror jihatni uning integratsiya salohiyatining kuchliligi, sintez qilish qudratidir. Qamrovi keng bo‘lgan geografiya juda ko‘p fanlar bilan “qo‘schnichilik” qiladi va tutash mavqega ega. Ular jumlasiga tarix, biologiya, geologiya, sotsiologiya, demografiya, iqtisodiyot, ekologiya, psixologiya, huquqshunoslik, shaharsozlik, tibbiyot va boshqalar kiradi. Demak, geografiya ushbu fanlar bilan aloqada va bu uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, geograflar uchun turli fanlar qirrasida yangi-yangi tadqiqot yo‘nalishlari va yutuqlarga erishish imkoniyati mavjud. Chunki **geografiya fani barcha fanlar tizimida qulay “geografik o‘ringa” ega**, u markazda (maxrajda) va shuning uchun qolgan ko‘pchilik fanlar aksariyat xollarda geografiya bilan to‘qnashadi hamda o‘zarо aloqadorlikda yangi tadqiqot va yo‘nalishlarga poydevor yaratadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Geografiya fanlari tizimi va unda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining mavqeini tushuntiring.
2. Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi evolyusiyasini qisqacha izohlang.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatiga baho bering.
4. Zamonaviy iqtisodiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishida xorij, sobiq ittifoq hamda mamlakatimiz tajribasini tushuntiring.

5. Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishida muhim poydevor rolini o‘tagan xorijiy va maxalliy ilmiy konsepsiyalarni sanab bering.

Qo‘srimcha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Spens N., Owens A. Methods of geographical analysis. Published by: University of London, 2007. Reprinted with minor revisions 2011.
2. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. Izd.: «Progress», Moskva, 1966.
3. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. M: GU - VSHE, 2001, 2003.
4. Anna Battimer. Put v geografii. – M.: Progress, 1990.
5. Asanov G. R. Sotsial – iqtisodiy geografiY. Termin va izohli tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbrannye trudi. – M., 1980.
7. Zokirov SH., Toshev X. Geografiya tarixi. – Buxoro, “Durdona”, 2015.
8. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiY. – M., 2002.
9. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1999.
10. Porosenkov Y.V., Porosenkova N.I. Istoriya i metodologiya geografii. – Voronej, 1991.
11. Saushkin Y.G. Istoriya i metodologiya geograficheskoy nauki. – M.: MGU, 1980.
12. Saushkin Y.G. Geograficheskaya nauka v proshlom, nastoyashem i budushem. – M., 1984.
13. Soliyev A., Axmedov E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet, 2003.
14. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metod va amaliyat. – T., 2013.
15. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.- Toshkent: Universitet, 2007.
16. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014.
17. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T., 2009.
18. Sotsialno-Ekonomicheskaya geografiya: ponyatiya i termini. – Smolensk, 2013.

2-MAVZU: IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYANING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

REJA:

- 2.1. Geografiyada frontal va fundamental tadqiqotlar.
- 2.2. Geografiya fanining ijtimoiylashuvi, iqtisodiy lashuvi.
- 2.3. Geografiya fanida differensiatsiya va integratsiya jarayonlari.

Tayanch iboralar: Nazariya, metodologiya, tabiat, jamiyat, hudud, geografiya, iqtisodiy geografiya, fundamental tadqiqot, differensiatsiya, integratsiya, geografik sintez, sotsiallashuv.

1.1. Geografiyada frontal va fundamental tadqiqotlar

Geografiya fanining bir butunligi va, ayni vaqtida, uning ikki qanoti – tabiiy hamda iqtisodiy (aniqrog‘i – ijtimoiy) geografiyaning mavjudligi ushbu fanning frontal rivojlanishini ta’minlab beradi. Geografiyaning bosh falsafiy masalasi - **tabiat va jamiyat o‘rtasidagi hududiy munosabatlar** ekan, tabiatni tabiiy geografiya, jamiyatni esa iqtisodiy emas, keng ko‘lamli ijtimoiy geografiya o‘rganadi.

Ta’kidlash joizki, dastlabki tabiiy geografik bilimlar ijtimoiy geografiyadan ko‘ra oldinroq vujudga kelgan, chunki tabiat jamiyat shakllanishidan avvalroq ham bor edi. Ijtimoiy (iqtisodiy) geografiya fanining vujudga kelishi esa ijtimoiy, so‘ngra hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va shu asosda savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Ehtimol, tabiiy geografiyaning yuqorida genetik xususiyati unda differensiatsiya jarayonining oldinroq yuzaga kelishiga olib kelgan. Chunonchi, geologiya va tabiiy geografiya qirrasida geomorfologiya, fizika bilan tabiiy geografiya o‘rtasida iqlimshunoslik, meteorologiya kabi fanlar rivojlanib borgan. Keyinchalik tabiiy geografiyaning evolyusion taraqqiyotida landshaftshunoslik katta ahamiyat kasb etgan va u ushbu fanning markazidan joy olgan. Zero landshaft barcha tabiiy geografik jarayonlarni, ularning natijalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy geografiya fanining, bizningcha, **uch tarixiy manbasi** bor. Ularning eng birinchisi, albatta, **tabiiy geografiya** hisoblanadi. Sababi, iqtisodiy geografik tadqiqotlarning dastlabki yo‘nalishi – qishloq ho‘jaligi yoki, hozirgi zamon tili bilan aytganda, agrogeografiya, xususan dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi va, ayniqsa, sug‘orma

dehqonchilikning rivojlanishi bevosita tabiiy geografik omillar, ya’ni joyning tuprog‘i, harorati, namlik ko‘rsatkichlari ta’sirida vujudga kelgan.

Xuddi shunday, tabiiy geografik omillar asosida o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, tog‘-kon sanoati singari iqtisodiyot yo‘nalishlari rivojlangan.

Hozirgi iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya fanining qolgan ikki genetik manbai sifatida **nemis statistikasi** va **nemis shtandort nazariyalari** xizmat qilgan. Statistika, ya’ni dastlabki holatdagi uning mazmuni – **davlatshunoslik** negizida siyosiy va uning bir yo‘nalishi –harbiy geografiya ham shakllangan. **Shtandort nazariyasi (I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller, A.Lyosh** va boshqa olimlar g‘oyalari) esa bevosita ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, uning omillari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi turdosh fanlar: iqtisodiy geografiya hamda ancha keyin “maydonga chiqqan” mintaqaviy iqtisodiyotning vujudga kelishida nazariy asos hisoblangan.

Shu o‘rinda eslatish lozimki, iqtisodiy geografiyaning fanlar tizimidagi o‘rni, uning ayni paytda **ham tabiiy, ham ijtimoiy** fanlar tizimiga mansubligi bu fanning tarixiy rivojlanib borishida o‘ziga xos xususiyatlarni kasb etgan. Masalan, iqtisodiy geografiya dastlab statistika, iqtisodiyot tarkibiga kirgan va faqat XX asrning 30 – yillarida u **statistika – tarmoq** yo‘nalishidan **rayonlar** yo‘nalishiga o‘tgan (uning asoschilari - N.N.Baranskiy, S.V.Bernshteyn-Kogan). Ushbu yo‘nalishning haddan tashqari tez rivoj topishi, kichik-kichik hududlar, turli miqyosdagi iqtisodiy rayonlar tavsiflanishiga ham ustuvor ahamiyat berilishi, ayni vaqtda, iqtisodiyot tarmoqlariga e’tiborni ancha susaytirdi. Vaholanki, har qanday iqtisodiy geografik tadqiqot tarmoq va hududiy (rayon) yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, “tarmoq –hudud – tarmoq - hudud” tizimida olib borilishini taqozo etadi va bu haqiqat mazkur fanning **metodologik talablaridan** biridir.

Tarmoq yo‘nalishining geograflar tomonidan butunlay unutilishi yoki unga e’tiborning kuchsizlanishi “hudud - tarmoqqa” urg‘u berilishining ortida metodologik bo‘shliq, vakuum hosil bo‘lishiga olib kelgan va bu “egasiz” qolgan joyda qisman hududiy fikrlovchi iqtisodchilar yoki iqtisodiy fikrlashi ustunroq bo‘lgan geograflar tomonidan gibrif fan – **mintaqaviy iqtisodiyot** vujudga kelgan. Bu fanlarning vujudga kelishi katta bahs – munozaralarga sabab bo‘lgan va oqibatda o‘zaro kelishuvga kelingan: yoki boshqacha qilib aytganda, mintaqaviy iqtisodiyot – geografiylashgan iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya – iqtisodiy lashgan geografiya sifatida e’tirof etilgan.

Sirasini aytganda, **mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy asosi iqtisodiy geografiya hisoblanadi**. Qolaversa, XX–asrning 60–yillarida “Mintaqaviy fanlar uyushmasining” asoschisi Pensilvaniya universiteti geografiya fakultetining dekani U.Ayzard (Izard) bo‘lgan. 1970 –

yillarda sobiq Ittifoq Davlat rejalashtirish qo‘mitasining raisi, dastlabki “Mintaqaviy iqtisodiyot” monografiyasining muallifi

N.N.Nekrasov esa taniqli iqtisodiy geograf N.N.Kolosovskiyning shogirdi bo‘lgan.

Iqtisodiy geografiyaning mintaqaviy iqtisodiyot bilan o‘zaro “talashuvi” uning tarixiy ildizi va doimiy yaqin safdoshi bo‘lgan tabiiy geografiyadan biroz uzoqlashtirdi. Ba’zi yetakchi iqtisodiy geograflar iqtisodchilar orasida “geograf”, o‘zlarining geografiya jamoasida esa “iqtisodchi” bo‘lib qolishdi. Aslida bunday emas, iqtisodiy geografiya ilm – fan makonida o‘ziga munosib, mustaqil ijtimoiy mavqeい, nufuziga ega.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning deyarli barchasi u yoki bu darajada, albatta, tabiiy geografiya ma’lumotlariga tayanadi, ularga iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan baho beriladi. Har qanday geograf o‘z tadqiqotida bevosita yoki bilvosita tabiiy geografik omillarga murojaat qiladi. Bu uning eng muhim kasbiy sifati bo‘lib, ayni vaqtida ilmiy deterministik dunyoqarashga ham mos keladi. Professor Z.M.Akramov va u yaratgan agrogeografik tadqiqotlar yo‘nalishining vakillari R.Hodihev, T.Egamberdiyev, S.Saidkarimov, M.Yusupov, A.Ro‘ziyev, YE.Umarov, A.Sodiqov, Q.Allanov, M.Mahmudova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida tabiiy geografik omillar, xususan agroiqlimi resurslar bevosita ishtirot etgan.

O‘zbekistonda bajarilayotgan iqtisodiy geografik tadqiqotlarning aksariyatida joylarning tabiiy geografik xususiyatlari hisobga olinadi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaga bu borada e’tiroz bildirish noo‘rindir. Jumladan, T.Jumayevning tog‘ hududlari geografiyasi, Y. Ahmadaliyevning yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha olib borayotgan tadqiqotlari, SH.Jumaxonovning daryo-soy havzalarida aholi joylashuv tizimining shakllanishi, Z.Tojiyevanining hududlarning demografik sig‘imi haqidagi izlanishlari, N.Komilova va M.Hamroyevlarning tibbiy geografiya, Z.Rayimjonovning “resurs shaharlar”, T.Shoto‘rayev va SH.Azimovlarning suv omborlari, X.Tursunovning urboekologiya, B.Ziyomuxamedovning rekreatsiya, M.Usmonovning turizm geografiyasi,

A.Sattorovning Surxondaryo viloyati qishloq aholi punktlarining joylashuvi, A.Mavlonovning cho‘l hududlari shaharlari, P.Qurbanovning Janubiy O‘zbekiston mintaqasida urbanizatsiya jarayoni, A.Baratovning irrigatsiya tizimlaridan foydalanishga oid ilmiy ishlari tabiiy geografik omillar bilan singdirilgan. Bunday misollar qatorini yana kengaytirish mumkin. Umumiyl xulosa shundan iboratki, iqtisodiy geografik tadqiqotlar tabiiy geografiga “sodiq” holda ish tutadilar. Ammo, aks vaziyat ham shunday–mi? Tabiiy geografik tadqiqotlar ham iqtisodiy geografik xulosa va tavsiyalarga olib keladimi, ularga “chiqadimi”? Fikrimizcha, har doim ham bunday muvozanat, munosabat (paritet), afsuski, uncha kuzatilmaydi.

Ta’kidlash joizki, L.Babushkin, F.Mo‘minov, T.Muxtorov, A.Abdullayev,

A.Abulqosimov, P.Baratov, SH.Zokirov, A.Mamatov, A.Raxmatullayev, A.Soatov, B.Kamolov, F.Hikmatov, I.Nazarov, A.Nizomov, R.Usmonova kabi tabiiy geograflar va gidroglarning ilmiy ishlari iqtisodiy geografik mazmun ham kasb etadi. Ayniqsa,

A.Rafiqovning meliorativ geografiysi, H.Vahobovning muhandislik geografiysi, A.Abulqosimov va uning izdoshlarini antropogen landshaftlar haqidagi tadqiqotlari iqtisodiy geografiyaga ancha yaqin turadi. Inson va ishlab chiqarish ta'sirida tabiiy muhitning o'zgarishi, yomonlashuvi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari geoekologik yo'nalishning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni, natijalarni ko'zda tutish barcha tabiiy geografik izlanishlarda ham mavjud emas. Har holda joyning yer usti tuzilishi yoki iqlimi, tuprog'i, gidrogeografiysi, o'simlik va hayvonot dunyosi o'z-o'zicha emas, pirovard natijada aholi va uning yashash sharoiti, xo'jalik tarmoqlarining joylanish yoki joylash-tirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tavsif, tadqiq va tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Geograf uchun mamlakatimiz iqlimining kontinentalligi yoki uning geosiyosiy o'rni, dengiz va okeanlardan uzoqda joylashuvi, yer usti tuzilishini shunchaki bilish muhim emas, eng muhimi bunday iqlimi va boshqa geografik sharoitning ijtimoiyiqtisodiy, siyosiy oqibatlari, ularning mamlakatimiz rivojiga ta'sirini chuqur anglashdir.

Hozirda tabiiy va iqtisodiy (ijtimoiy) geografik tadqiqotlarning o'zaro mujassamlashuvi muhim **fundamental** ahamiyatga egadir. Bunday jihatlar o'tmishda V.M.Chetirkin, hozirda esa V.Fedorko ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Xususan, uning tabiiy-xo'jalik rayonlashtirish to'g'risidagi ilmiy ishlari tabiiy hamda iqtisodiyijtimoiy geografik yondashuvning o'zaro uyg'unlashuvi asosida olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, bugungi fanlarning differensiyalashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida tadqiqotching qaysi bir yo'nalishni ko'proq bilishi, unga ixtisoslashuvi talab etiladi.

So'nggi yillarda **geografik sintez**, bu fanning sintez qudrati haqida ko'p gapiriladi. Ammo har qanday sintez tizim-tarkib va gnoseologik nuqtai nazardan analiz, ya'ni tahlilsiz bo'lmaydi; bir butunlikni bilish uchun avval uni alohida qismlarga ajratib o'rganish va shu asosda umumiy xulosa chiqarish, qonuniyatlarni aniqlash zarur. A.Gumboldtning to'liq geografik fikrashi ham aynan shunday **metodologik yondashuvdan** kelib chiqadi. Binobarin, geografiya fani va tadqiqotlarni, uning tabiiy va ijtimoiy qismlarisiz talqin va tashfiq qilish haqiqatga ziddir. Geografiyani ham barcha fanlar qatorida ko'rish, ijtimoiy nufuzini ko'tarish uchun uni cheksiz raqam va faktlardan qutqarish, nomenklatur yo'nalishdan voz kechish kerak.

Afsuski, geografiyada faktlar ko'p, g'oyalar esa oz; nimagadir o'quvchilar maktabda I.Nyuton, Pifagor yoki CH.Darvin, K.Linney, Faradey kabi olimlar yaratgan qonuniyatlar, ixtirolarni

bilishadi-yu, geografiyada faqat “eng-eng” ko‘rsatkichlarni (eng uzun daryo, eng katta orol, eng chuqur joy, eng baland cho‘qqi, eng ko‘p avtomashinalar yoki televizor ishlab chiqaradigan davlat va h.k. va b.) quruq yodlab olishga majbur qilinadi.

Geografik sintez ichki va tashqi, ko‘p qatlamlı bo‘ladi. Birinchisi ushbu fanning ichki tuzilmasi, ularning **o‘zaro integratsiyasida**, ikkinchisi, boshqa fanlar bilan aloqasida namoyon bo‘ladi. Bu ikkilikda, bizningcha, eng avvalo, fanimizning mustahkam va mustaqil bo‘lishi uchun uning ichki, gorizontal va vertikal aloqalari rivojlangan bo‘lmog‘i zarur. Bu xususda ham ikki bosqich bor: birinchisi – tabiiy va ijtimoiy geografik fanlar tarkibidagi alohida fan yoki yo‘nalishlarning **o‘zaro integratsiyasi** bo‘lsa, ikkinchisi – tabiiy va ijtimoiy geografiyaning o‘zaro munosabati nazarda tutiladi. Tabiiy geografiyada ichki differensiatsiya jarayonlari, fanlarning turlanishi avvalroq boshlangan va hozirgi kunda biroz susaygan. Iqtisodiy geografiyada esa bunday jarayon kechroq boshlanib, bugungi kunda jadal davom etmoqda.

An’naviy iqtisodiy geografiya **aholi** va **aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasi** orqali iqtisodiy va sotsial geografiyaga, so‘ngra uning **ijtimoiy geografiyaga aylanishiga** tibbiyat, jinoyatchilik, ta’lim, madaniyat geografiyasi kabi yo‘nalishlarning vujudga kelishi misol bo‘la oladi. Bunga **iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuvi**, ijtimoiy sohalarning murakkabligi va ko‘p qirraligi sabab bo‘lmoqda.

Geografik sintezning yuqori yoki ikkinchi darjasini uning tashqi, fanlararo aloqalariga asoslanadi. Bu borada aytish joizki, fanimizning “geografik o‘rni” ham o‘ziga xos, qulay. Modomiki, qachon va qayerda **hudud** to‘g‘risida so‘z borar ekan, uning egasi albatta geografiya bo‘lganidek, bu fan juda ko‘p boshqa fanlar bilan aloqa qiladi, faqat ularning hududiy jihatlari bo‘lishi zarur. Binobarin, *qator fanlarning o‘z egasi bor va, shu bilan birga, ularning umumiy mujassamlovchi bir egasi bor, u ham bo‘lsa geografiyadir*. Bu fan, falsafiy dunyoqarash nuqtai nazaridan, ko‘pchilik fanlarning (biologiya, tuproqshunoslik, tibbiyat, iqtisodiyot, siyosat, demografiya, psixologiya, sotsiologiya va b.) “umumiy maxraji” hisoblanadi. Sababi, har qanday hodisa yoki voqelik ma’lum bir vaqtida (davrda, zamonda) va muayyan bir joy – makonda, ya’ni **hududda, ya’ni geografiyada** sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham biologiyaga turdosh o‘simliklar va hayvonlar geografiyasi yoki geobotanika va zoogeografiya kabi shunga o‘xhash boshqa fanlardan “qo‘shaloq” yo‘nalishlar vujudga kelgan. Geomorfologiya, meteorologiya va iqlimshunoslik, geoekologiya, geosiyosat, mintaqaviy iqtisodiyot, nozogeografiya, geopsixologiya, geokriminologiya, urf-odat geografiyasi (“povedencheskaya geografiya”), toponimika singari fan yoki ilmiy yo‘nalishlar ham mavjud va ularning soni tobora ko‘payib bormoqda.

Shunday qilib, frontal va fundamental geografik tadqiqotlardagi tabiiy va ijtimoiy geografiyaning teng huquqlik hamkorligi, ularning ichki tuzilmasini jipsligi va mustahkamligi, bir butunligi, umumiy geografiya fanining “tashqi” aloqalari uning sitez salohiyatini kuchaytiradi, ilmiy va amaliy ahamiyatini, ijtimoiy nufuzini ko‘taradi. Ammo omma tasavvurida geografiya bu asosan tabiiy geografiya, xarita yoki tog‘u-toshlar, cho‘lu-biyobonlar bilan shug‘ullanadigan oddiy o‘quv predmeti sifatida singib ketgan. Bunday nomuvofiqlikni, jo‘shqin tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy harakatlarga boy olam sirlarini biluvchi geografiya fanimizni nohak kamsitishni bartaraf etish geografiya ta’limi va tadqiqotlarida jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Bu borada o‘quvchilarda ham tabiiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy geografik zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda shakllantiruvchi ilmiy ishlanmalar hamda o‘quv adabiyotlarini yaratish ham shu kunning dolzarb masalasidir.

Nazariy savollar:

1. Zamonaviy iqtisodiy geografik tadqiqotlarning metodologik asoslarini tushuntiring.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tadqiqot usullarini izohlang.
3. Geografik sintez va uning mazmuni.
4. So‘nggi yillarda iqtisodiy geografik tadqiqotlarda ijtimoiylashuv jarayonlari sabablarini aniqlang.
5. Ijtimoiy geografiya fanida differensiatsiya va integratsiya jarayonlarining mazmuni va borishini tushuntiring.

Qo‘srimcha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

24. Spens N., Owens A. Methods of geographical analysis. Published by: University of London, 2007. Reprinted with minor revisions 2011.
25. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. Izd.: «Progress», Moskva, 1966.
26. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. M: GU - VSHE, 2001, 2003.
27. Anna Battimer. Put v geografii. – M.: Progress, 1990.
28. Asanov G. R. Sotsial – iqtisodiy geografiY. Termin va izohli tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
29. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbrannkiye trudi. – M.,

1980.

30. Zokirov SH., Toshev X. Geografiya tarixi. – Buxoro, “Durdon”, 2015.
 31. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiya. – M., 2002.
 32. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1999.
 33. Porosenkov Y.V., Porosenkova N.I. Istoriya i metodologiya geografii. – Voronej, 1991.
 34. Saushkin Y.G. Istoriya i metodologiya geograficheskoy nauki. – M.: MGU, 1980.
 35. Saushkin Y.G. Geograficheskaya nauka v proshlom, nastoyashem i budushem. – M., 1984.
 36. Soliyev A., Axmedov E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet, 2003.
 37. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metod va amaliyat. – T., 2013.
 38. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.- Toshkent: Universitet, 2007.
 39. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014.
 40. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T., 2009.
 41. Sotsialno-Ekonomicheskaya geografiya: ponyatiya i termini. – Smolensk, 2013.
 42. Skopin A.Y. Vvedeniye v ekonomiceskuyu geografiyu. – Smolensk., 2013,
 43. Trofimov A.M. Sharigin M.D. Obshaya geografiya (Voprosi teorii i metodologii). – Perm, 2007.
 44. Alayev E . B . Sotsialno- ekonomicheskaya geografiya: Ponyatiyoterminologicheskiy slovar / E .B. Alayev. – M .:Misl, 1983. -350 s.
 45. Golubchik M .M . Istoriya geografii : ucheb. posobiye / M.M. Golubchik, S .P .
- Yevdokimov, S .N . Maksimov. – Smolensk : Izd-vo Smolen. gum .un- ta, 1998. -224 s.
46. Golubchik M.M. Politicheskaya geografiya mira. Ucheb. Posob. Smolensk,1998.
 47. Xagget P . Geografiya: sintez sovremenix znanij / P . Xagget . – M.: Progress, 1979. – 684 s.

3-Мавзу: Иқтисодий ва ижтимоий географик тадқиқотлар бўйича замонавий назария ва концепциялар

REJA:

- 3.1.Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish masalalari.
- 3.2.Hududiy ishlab chiqarish majmualari.
- 3.3.Geosiyosiy va siyosiy geografik konsepsiylar.

Tayanch iboralar: *iqtisodiy rayon, kategoriya, ixtisoslashuv, hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy geografik rayon, hududiy ishlab chiqarish majmualari, siyosiy geografiya, geosiyosat, konsepsiya, geosiyosiy konsepsiY.*

1.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish masalalari Xorij iqtisodiy geografiyasining yetakchi ilmiy nazariya va konsepsiyalari qatoriga *iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish “shtandort” nazariyasi, hududiy mehnat taqsimoti* kabilar mansub. Ular mazkur fan doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning muhim ilmiynazariy poydevorini tashkil qiladi.

Hududiy mehnat taqsimoti va uning doimiy “yo‘ldoshi” bo‘lgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Ular esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ammo hududiy tarkib faqat iqtisodiy rayonlar to‘ridan iborat emas, u ma’muriy birliklar, tabiiy geografik va gidrografik omillar asosida ham belgilanishi mumkin.

Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obyekti hisoblanadi. Agar ilgari iqtisodiy rayonlashtirish xalq xo‘jaligini planlashtirish maqsadida ajratilgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning asosiy shakli, davlat mintaqaviy siyosatining obyekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish uchun zarur. Qolaversa, iqtisodiy rayonlarsiz mamlakat xo‘jaligi ichki tuzilishi, hududiy tarkib va tizimi geografiyasini o‘rganish ham qiyin. Aynan ana shu maqsadlarda iqtisodiy rayonlashtirishning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 11 ta yirik iqtisodiy rayonlar negizida yettita federal okruglar ajratilgan.

O‘zbekistonda ham iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatni ijtimoiy-siyosiy tashkil etish va boshqarish uchun zarur.

Iqtisodiy rayonlashtirish mamlakat hududining katta-kichikligiga unchalik bog‘liq emas, eng muhimi iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan, hududiy mehnat taqsimoti rivojlangan bo‘lishi talab etiladi. Ichki tafovutlar qanchalik katta bo‘lsa, iqtisodiy rayonlar to‘ri va tizimi ham shuncha rivojlangan bo‘ladi. Chunonchi, maydoni juda katta bo‘lgan, alohida qit’ada joylashgan Avstraliya mamlakatida asosan 4 ta iqtisodiy rayon ajratiladi, xolos, vaholanki, unga qaraganda ancha kichik bo‘lgan Yevropa davlatlarida bir qator rayonlar shakllangan.

Iqtisodiy rayonlarning turlari va shakllari ko‘p; ular butun mamlakat hududini o‘z ichiga olishi (unda maydon, iqtisodiy ahamiyatidan qat’iy nazar, turli qismlarga bo‘linadi) yoki uning alohida joylarida, ya’ni diskret holda ajratiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonlar **umumiyligi (integral)** va **tarmoqligini** bo‘linadi. Shuningdek, mamlakat hududi ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial rayonlarga ham ajratilishi mumkin. Ammo, bu rayonlarning hududiy ko‘lamni bir-biridan farq qiladi; odatda, iqtisodiy rayonlarga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar kichikroq, ulardan esa sotsial rayonlar yanada kichikroq bo‘ladi. Bunday farqlar har xil turdagiligi rayonlardagi rayon hosil qiluvchi omillarga bog‘liq.

Ba’zan iqtisodiy rayonlar *iqtisodiy geografik rayonlar* deb ham yuritiladi. Bu yerda jiddiy farq ko‘rinmaydi, zero har qanday rayon o‘z mohiyat va mazmuniga ko‘ra hudud yoki geografiyadir. Shu bois, “geografiya” atamasini ishlatish zaruriyati yo‘q.

Iqtisodiy rayonlar turli omillarga qarab ajratiladi. Ular quyidagilar:

- Hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv;
- Bozorga mo‘ljallangan tovar mahsulot ishlab chiqarish, bozor makonining shakllanganligi;
- Tabiiy sharoit va qazilma boyliklar, ularning hududiy birikmalari;
- Aholi va mehnat resurslari;
- Rayon hosil qiluvchi va uni tashkil etuvchi markazning yoki markazlarning mavjudligi;
- Iqtisodiy geografik o‘rin;
- Transport to‘rining rivojlanganligi;
- Mintaqaviy infratuzilma va investitsiya muhitining shakllanganligi va h.k.

Iqtisodiy rayon o‘ziga xos hududiy majmua va hududiy tizimni tashkil etadi. Albatta, bu yerda rayon, kompleks va tizim (sistema) tushunchalari aynan bir mazmunga ega emas, ammo ularning

bir-birlariga yaqinligini ham inkor etish noo‘rindir. Har qanday iqtisodiy rayon kompleks, hududiy majmua prinsipiga asoslanadi. Bu komplekslik, eng avvalo, turli daraja va ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarning mavjudligi, ularning o‘zaro muvofiqlashgan holda mutanosib rivojlanishida o‘z ifodasini topadi. **Har bir rayonda ixtisoslashgan, ya’ni bozor ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoq va tarmoqlar, ularni to‘ldiruvchi yordamchi, ikkinchi darajali tarmoqlar va mahalliy ehtiyojlarga qaratilgan mahalliy bozorni to‘yintiruvchi tarmoqlar bo‘ladi.** Shu 3 bo‘g‘inning qaysi biri shakllanmagan bo‘lsa, u holda to‘laqonli iqtisodiy rayon shakllanmaydi. Har bir yirik iqtisodiy rayon bazaviy tarmoqlarga ega bo‘lishlari kerak. Ularga, masalan, elektroenergetika, qurilish industriyasi va agrosanoat majmuasi kabilar kiradi. Ayni vaqtda bu tarmoqlar yuqoridagi 3 guruhdan iborat bo‘g‘inlarning biriga ham kirishi mumkin.

Demak, ana shu mazmunda iqtisodiy rayonni hududiy ishlab chiqarish majmuasi shaklida talqin qilsa bo‘ladi. Ammo real hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan rayon ishlab chiqarish majmualari bir xil emas; birinchisi, haqiqiy borliq bo‘lsa, ikkinchisi ko‘p jihatdan ma’muriy-boshqaruv ma’nosidagi majmuadir. Jumladan, Angren-Olmaliq yoki Qarshi hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan Toshkent viloyati yoki Qashqadaryo hududiy majmualari bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonda bir emas, bir necha hududiy ishlab chiqarish majmualari bo‘lishi va, ayni vaqtda, majmua hosil qiluvchi tarmoqlar ham mavjud bo‘ladi. **Hududiy ishlab chiqarish majmualari** iqtisodiy rayonlarning o‘zagini, asosini tashkil qiladi, ammo rayonning o‘zi emas.

Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o‘zaro uyg‘unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil yoki shakldir. Zero, har qanday iqtisodiy rayon biror bir xo‘jalik tarmog‘ini boshqa joylarga qaraganda bu yerda ko‘proq to‘planganligi, mujassamlashganligi, rivojlanligi demakdir.

Iqtisodiy rayonlashtirishning eng qadimiyo yo‘nalishi qishloq xo‘jaligini joylashtirish bilan bog‘liq. Sababi, qishloq xo‘jaligining hududiy tashkil etish xususiyatlari, ya’ni uning arealsimonligi makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko‘ra yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya va iqtisodiyot tarixi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligini rayonlashtirish va joylashtirish tarixi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda ham bu boradagi ilmiy tadqiqotlar dastavval aynan ana shu tarmoqni joylashtirish va rayonlashtirish bilan boshlangan (V.M.Chetirkin, K.N.Bedrinsev, N.G.Sapenko, Z.M.Akramov, K.I.Lapkin, Q.N.Abirqulov, R.A.Hodiyeva va boshqalarning tadqiqotlari).

O‘z mazmuniga ko‘ra iqtisodiy rayon mamlakat ma’muriy-hududiy tarkibini tashkil etish va boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega. Ammo, bu yerda ma’muriy-hududiy masalalarning ayrim hollarda subyektivligi, yuqorida tashkil qilinishi va iqtisodiy rayonlashtirishning “ichkaridan”, obyektiv holda shakllanishi o‘rtasida nomuvofiqliklar kelib chiqadi. Ma’muriy birliklar chegarasi va soni tez-tez o‘zgarib turadi, iqtisodiy rayon esa ancha turg‘unlikka ega. Binobarin, **mamlakatni ma’muriy rayonlashtirish bilan uni iqtisodiy rayonlashtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammodir**. Shu jihatdan ham qaraganda, iqtisodiy rayonlashtirish va iqtisodiy rayonlar o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) sobiq Ittifoq iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasining jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan nufuzli nazariy yutuqlardan biridir. Bunda rus olimi N.N.Kolosovkiyning xizmati katta. XX asrning yigirmanchi yillarda GOELRO, ya’ni Rossiyani elektrlashtirish davlat rejasidagi doirasida I.G.Aleksandrov ish olib borishda va, ayniqsa, DneproGES loyihasini ishlab chiqish jarayonida rayon kombinatlari haqidagi o‘zining nazariyasini yaratdi. O‘ttizinchi yillarda esa bu muhim masalani u aniqlashtirdi, chuqur o‘rganib **rayon ishlab chiqarish kombinatlarini** barpo etish lozimligini ta’kidladi. N.N.Kolosovskiy I.G.Aleksandrovning rayon ishlab chiqarish kombinatlari to‘g‘risidagi ta’limotidan Ural, Sibir va Qozog‘iston kabi yirik rayonlar misolida amaliy foydalandi, uni boyitdi va shu asosda o‘zining rayon komplekslari (kombinatlari, majmualari) to‘g‘risidagi ilmiy g‘oyasini shakllantirdi. Bu, albatta, ilgarigiga qaraganda yangi bir qadam olg‘a fikr edi.

N.N. Kolosovskiy 1947 yilda hududiy ishlab chiqarish (aniqrog‘i, ishlab chiqarishning hududiy birikmalari, komplekslari) mavzuida maqola chop ettirdi. Uning fikricha, bu nazariyaning asosiy mohiyatini ma’lum bir hududda yoki iqtisodiy rayonda alohida tanlab olingan **ishlab chiqarish korxonalari va aholi punktlarini birbiri bilan bog‘liq holda rivojlanishi va joylanishi** tashkil etadi. U ishlab chiqarishning hududiy majmuasini iqtisodiy geografiya fanining tarkibiy qismi ekanligini qayta-qayta ta’kidladi va, ayni paytda, ma’lum hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalar yig‘indisi hamma vaqt ham kompleks (majmua) bo‘la olmaydi, deb uqtirgan. Bunday oddiy hududiy joylashish gruppovkani tashkil etadi, xolos. Demak, har qanday hududiy majmua bu guruh, ammo har qanday guruh majmua bo‘lavermaydi.

Keyinchalik HICHM nazariyasini rivojlantirishga N.N.Baranskiy, N.T.Agafonov, A.G.Aganbegyan, M.K.Bandman, N.N.Nekrasov, Y.G.Saushkin, T.M.Kalashnikova, M.N.Stepanov, A.I.Chistobayev, A.T.Xrushev, M.M.Palamarchuk, M.D.Shargin, Z.M.Akramov, S.K.Ziyodullayev, A.G.Batigin, K.N.Bedrinsev kabi bir qator olimlar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

N.N.Kolosovkiy hududiy ishlab chiqarish majmualari iborasi iqtisodiy rayonlar to‘g‘risidagi tushuncha o‘rnini egallamasligi kerak; bu iqtisodiy rayonlarning “yadrosi”ni tashkil etadi, **xolos, deb uqtirgan edi**. Darhaqiqat, hududiy ishlab chiqarish majmualari mazmun va sifat jihatdan, ishlab chiqarish korxonalarini ma’lum bir nuqtadagi yoki joydagি turg‘un birikmasi sifatida iqtisodiy rayonlardan farq qiladi.

So‘nggi yillarda bunday qarash biroz o‘zgardi: umuman olganda, har qanday bosqichdagi iqtisodiy rayonlar ham hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida ko‘rilsa bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona vodiysi, Namangan viloyati hududiy ishlab chiqarish majmualari va h.k. Savol tug‘ilishi mumkin: haqiqatda yoki real voqelikda hududiy ishlab chiqarish majmuasi qayerda vujudga keladi va har qanday joyning ishlab chiqarish korxonalari birlashmasini majmua deb atash mumkinmi? Bu yerda, bizning fikrimizcha, masalaga har tomonlama yondoshish kerak va hududiy ishlab chiqarish majmualarining turli xil bo‘lishini unutmaslik lozim.

Albatta, iqtisodiy rayon xo‘jaligi o‘zining mazmun - mohiyati va maqsadiga ko‘ra har tomonlama (kompleks) rivojlanishi lozim. Ana shu nuqtai nazardan iqtisodiy rayonlar xo‘jaligini real yoki potensial hududiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida ko‘rish mumkin. Bu yerda biz tushunmovchilikka imkoniyat qoldirmaslik maqsadida bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarini **“ma’muriy rayonlar darajasidagi majmualar”** deb yuritishni taklif etamiz. N.N.Kolosovskiy aytgan ma’noda, ya’ni ma’lum bir joyda aholi punktlari va ishlab chiqarish korxonalarining o‘zaro bog‘liq holda joylanishi va rivojlanishi asosida vujudga kelgan majmualar esa tom ma’noda yoki **“an’anaviy hududiy ishlab chiqarish majmualari”**, deb atalishi to‘g‘riroq. N.N.Kolosovskiy shogirdlaridan biri **M.K.Bandman** bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarni mamlakat ahamiyatiga molik, muhim bir muammoni hal etishga, bir maqsadga qaratilgan **dasturli yoki muammoli majmualar**, deb ataydi. Ular, odatda, real voqelikda vujudga keladi va ma’muriy chegaralarga ko‘pincha mos kelmaydi. Sababimazkur hududiy majmualar asosida qandaydir tabiiy geografik obyektlar, masalan, daryo havzalari, qazilma boyliklar, tog‘, cho‘l va boshqalar yotadi.

Ammo hududiy ishlab chiqarish majmualari qaysi ma’noda tushunilmasin, ular iqtisodiy geografiyanı o‘rganishda, **iqtisodiy geografik tadqiqotlarda** eng muhim va samarali nazariyadir. **Bu rayon xo‘jaligini muayyan tizim darajasida qarash va uni tarkibiy tuzilishi bo‘yicha tahlil qilish, ishlab chiqarish korxonalari orasidagi aloqadorlikni nazarda tutadi.**

Tom ma’nodagi hududiy ishlab chiqarish majmualari asosan yangi o‘zlashtirilayotgan rayonlarda, ulkan tabiiy boylik va, ayniqsa, yoqilg‘i-energetika zahiralari negizida vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Tabiiyki, tarixiy rivojlanish davomida avval

o‘zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan xo‘jalikning hududiy tarkibini majmuaga aylantirishga qaraganda, yangi, “sof” yoki “bo‘sh” joyda bu maqsadga erishish osonroqdir. Majmuu yaratuvchi tarmoq sifatida esa ko‘proq yoqilg‘i energetika sanoati asos bo‘lib xizmat qilishi ham, shubhasiz, bir holdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi Bratsk hududiy ishlab chiqarish majmuasini olaylik (uning dastlabki loyihasini N.N.Kolosovkiy rahbarligidagi olimlar guruhi yaratgan). Bu yerda yirik 4 mln. kVt. dan ortiq quvvatga ega bo‘lgan suv elektr stansiyasi qurildi va bo‘lajak suv ombori maydonini o‘rmondan tozalash maqsadida yog‘och-sellyuloza sanoati vujudga keldi. Arzon elektroenergiyaning mavjudligi energiyani ko‘p istemol qiluvchi tarmoqlarni o‘ziga “tortdi” va, natijada, bu yerda uchinchi yirik korxona-alyuminiy zavodi barpo etildi. Rangli metallurgiya va o‘rmon sanoati yana “zanjirsimon” tarzda boshqa korxonalar qurilishini (jumladan, mashinasozlik, kimyo) taqozo etdi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari ham tizim-tarkib g‘oyasiga ko‘ra ko‘p bosqichli, pog‘onasimon bo‘ladi. Bunda birlamchi element sifatida oddiy korxona xizmat qiladi. Sanoat asosida vujudga kelgan hududiy majmualarning negizini, birlamchi elementini sanoat korxonasi tashkil qiladi va u zavod yoki fabrika ko‘rinishida bo‘ladi.

Shunday qilib, HICHMIarning ilmiy nazariy asoslari taniqli olim N.N.Kolosovkiy tomonidan yaratildi. U ushbu masalani iqtisodiy rayonlashtirish muammolari bilan bog‘liq ravishda o‘rgandi. Umuman olganda, N.N.Kolosovkiyning bunday dunyoqarashiga uning transport (temir yo‘l transporti) muhandisi ekanligi va geografiya uchun an’anaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks yondashuvining uyg‘unligi asos bo‘ldi; “hudud + kompleks” ishlab chiqarishning hududiy birikmalari yoki majmularini tashkil etadi.

Chindan ham kompleks-majmuaning³ ilmiy-amaliy ahamiyati katta.

Chunonchi, u:

- tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan atroflicha foydalanish;
- ishlab chiqarishni mumkin qadar chiqindisiz yo‘lga qo‘yish;
- ishlab chiqarishni tizim-tarkib asosida hududiy tashkil qilish;
- iqtisodiy geografiya va uning asosiy tushunchasi bo‘lgan iqtisodiy rayonlarni o‘rganish;
- iqtisodiy rayonlar xo‘jaligi tarkibini qayta qurish va boshqalarda ahamiyatlidir.

³ “Комплекс” - байналмилал тушунча бўлиб, у бирикма, бирлашма, мажмуа, у ёки бу ҳодисаларнинг ўзаро алоқадорликда, таъсирда мавжудлигини англатади.

Demak, ishlab chiqarish tarmoqlarini ma'lum iqtisodiy makonda o'zaro aloqadorlikda joylashtirish, transport omilini e'tiborga olish, barcha yordamchi tarmoqlarni (hozirgi zamon tilida-infratuzilma shahobchalarini) umumiylar tarzda tashkil etish katta iqtisodiy samaradorlikga olib keladi.

HICHM - muayyan geografik nuqta yoki alohida rayonda, uning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, transport va iqtisodiy geografik o'rniqa muvofiq korxonalarini to'g'ri tanlab olish va joylashtirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikga erishadigan ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shaklidir.

HICHM-lar g'oyasi, birinchidan, iqtisodiy rayonlar xo'jaligini kompleks rivojlantirish va, ikkinchidan, N.N.Kolosovskiyning Ural-Kuznetsk kombinati (UKK) va Baykalbo'yi ("Angarqurilish") komplekslari loyihalarini yaratish va ularni amalga tadbiq etish jarayonida yuzaga keldi. Ushbu tushuncha ilk bor Irkutsk-Cheremxovo majmuasiga nisbatan ishlatildi. Albatta, bunda muallifning muxandislarga xos fikrashi, transport-temir yo'l qurilishi mutaxassisi bo'lishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning, Rossiya (sobiq Ittifoq) iqtisodiy geografiya fanining HICHMLar va iqtisodiy rayonlar to'g'risidagi yutug'ini hatto rivojlangan mamlakatlar-AQSH va Germaniya ham tan olgan; bevosita muallifning o'zi 1948 yilda Fransiyada ushbu muammolar va ularning amaliy yechimi haqida ilmiy ma'ruzalar qilgan.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiya fanining uchta asosiy tushunchasi: iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari mashhur olim, geografiya fanlari doktori, professor Nikolay Nikolayevich Kolosovskiyiga taalluqli.

Iqtisodiy geografiya o'zining evolyusion taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. U dastlab *tasvirlovchi* funksiyani bajargan bo'lsa, keyinchalik iqtisodiy geografiyaning *analitik* xususiyati kuchaydi, hodisa va voqealar faqat tasvirlanmasdan, ular ilmiy tahlil asosida ta'riflandi va tavsiflandi. Mazkur fan rivojlanishining uchinchi bosqichi *sintez*, ya'ni tahlil natijalarini umumlashtirish va baholash (diagnostika) bilan bog'liq bo'ldi. Hozirgi kunda esa iqtisodiy geografiyada *prognоз va boshqaruv* (hududiy menejment), *jamiyat va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish* funksiyalari ham rivojlanmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish keyingi o'n yillikdagi eng muhim masalalardan biri bo'lib qoldi. Ushbu mavzu nafaqat nazariy, balki ko'proq amaliy ahamiyatga ega ekanligi xalqaro munosabatlarda uning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Chunki sho'ro tizimi hamda Varshava shartnomasining parchalanishi oqibatida Yevroosiyo qit'asida ko'plab yangi davlatlarning paydo bo'lishi, yer yuzidagi eng ulkan qit'ada kuchlarning

strategik muvozanatining qaytadan taqsimlanishini taqozo etdi. Rossiya ulkan hududini saqlab qolgan bo‘lsada, bugungi kunda o‘zining ilgarigi qudratini tiklashga urinmoqda.

Geosiyosiy tadqiqotlarga ko‘ra Yevroosiyoda kechayotgan barcha geosiyosiy jarayonlar tarixan shakllangan qat’iy qonuniyat asosida qit’aning markaziga intilishga qaratilgan. Bunga birinchi jahon va ikkinchi jahon urushlari yaqqol misoldir. Bundan tashqari, keyingi jahon urushidan so‘ng avjiga chiqqan qurollanish poygasi ham geosiyosiy tadqiqotlarda aks etgan yer yuzida ming yillardan davom etib kelayotgan ikki kuch qarama-qarshiliginu ifoda etadi. Keng ma’noda «xartlend» va «rimlend» o‘rtasida ziddiyat, boshqacha aytganda “yer yuragi”ga intilish bugungi kunda ham yuz yillardan beri davom etib kelayotgan geosiyosiy jarayonlarni belgilab bermoqda. Bu jarayonlar geosiyosatchi olimlar tomonidan chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganilgan va aynan ushbu izlanishlar ko‘pgina harbiy harakatlarining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Yer yuzidagi eng qudratlari davlatlar aynan geosiyosiy tadqiqotlar asosida o‘z tashqi strategiyasini qurishgan, tashqi siyosat borasida muhim qarorlar aynan geosiyosatchilarning qat’iy maslahatlariga tayangan holda amalga oshirilgan. Buni Britaniyada o‘n to‘qqizinchasi oxiri va yigirmanchi asr boshlarida yashab o‘tgan Xelford Makkinder hamda o‘tgan asrning so‘nggi choragida alohida shov-shuvga sabab bo‘lgan geosiyosatchi olimlar S.Xantington, F.Fukuyama yoki Z.Bzejinskiylar misolida yaqqol kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va uning xavfsizligi to‘g‘risida ham dastavval ismlari qayd etilgan xorijlik mutaxassislar va geosiyosatchilar atroflicha fikr bildirishgan. Chunki Markaziy Osiyo qit’adagi eng yirik kuchlar, jumladan, Rossiya, Xitoy, Hindiston va Eronning o‘rtasida joylashganligi tufayli uning turli manfaatlar tugunida ekanligini birdiradi. Mintaqaviy xavfsizlik to‘g‘risidagi har qanday tadqiqot aynan geosiyosiy nuqtai nazardan qo‘lga olinishi, mintaqaning turli geosiyosiy kuchlar hamda markazlar o‘rtasida joylashganligidan kelib chiqilishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa avvalo geosiyosiy fanning tub mohiyatini anglash hamda mintaqaviy xavfsizlik tizimini shu fanga tegishli qoidalar asosida qurish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy fanlardagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan geosiyosatning xalqaro munosabatlarda, ayniqla, davlatlar o‘rtasida strategik muvozanatni saqlashdagi amaliy ahamiyati o‘tgan asrda ko‘proq namoyon bo‘ldi. Lekin shunga qaramasdan hozirga qadar geosiyosatni ilmiy yo‘nalish sifatida legitimlash masalasi oxirigacha hal etilgani yo‘q. Buning o‘ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor. Shunga qaramasdan geosiyosat, xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin egallayotganligini hech kim inkor eta olmaydi va shu tufayli uning tub mohiyatini

tadqiq etish, Markaziy Osiyo atrofida keyingi yillarda ro‘y berayotgan geosiyosiy jarayonlarni anglash nuqtai nazaridan ayniqsa, muhimdir.

Geosiyosatning tarixi ancha murakkab bo‘lganligi tufayli uning fan sifatidagi taqdiri ham mavhumroq. Bir tomondan, tushunchaning o‘zi hozirgi siyosatda faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan geosiyosiy jurnal va institutlar ko‘payib bormoqda. Ushbu fan asoschilarining asarlari qayta-qayta nashrdan chiqmoqda, konferensiylar, simpoziumlar o‘tkazilmoqda, geosiyosiy qo‘mitalar va komissiyalar tuzilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, hozirgi kungacha geosiyosat ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan fanlar sirasiga kira olmagan. Nemis olimi F.Ratsel, shved geografi R.Chellen va asosan, ingliz geografi X.Makkinderning geosiyosatga oid ilk asarlari olimlar tomonidan keskin tanqidga uchradi.

So‘nggi davrdagi o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mumtoz fanlar safiga qabul qilinmagan bo‘lsada, geosiyosat amaliy jihatdan o‘ta samarali. Nima bo‘lganda ham, geosiyosat bugungi kunda mavjud hamda sekinlik bilan bo‘lsada rasmiy jihatdan tan olinish bilan birga o‘ziga munosib mavqe qozonib bormoqda. Lekin, bu jarayonda ham hamma narsa to‘kis emas.

Har qadamda “geosiyosat”ni turli tushunchalar bilan almashtirilayotganligini va shunga ko‘ra ushbu atamaning sohaga tegishli bo‘lman mutaxassislar tomonidan qo‘llanilishi odatiy holga aylangan. Urg‘u geosiyosat fanining asoschilari tomonidan yaratilgan to‘liq va umumiyy geosiyosiy manzaradan, xususiy mintaqaviy hodisalar va geoiqtisodiy sxemalar tomon og‘ib ketmoqda. Bu holatda ibridoq qoidalar bo‘lgan **geosiyosiy dualizm, strategiyalar raqobati, sivilizatsiyalar rang-barangligi** va boshqalar e’tibordan qoladi.

Geosiyosatning ta’rifi. Geosiyosiy mакtablar namoyondalari yaratgan ilmiy ishlar, ularning turlicha, hatto ziddiyatli ekanligiga qaramasdan yagona umumiy manzara doirasida jamlanishi, ushbu fanni qandaydir tugal va aniq majmua deyish imkonini beradi. U yoki bu mualliflar va lug‘atlar ushbu fanning asosiy predmeti hamda bosh uslubiy tamoyillarini belgilashda bir-birlaridan farqlanishadi. Bunday bo‘linish tarixiy shart-sharoitlardan, shuningdek, geosiyosatning dunyo siyosati, hokimiyat muammolari va hukmron mafkuralar bilan chambarchas bog‘liqligidan kelib chiqadi.

Geosiyosatning sintetik xarakteri uning tarkibida geografiya, tarix, demografiya, strategiya, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, harbiy ish, mafkura, sotsiologiya, siyosatshunoslik tarixi va hakozo ko‘pgina qo‘srimcha fanlarning qo‘silib ketganligi bilan izohlanadi. Sanab o‘tilgan tabiiy, ijtimoiy va harbiy fanlar o‘zlariga mansub ko‘pgina maktablar va yo‘nalishlarga ega bo‘lganligi tufayli, ularning geosiyosatga qat’iy tegishliligi to‘g‘risida gapirishga o‘rin yo‘q. Demak, bu qadar o‘ta muhim hamda samarador, ayni paytda haddan tashqari keng qamrovli bo‘lgan ushbu fanning ta’rifi murakkab.

Hozirgi paytda turli fanlarning sintezlashishi, qo'shilishi, fanlararo yangi umumiy fanlar (makrofanlar) va serqirra andozalar tuzilishi jarayonida geosiyosat ham nazariy tadqiqotlar uchun ham sayyora miqyosida yoki ma'lum bir davlat yoki davlatlar hamjamiyati miqyosidagi murakkab sivilizatsion jarayonlarni boshqarishda amaliy jihatdan o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lib bormoqda. Bu kelajak fani bo'lib, uning asoslari nafaqat maxsus o'quv yurtlari va akademiyalarda, balki oddiy maktablarda ham o'qitiladi.

Geosiyosiy tahlil orqali davlatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotining butun bir davrlarini osongina tushunish mumkin. Shu bilan birga, geosiyosatning ijtimoiy sohadagi ahamiyati ham ortib bormoqda. Geosiyosiy tadqiqotning ilmiy-uslubiy negizi qisqacha ana shulardan iborat bo'lib, uni geosiyosat faniga kirish deb ham tushunish mumkin. Bugungi kunda geosiyosatga oid darslik hamda qo'llanmalarning yetarli emasligi ushbu fan doirasida chuqur ilmiy izlanishlar zarur ekanligini ko'rsatmoqda.

Nazariy savollar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari nimalardan iborat.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini aniqlang.
3. Hududiy majmualarning shakllanishi jarayonlarini tushuntiring.
4. Mintaqaviy siyosatning ilmiy-amaliy ahamiyatini tushuntiring.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya doirasida siyosiy geografik va geosiyosiy tadqiqotlarni tushuntiring.
6. Asosiy geosiyosiy g'oya, konsepsiya va nazariyalar, ularning mazmun – mohiyati hamda ilmiy – amaliy ahamiyati.

Qo'shimcha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

48. Spens N., Owens A. Methods of geographical analysis. Published by: University of London, 2007. Reprinted with minor revisions 2011.
49. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. Izd.: «Progress», Moskva, 1966.
50. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. M: GU - VSHE, 2001, 2003.
51. Anna Battimer. Put v geografiu. – M.: Progress, 1990.

52. Asanov G. R. Sotsial – iqtisodiy geografiY. Termin va izohli tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
53. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbrannkiye trudi. – M., 1980.
54. Zokirov SH., Toshev X. Geografiya tarixi. – Buxoro, “Durdon”, 2015.
55. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiY. – M., 2002.
56. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1999.
57. Porosenkov Y.V., Porosenkova N.I. Iстория и методология географии. – Voronej, 1991.
58. Saushkin Y.G. Iстория и методология географической науки. – M.: MGU, 1980.
59. Saushkin Y.G. Geograficheskaya nauka v proshlom, nastoyashem i budushem. – M., 1984.
60. Soliyev A., Axmedov E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet, 2003.
61. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metod va amaliyat. – T., 2013.
62. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.- Toshkent: Universitet, 2007.
63. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014.
64. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T., 2009.
65. Sotsialno-Ekonomicheskaya geografiya: ponyatiya i termini. – Smolensk, 2013.
66. Skopin A.Y. Vvedeniye v ekonomiceskuyu geografii. – Smolensk., 2013,
67. Trofimov A.M. Sharigin M.D. Obshaya geografiya (Voprosi teorii i metodologii). – Perm, 2007.
68. Alayev E . B . Sotsialno- ekonomicheskaya geografiya: Ponyatiyoterminologicheskiy slovar / E .B. Alayev. – M .:Misl, 1983. -350 s.
69. Golubchik M .M . Iстория географии : ucheb. posobiye / M.M. Golubchik, S .P .
- Yevdokimov, S .N . Maksimov. – Smolensk : Izd-vo Smolen. gum .un- ta, 1998. -224 s.

70. Golubchik M.M. Politicheskaya geografiya mira. Ucheb. Posob. Smolensk, 1998.

71. Xagget P. Geografiya: sintez sovremenix znanii / P. Xagget. – M.: Progress, 1979. – 684 s.

4-MAVZU: Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati

PEЖKA:

4.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning mazmuni, ilmiy -nazariy ahamiyati.

4.2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari.

Tayanch iboralar: *iqtisodiy geografiya, ijtimoiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy siyosat, rekreatsiya geografiyasi, shahar, urbanizatsiya, aglomeratsiY.*

4.1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning mazmuni, ilmiy-nazariy ahamiyati
Hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qator MDH mamlakatlarida «**Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va rekreatsiya geografiyasi**» sifatida tan olingan va aynan shu ixtisoslikda fan nomzodi va doktori dissertatsiyalari himoya qilinadi. Bu yerda ijtimoiy tushuncha ikki xil ma’noga ega:
tor ma’noda sotsial, **keng ma’noda** esa u barcha sohalarni, hatto iqtisodiy masalalarni ham qamrab oluvchi ijtimoiy geografiyani anglatadi.

Mazkur fanning yuqoridaagi uchlik tarkibiga muvofiq uch xil tadqiqot makoni mavjud. Bunda *sotsial makon* hududiy jihatdan ancha kichik, *iqtisodiy makon*-o‘rtacha va *siyosiy makon* nisbatan katta hududni qamrab oladi. Sotsial makon deganda kishilarning kundalik muayyan hududdagi hayotiy faoliyatini, o‘zaro aloqalarini tushunamiz. Bunda turli kasb, millat, yosh va jinsdagi aholining yashash joyi, uning hududiy umumiyligi (sotsiumi) nazarda tutiladi. Masalan, mahalla, ishchilar, to‘qimachilar, aviasozlar, temir yo‘lchilar, talabalar shaharlari va h.k.

Demak, sotsial geografiya aholining sotsial (ijtimoiy), va tabiiy muhit bilan aloqasini o‘rganadi. Chunonchi, unga:

- din;
- jinoyatchilik;
- ta’lim;
- tibbiyot;
- fan va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi;
- rekreatsiya geografiyasi;
- turizm geografiyasi;
- xulq – at’vor geografiyasi va boshqalar kiradi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari esa bevosita **sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya o‘rtasida turadi** va u iqtisodiy geografiyaning sotsiallashuvi yo‘nalishidagi dastlabki muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari ham o‘z navbatida turli xil: bunga maishiy xizmat ko‘rsatish sohalari, ta’lim, savdo, tibbiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xizmat ko‘rsatish (servis) sohalari misol bo‘la oladi. Geografik jihatdan ushbu tarmoq korxonalarining joylashuvi ham hududiy majmua (HM) shaklida bo‘ladi. Biroq bunday HM lar ishlab chiqarish tarmoqlaridagi majmualardan o‘zlarining ancha kichik hududiy vujudga kelishi bilan farq qiladi.

Masalan, ta’lim tizimini olaylik: o‘rta yoki o‘rta maxsus maktablar faqat o‘quv binolari emas, balki kutubxona, sport maydonchasi bilan birgalikda joylashtiriladi. Bunday **hududiy majmualar** ayniqsa oliy o‘quv yurtlari joylashuvida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Toshkentdaggi talabalar shaharchasida ikkita universitet (Milliy universitet va texnika universiteti), talabalar uyi, sport majmuasi, savdo shahobchalari, kutubxona, poliklinika, akademik litsey va boshqalar o‘ziga xos hududiy majmuani tashkil etadi. Nisbatan kichikroq HM respublikamizning boshqa oliygochlari asosida ham mavjud. Ayniqsa, bu borada Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro, Qarshi, Nukus, Urganch, Andijon davlat universitetlari, Jizzax pedagogika institutlari ajralib turadi.

Xuddi shunga o‘xshash hududiy majmualar qishloq xo‘jaligi oliygochlari uchun ayniqsa xosdir. Ularda, yuqoridagilardan tashqari, tajriba uchastkalari, turli xil ilmiy labaratoriylar ham mavjud bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlari ham hudududiy majmua shakliga ega. Qolaversa, alohida universitet va ilmiy tadqiqot institutlari asosida shahar va shaharchalar vujudga kelgan (Kembrij, Tartu, Dubna, Pushkino, Gatchino, Akademgorodok, Ulug‘bek va h.k.) Toshkentning Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan «Akademiklar shaharchasi»da O‘zbekiston FA-ga qarashli qator ilmiy tadqiqot institutlari o‘rnashgan.

Tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari ham o'ziga xos hududiy majmualarni tashkil etadi. Masalan, tug'uruq majmualari, turli xil yiriklik va ixtisoslashgan kasalxonalar yaqinida poliklinika, dorixona, tashxis bo'limi kabi tibbiyot muassasalari va infratuzilmalari joylashgan. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, avtomobilarni ta'mirlash, ularni yonilg'i bilan ta'minlash kabilar ham kichik ko'lamdagi hududiy majmular ko'rinishiga ega. Masalan, shaharlarning turli mavze va dahalarida maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari (komplekslari) joylashgan. Ularning tarkibiga poyafzal, sovutgich va boshqa uy-ro'zg'or asboblarini, audio va videoapparatlarni ta'mirlash, rasmga tushish va ba'zan hammom, sartaroshxona va boshqalar kiradi.

Din geografiyasida ham hududiy majmualarni ko'rish mumkin. Bunga, eng avvalo, musulmon mamlakatlari uchun mashhur va muqaddas hisoblangan Makka va Madina, Quddusi Sharif (Iyerusalim), Buxoroi Sharif, Mozori Sharif, Mashhad kabi shaharlar ayni vaqtida diniy hududiy majmular hisoblanadi.

Umuman olganda, mozor, bozor va vokzallar har bir joyning tarixi, qadriyati (o'tmishi), boyligi va butligi (buguni), tashqi hududlar bilan aloqalarini aks ettirgan holda, o'zları ham majmua shaklida tashkil qilingan. Shu o'rinda ular atrofidagi o'ziga xos geokriminogan vaziyat yuzaga kelishini ham ta'kidlash joiz.

Rekreatsiya va turizm geografiyasidagi hududiy majmular dam olish, sog'liqni tiklash, notanish joylar bilan tanishish, ularni o'rganish va ma'naviy ozuqa olish imkoniyatini beradi. Ularning o'z tarkibiga sanatoriya (sihatgoh), turistik obyektlar, xususan arxeologik va qadimiy yodgorliklar, turistik xizmatni tashkil qiluvchi muassasa (byuro), unga sharoit yaratuvchi turistik infratuzilma, chek sotuvchi, tarjimonlar xonasi, avtomobil parki, mehmonxona, suvenir sotuvchi va boshqa do'konlar, ovqatlanish joylari kabilar kiradi. Turistik va rekreatsiya majmualari ayni vaqtida ham kichik (shahar ichida), ham shahar doirasida, ba'zan yanada kattaroq hududlarda tashkil etiladi.

Sharq olami, xususan bizning O'rta Osiyo va unga tutash mamlakatlar tarixi va geografiyasini o'rganishda ularda mavjud bo'lgan bozorlarning ahamiyati katta. Qadimda bozorlar shaharlar ma'nosini bildirgan, bozori bor joylar shaharlar deb atalgan. Bugungi kunda ham qishloq tumanlarida bozorlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki madaniy-ma'rifiy, axborot ahamiyatga ega. Bozor va uning atrofidagi, infratuzilma obyektlari, avtomobil vokzali va boshqalar hududiy majmualarni tashkil etadi.

Geourbanistika. Geourbanistik tadqiqotlar bevosita shahar aholi punktlari, shaharlashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Binobarin, shaharlar ishlab chiqarish kuchlarini hududiy mujassamlashuvining o'ziga hos shakllaridan biri bo'lishi bilan birga, aholi ijtimoiy

hayotining ajralmas qismidir. Shaharlashuv jarayonlarining rivojlanish darajasi bevosita shu hudud yoki davlatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘lanib ketadi. Shaharlar yirik aholi punktlari bo‘lib, unda yashaydigan kishilar qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmasdan, boshqa ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy sohalarda shug‘ullanishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o‘ynagan. Shahar aholi punktlapi o‘lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi punktlapida giga nisbatan ko‘p sonliligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyat bilan belgilanadi.

Aholi punktlari shaharga aylanishida ularning iqtisodiy salohiyati, funksiyasi ham muhim mezonlardan biridir. Shahar aholi punktlapida yashovchilar qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lmasligi yoki juda kam sonlini tashkil etishi kerak. O‘zbekistonda ishchi, xizmatchi va ularning oila a’zolari shahar aholisining 2/3 qismidan ko‘prog‘ini tashkil etishi hamda bunday aholi punktlarida sanoat korxonalari (og‘ir industrial), kommunal xo‘jalik tashkilotlari, davlat uyjoy fondi, o‘quv yurtlari, madaniyma’rifiy, tibbiy, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari mavjud bo‘lishi lozim. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas.

Sobiq SSSRda aholi punktlariga shahar maqomini berish bo‘yicha bir qator qonun-qoidalar qabul qilingan. Bunday qonun-qoidalar ayrim respublikalarda o‘zaro farq qilar edi. Masalan, Ukrainada aholi soni shaharlar uchun 10000, shahar tipidagi posyolkalar (SHTP) uchun 3000 kishi qilib belgilangan. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich tegishlicha 7000 va 2000 kishini tashkil etadi.

Aholi punktida istiqomat qiluvchilarning ko‘pchilik qismi mehnatning qanday turi bilan bandligi darajasi ham shaharcha maqomini berishda muhim belgilaridan hisoblanadi. Shahar aholi punktlarining shahar, deb nomlanishida unda yashovchilar miqdori ham muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o‘sib borishi – urbanizasiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya’ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. BMT bergen statistik ma’lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi shaharlarda yashaydi, ya’ni 2014 yilda yer shari aholisining 50 foizi shaharlarga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich 2030 yilda 60 foizni, ya’ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil etadi.

Geourbanistik tadqiqotlarda urbanizatsiya darajasi bo‘yicha mamlakatlarni solishtirganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, aholi soni);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi va x.k.

Bulardan shahar aholi salmog‘i urbanizatsiya darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u yer sharining barcha hududlarida urbanizatsiya jarayonining borishini ko‘rsatadi.

Urbanizatsiya darajasining keskin farq qilishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim o‘rin tutadi. Biron-bir mamlakat, mintaqalijmoiyyat qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘sha joyda urbanizatsiya darajasi, shahar aholisi salmog‘i katta bo‘ladi. Ayrim hollarda tabiiy omillar tufayli ham urbanizatsiya darajasi ko‘tarilishi mumkin. Masalan, istiqbolli foydali qazilma konlari, qulay iqtisodiy geografik o‘rin va x.k.

Shulardan iqtisodiy geografik o‘rni (IGO‘) shahar va shahar aholi punktlari tarkib topishida muhim omil hisoblanadi. Ma’lumki, IGO‘ mikro, mezo va makro darajada ajratib ko‘rsatiladi. Shahar aholi punktlari paydo bo‘lishida, IGO‘ning mikrodarajadagi ahamiyati katta mavqega ega bo‘ladi. Uning mezo va makrodarajadagi ahamiyati esa keyinchalik shaharchalarning rivojlanishi va yirik markazlarga aylanishida muhim o‘rin tutadi. Binobarin, ayrim shaharlarning mikrodarajadagi o‘rni noqulayligi uning asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Shaharlarning mezodarajada o‘rni qulayligi uning yirik va katta shaharlarga aylanishiga zamin bo‘lishi mumkin. Agarda bu aksincha bo‘lsa, shahar kichik xolatida qolaveradi.

Shaharlarni tadqiq qilishda IGO‘nini to‘rtta bosqichga ajratish tavsiya etiladi. mikro o‘rni-yaqin shahar atrofiga nisbatan o‘rni;

mezo o‘rni-mamlakat katta bir qismiga yoki uncha katta bo‘lmagan davlatga nisbatan o‘rni;

makro o‘rni-yirik davlat chegaralariga nisbatan o‘rni; mego o‘rni-dunyo miqyosida yoki uning yirik regionlariga nisbatan tutgan o‘rni. Makrodarajadagi o‘rin shaharlar rivojlanishida, yuqori bosqichlarga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu o‘rin shaharlar taraqqiyotida ijobjiy xususiyat kasb etmasa, ular hayot faoliyatni o‘zgarishsiz qolaveradi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o‘rni (IGO‘) birqancha komponentlardan tashkil topadi. Bular esa o‘z navbatida yana bir necha elementlarga bo‘linib ketadi.

Jumladan:

1. Shaharlarning tabiiy geografik o‘rni:

- tabiat zonalariga nisbatan o‘rni;
- tabiiy resurslarga nisbatan;

2. Sanoat –geografik o‘rni:

- xom ashyo manbalariga nisbatan, ya’ni elektro energiya, yoqilg‘i va hakozo;
- qayta ishslash sanoti markazlariga nisbatan;

3. Shaharlarning agro-geografik o‘rni: qishloq xo‘jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;

4. Transport-geografik o‘rni:

- ichki muhim transport magistrallariga nisbatan; - xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan;

5. Bozor-geografik o‘rni:

- maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan;
- istyemol mollari bilan ta’minlaydigan rayonlarga nisbatan;

6. Geodemografik o‘rni:

- aholi o‘sishi bilan bog‘liq rayonlarga nisbatan o‘rni;
- fan, ta’lim va madaniyat markazlariga nisbatan;

7. Siyosiy-geografik o‘rni:

- mamlakat poytaxtiga nisbatan;
- davlat chegaralariga nisbatan;

8. Harbiy-geografik o‘rni:

- mudofaa ahamiyatiga ega obyektlarga nisbatan;
- siyosiy (harbiy) konfiliqt o‘choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o‘rinlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo‘yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim geografik o‘rni bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo‘lsa ham turli hududlarda IGO‘ ahamiyati bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi.

Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo‘lishidan qat’iy nazar har birining bajaradigan o‘z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasi-aholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi

ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funksiyasiga ko‘ra ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin: I. Ishlab chiqarish (industrial):

- sanoat; - transport;
- savdo-sotiq.

II. Noishlab chiqarish:

- harbiy;
- madaniy; - kurort.

Shuningdek, ba’zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma’qul ko‘radi.

- siyosiy-ma’muriy markazlar, poytaxt shaharlar;
- ko‘p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari;
- ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari;
- asosan bir yoki ikki sanoat tarmog‘iga ixtisoslashgan shaharlar;
- transport markazlari;
- agroindustrial shaharlar;
- tuman markazlari;
- rekreatsiya shaharlari;
- Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k.

Shaharlar katta-kichikligiga qarab ham funksional tiplarga ajratiladi.

Shaharlarning katta-kichikligi ular aholisi soniga qarab belgilanadi.

Shaharlarning funksional tuzilishi shahar hayotining barcha jabhasida yaqqol seziladi, shu boisdan shaharlarni turli yo‘nalishda **tadqiq etishda** buni albatta hisobga olish lozim. Shaharlarning funksional tuzilishi aholi takror barpo bo‘lishi sur’atiga, aholi demografik tarkibiga, aholi bandligi, aholi migratsiyasi xarakteriga, aholi ijtimoiy tarkibiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aholining yirik shaharlarda to‘planishi yirik–katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o‘rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, kommunal-xo‘jalik aloqalari o‘zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi punktlarining yangi turi fanda aglomeratsiya, deb nomlanadi. Aglomeratsiya–aholi punktlarning bir-birlariga qo‘silib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o‘rnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o‘quv muassasalari to‘plangan bo‘ladi. Shahar

aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to‘planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o‘rin tufayli eniga va bo‘yiga kengayib borishidan hamda yirik shahar atrofida va unga yaqin joyda shahar va shaharchalarning tarkib topib qo‘silib ketishidan paydo bo‘ladi.

Shahar aglomeratsiyasi quyidagi shart va sharoitlarga tayangan holda shakllanadi:

- shahar atrofida bitta yoki ikkita yirik shahar bo‘lishi lozim;
- uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo‘lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo‘ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko‘pi ikki soatlik vaqt doirasida bo‘lishi zarur;
- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o‘rtasida mayatniksimon (tebranma) migratsiya aloqasi rivojlangan bo‘lishi shart;
- atrofidagi shaharlar aholisi eng kami aglomeratsiya aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va x.k.

Aglomeratsiya chegaralari odatda, markaz shahar bilan uning atrofidagi shaharlar o‘rtasidagi mehnat, madaniy-maishiy aloqalar samaradorligi bilan belgilanadi. Bu aloqalar chegarasi hozirgi zamonaviy transport rivojlangan bir vaqtida 50-60 km oraliqdagi radiusni tashkil etadi. Ko‘pgina hollarda bu shahar aglomeratsiya chegarasi ma’muriy chegaralar bilan mos kelmaydi.

Shahar atrofidagi aholi punktlarining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi shahar aglomeratsiyasining o‘z chegarasidan tashqariga chiqishiga olib kelmoqda. Bu jarayon fanda suburbanizasiya-deb ataladi (suburbanizasiya lotinchadan subur-shahar atrofi). Shahar markazidagi ekologik vaziyat, o‘ziga xos murakkab turmush tarzi, narx-navoning balandligi, jinoyatchilikning o‘sishi, va boshqalar odamlarning shahardan tashqariga ko‘chib o‘tishi va shahar markaziga ishga kelib-ketishi suburbanizasiya jarayoning rivojlanishida yetakchi omillar hisoblanadi. Eng avvalo bunda aholining moddiy jihatdan o‘ziga to‘q qatlami shahar atrofiga kelib joylasha boshlaydi. Keyinchalik o‘rta qatlam va o‘z navbatida aholi bilan baravariga ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari ham kelib o‘rnashadi, rivojlanadi.

Nazariy savollar:

1. Ijtimoiy geografik tadqiqotlar va ularning mazmuni.

2. “Ijtimoiy” tushunchasining keng va tor ma’noda tushunishni izohlang.
3. Ijtimoiy geografik tadqiqotlarning turlari.
4. Tibbiy geografik tadqiqotlar va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati.
5. Urboekologik tadqiqotlar mazmunini tushuntiring.
6. Dinning – ijtimoiy geografik tadqiqotlarning ilmiy tadqiqot obyekti sifatidagi rolini izohlang.
7. G‘arbda sotsial – geografik tadqiqotlarning mazmuni.
8. G‘arbda sotsiogeografiya va sotsiogeografik tadqiqotlarni tushuntiring.
9. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda ijtimoiy – geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlang.
10. Shaharlar geografiyasi va geourbanistikaga oid tadqiqotlar.

Qo‘srimcha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

72. Spens N., Owens A. Methods of geographical analysis. Published by: University of London, 2007. Reprinted with minor revisions 2011.
73. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. Izd.: «Progress», Moskva, 1966.
74. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. M: GU - VSHE, 2001, 2003.
75. Anna Battimer. Put v geografii. – M.: Progress, 1990.
76. Asanov G. R. Sotsial – iqtisodiy geografiY. Termin va izohli tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
77. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbrannye trudi. – M., 1980.
78. Zokirov SH., Toshev X. Geografiya tarixi. – Buxoro, “Durdona”, 2015.
79. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiY. – M., 2002.
80. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1999.
81. Porosenkov Y.V., Porosenkova N.I. Iстория i методология географии. – Voronej, 1991.
82. Saushkin Y.G. Iстория i методология географической науки. – M.: MGU, 1980.
83. Saushkin Y.G. Geograficheskaya nauka v proshlom, nastoyashem i budushem. – M., 1984.

84. Soliyev A., Axmedov E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.:Universitet, 2003.
85. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metod va amaliyat. – T., 2013.
86. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.- Toshkent: Universitet, 2007.
87. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014.
88. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T., 2009.
89. Sotsialno-Ekonomicheskaya geografiya: ponyatiya i termini. – Smolensk, 2013.
90. Skopin A.Y. Vvedeniye v ekonomiceskuyu geografii. – Smolensk., 2013,
91. Trofimov A.M. Sharigin M.D. Obshaya geografiya (Voprosi teorii i metodologii). – Perm, 2007.
92. Alayev E . B . Sotsialno- ekonomicheskaya geografiya: Ponyatiyoterminologicheskiy slovar / E .B. Alayev. – M .:Misl, 1983. -350 s.
93. Golubchik M .M . Istorya geografii : ucheb. posobiye / M.M. Golubchik, S .P .
- Yevdokimov, S .N . Maksimov. – Smolensk : Izd-vo Smolen. gum .un- ta, 1998. -224 s.
94. Golubchik M.M. Politicheskaya geografiya mira. Ucheb. Posob. Smolensk,1998.
95. Xagget P . Geografiya: sintez sovremenix znaniy / P . Xagget . – M.: Progress, 1979. – 684 s.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot:

Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar. Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish.

1. *Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar.*
2. *Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish.*

1. *Aholi va ijtimoiy-geografik tadqiqotlar.*

Hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini, bevosita aholi yoki inson siz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, aholi nafaqat ishlab chiqaruvchi subyekt bo'lib qolmasdan, balki u moddiy va ma'naviy boyliklarning iste'molchisi, va shu bilan birga aholi o'z-o'zini qayta tiklab borishi (aholi takror barpo bo'lishi) bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ham unutmaslik lozimki, aholi, ya'ni insonning o'zi barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni subyekti sifatida mazkur jarayonlarni boshqarib turishi bilan ham xarakterlidir.

Shu boisdan, hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarni aholisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, aytish joizki, deyarli har qanday iqtisodiy – ijtimoiy geografik tadqiqotda aholi, ya'ni insonning ishtirokini ko'rish mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinligi, aynan inson omili, yoki aholi biz bilgan o'tgan asrning birinchi yarmida shakllangan sobiq Ittifoq iqtisodiy geografiyasini (moddiy ishlab chiqarish geografiyasini) sotsiallashuviga ham katta zamin yaratib, uni iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylanishiga xizmat qildi.

Hozirgi davrda ham jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida, xususan mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida bajarilayotgan tadqiqotlarning katta qismi bevosita inson bilan, uning demografik rivojlanishi xususiyatlaridan tortib, xo'jalik faoliyati, hayot sharoitlari, turmush darajasi va turmush tarzigacha bo'lган masalalar bilan chambarchas bog'langan.

To'g'ri, bugungi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanganlik darajasi va uning mintaqaviy yoki alohida olingan davlatlardagi ahvoli, darajalari orasida muayyan tafovutlarni ko'rish mumkin. Bunday farqlar, tafovutlar, avvalo, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, tadqiqot doirasi obyektivining qamroviga, tadqiqotlarning xarakteriga va qolaversa, jamiyat tomonidan "sotsial zakaz"ga ham bog'liqlikda kechdi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarda aholi yoki insonning ishtirokini turli darajalarini ko'rish mumkin. Chunonchi, bevosita moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq tadqiqotlarda aholining ko'proq uch jihatiga e'tibor qaratiladi. Bular, ishlab chiqaruvchi kuch, moddiy boyliklar iste'molchisi va mazkur jarayonlarning boshqaruvchisi.

Bevosita, ijtimoiy-geografik tadqiqotlarni esa aholisiz butunlay tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, bunday tadqiqotlarda aholi sohani joylashtirish va rivojlantirishning omili sifatida ham, iste'molchisi sifatida ham, boshqaruvchisi sifatida ham gavdalanadi. Demak, ijtimoiy geografik tadqiqotlarning "egasi" avvalo, inson – aholidir. Shu sababdan, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy va ayniqla ijtimoiy geografik tadqiqotlarda, eng avvalo aholining o'zini tadqiq qilishga, uning son va sifat o'zgarishlarini tahlil qilishga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada bizga, aholi geografiyasi yordamga keladi..

Aholi geografiyasi - iqtisodiy va sotsial geografiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, aholi sonining tadrijiy o‘zgarishlari, joylashuvi, tarkibi va aholi manzilgohlarini o‘rganadi.

Iqtisodiy geografiyaning zamonaviy iqtisodiy va sotsial (ijtimoiy) geografiyaga aylanishida aholi geografiyasi katta rol o‘ynadi. Shu bilan birga, ko‘pchilik olimlar aholi geografiyasini butunlay mustaqil fan sifatida iqtisodiy geografiya bilan yonma yon qo‘yadilar. Bunda, ular ushbu fanlarning tadqiqot predmetlarini bir - biridan aniq farqlanishini sabab qilib ko‘rsatadilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bevosita aholi (jamiat) va uni ijtimoiy rivojlanishining hududiy muammolarini o‘rganuvchi ijtimoiy geografiyaning vujudga kelishida aholi geografiyasi nazariy - metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Iqtisodiy va aholi geografiyalarining o‘zaro birikuvidan iqtisodiy va sotsial geografiya vujudga keldi. Ushbu jarayonda aholining qanchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lishini N.N.Baranskiy quyidagicha ifodalagan edi: - “iqtisodiy geograf shuni unutmaslikligi kerakki, aholi nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki, iste’molchi hamdir va shundan qilib iqtisodiyot boshdan oyoq aholi bilan bog‘langan”.

Ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra aholi: a) ishlab chiqarishning subyekti; b) moddiy va ma’naviy boyliklarning iste’molchisi; v) takror barpo bo‘luvchi; g) tabiat va xo‘jalik o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirning bosh bo‘g‘ini kabi sifatlarga ega.

Aholi geografiyasingning rivojlanishi iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘tgan asrning 40 - yillariga to‘g‘ri keladi. Bunda avvalo N.N.Baranskiy va R.M.Kabolarning xizmatlarini ta’kidlash kerak.

Hozirgi davrda aholi geografiyasida tadqiqotlarning ikki yo‘nalishi aniq shakllangan. Bularga, birinchidan, aholini o‘zini o‘rganish va ikkinchidan, aholi manzilgohlarini tadqiq qilish kiritiladi. Bu ikki yo‘nalish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar dunyo miqyosida va uning ayrim mintaqalari, alohida mamlakatlar doirasida ham shuningdek, shahar aglomeratsiyalari, shaharlar, alohida olingan aholi manzilgohlaridan tortib siyosiy - ma’muriy va iqtisodiy birliklar miqyosida ham amalga oshiriladi.

Aholi geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiya va boshqa turdosh fanlarning tadqiqot usullaridan keng foydalanadi. U mohiyatan aholishunoslik va demografiya bilan juda yaqin turadi.

Hozirgi davrda **aholi geografiyasi tarkibida quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin;**

- aholi sonining tadrijiy o‘zgarishlari, joylashuvi va uning shakllari;

- aholining takror barpo bo‘lishi;
- aholining etnik, jins - yosh va ijtimoiy tarkibi mehnat resurslari;
- aholi migratsiyasi;
- irqlar va dinlar geografiyasi.

Aholi bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqaruvchi, hamda moddiy - ma’naviy ne’matlarning iste’molchisidir. Shu bilan birga, aholi barcha ijtimoiy jarayonlarning boshqaruvchisi ekanligini ham unutmaslik lozim. Aholining bunday jihatlari o‘z navbatida, uni nafaqat takror barpo bo‘lishi, balki iqtisodiy jihatdan ham avvalroq tadqiq etilishiga asos bo‘ladi. Umuman olganda, aholi geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning yaxshi o‘zlashtirilgan tarmoqlaridan biridir.

Hozirgi davrda aholi geografiyasi oldida turgan vazifalarning nazariy, amaliy, ta’limiy jihatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin (Kopilov 1999. s. 11). Umumnazariy vazifalariga (1); jamiyat rivojlanishining umumiyligini qonunlari mohiyatini anglashga yordam beruvchi aholining joylashuvi va uning tabiat bilan o‘zaro ta’siri, ko‘pgina amaliy vazifalarni bajarish: aholi sonini hisobga olish; mehnat balanslarini tuzish; aholi migratsiyasini o‘rganish va uning kelajak o‘zgarishlarini bashorat qilish; 3) aholi geografiyasi bo‘yicha bilimlarni ommalashtirish.

Sobiq Ittifoq davridan boshlab, geograf olimlarning ko‘pchilik qismi aholi geografiyasini iqtisodiy va sotsial geografiyaning muhim tarmog‘i deb hisoblaydilar. Shuningdek, uni mustaqil fan sifatida qarovchilar ham mavjud.

Zamonaviy iqtisodiy va sotsial geografiya fanlari tizimida, aholi geografiyasi uning «iqtisodiy» hamda «sotsial» qanotlari orasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Demak, aholi geografiyasi xo‘jaliklar va tabiiy resurslar geografiyasi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Shuningdek, u tabiiy geografiya, mamlakatshunoslik va kartografiya fanlari bilan ham bog‘langan.

Ijtimoiy fanlardan quyidagilar aholi geografiyasi bilan aloqador: demografiya (grekchadan demos — «xalq»), ya’ni aholini takror barpo bo‘lishini o‘rganadi); etnografiya (grekchadan ethnos - «qabila», «xalq»), ya’ni qabila, millat, etnoslarning kelib chiqishi hamda. ularning madaniyati va hayot tarzini o‘rganadi); antropologiya (grekchadan anthropos — «odam», ya’ni inson jismi va uning kelib chiqishi xva. shuningdek, insoniyat irqlarini kelib chiqishi va tarqalishi haqidagi fan); sotsiologiya (lotincha societas - «jamiyat», ya’ni jamiyatni rivojlanish qonunlari, aholi guruhlari o‘rtasida hayot va mehnat faoliyati jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar haqidagi fan); ekologik (grekcha oikos - «uy, yashash joyi», ya’ni insonning atrof

— muhit bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi); rekreatsiya geografiyasi (lotincha gesgeatio — «tiklash» ya’ni aholining dam olishini barcha turlarini o‘rganadi).

Yuqoridagilardan tashqari, aholi geografiyasi bilan tibbiyat geografiyasi, mehnat iqtisodiyoti, sotsial gngiyena, shaharsozlik va rayon planirovkasi kabi fan tarmoqlari ham to‘g‘ridan -to‘g‘ri bog‘langan. Aholi geografiyasi ijtimoiy geografiyani shakllanishida poydevor bo‘ldi. Chunki, ijtimoiy geografiyani inson yoki aholisiz tassavvur etib bo‘lmaydi. Ijtimoiy geografiyaning diqqat markazida doimo aholi va uning ijtimoiy ehtiyojlari, munosabatlari yotadi.

Aholining geografik o‘rganilishi

Qadim zamonlardan boshlab olimlar turli mamlakatlarning tabiatini va xo‘jaligini o‘rganib, tasvirlash bilan birga ularning aholisini tavsiflashga ham katta e’tibor beriganlar.

Aholini o‘rganish bo‘yicha tabaqalanish, ya’ni demografiya hamda etnografiyaning vujudga kelishi XVIII asrning boshlariga kelib ro‘y berdi. XIX asrning oxirlarida esa antropogeografiya (Germaniyada, F.Ratsel) shakllandi. Uning negizida geografik determinizm, ya’ni «inson va xalqlarning ruhi va jismiga». tabiiy muhitning hal qiluvchi ta’sir etish g‘oyasi yotgan.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlariga kelib, Fransiyada inson geografiyasi shakllandi. Uning yirik nomoyondalari (P.Vidal de la Blash, J.Bryun) asosiy e’tiborni tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’siri masalalariga qaratdilar. Mazkur yo‘nalishning vakillari antropogeografiyadan farqli o‘larоq, aholining geografik rivojlanishi xususiyatlarining sabablarni nafaqat tabiiy, balki, iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy va ruhiy omillar bilan ham tushuntiradilar.

Hozirda, aholi geografiyasi turlicha. yo‘nalishlar (geodemografiya, shaharlar geografiyasi, migratsiya geografiyasi, aholi geografiyasida matematik modellashtirish) bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarning universitetlarida o‘qitiladi.

Aholi geografiyasi tadqiq etilgan ko‘plab asarlar rus tilida ham chop etildi. Ular jumlasiga D.Forrester va boshqalarning «Geografiya gorodov», «Dinamika razvitiya goroda»; Dj. Garner, D.Xarvey, Y.Gamilton, P.Xaggetlarning «Modeli: v geografii»; J.Boje Garnye va J.Shabolarning «Ocherki po geografii gorodov» kabi asarlarni kiritish mumkin.

Aholi geografiyasining rivojlanishida sobiq Sovet davri ham alohida o‘rin tutadi. Bu davrda aholi geografiyasining rivojlanishiga N.N.Baranskiy, R.M.Kabo, V.V.Pokshishevskiy, O.A.Konstantinov, Y.G.Saushkin, S.A.Kovalevlar katta hissa qo‘shdilar. Bu sohada hozirda ham salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirayotgan yirik olimlar jumlasiga G.M.Lappo, B.S.Xorev, V.P.Maksakovskiy, A.I. Alekseyev va boshqalarni kiritish mumkin.

O‘zbekistonda aholini turli jihatdan geografik o‘rganishda Kovalev S.A, Tashbekov E., Valiyeva R., Qoraxonov M., Salimov X., Asanov G., Akramov Z.M., Otamirzayev O., Soliyev A.S., Ahmedov E., Qayumov A., Bo‘riyeva M.R. va boshqalarni ta’kidlash lozim. O‘zbekistonning demografik rivojlanishi esa I.R. Mullajonovning ishlarida batafsil yoritilgan. O‘tgan asrning 90 - yillaridan boshlab, O‘zbekistonda aholi va uning ijtimoiy rivojlanishi masalalarini geografiya o‘rganish kuchaydi.

2. Aholini va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda aholi turlicha xususiyat kasb etadi. Bunda avvalo, aholini omil sifatidagi roliga e’tiborni qaratish lozim. Lekin, bu borada ham o‘ziga xos jihatlar mavjud. Agarda, tadqiqot mavzusi bevosita xo‘jalik, ya’ni muayyan bir tarmoq va uning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, bunda inson – aholining omil sifatidagi roli yuqori, agarda tadqiqot bevosita aholi va uning hayoti, turmush sharoitlari, turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday tadqiqotlarda aholi, ya’ni inson tadqiqotning bosh obyekti sifatida gavdalanadi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, sotsial, ya’ni bevosita ijtimoiy geografik tadqiqotlarda – asosiy obyekt – bu, aholi, insonning o‘zidir. Shu sababdan, eng avvalo, aholining son va sifat xususiyatlari, demografik rivojlanishi ko‘rsatkichlarini o‘rganiladi. Binobarin, aholining soni, dinamikasi, jins-yosh tarkibi, tabiiy xarakati va ularning xajmi, ko‘lami bilan bog‘liq (raqamlar) jihatlari, o‘rganilayotgan muayyan sotsial soxanining rivojlanish parametrlariga ta’sir ko‘rsatish orqali, taraqqiyotini belgilab beradi.

Savol va topshiriqlar

Inson, yoki aholini ijtimoiy-geografik tadqiqotlarning markaziy bo‘g‘ini sifatidagi rolini asoslang.

“Aholi – ijtimoiy geografik tadqiqotlarning obyekti sifatida” mavzusini izohlang, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlang.

Ijtimoiy geografik tadqiqotlarning mazmun-mohiyati, tadqiqot obyektining qamrovi va predmetining o‘ziga xosligini tushuntiring.

2-amaliy mashg‘ulot:

Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari. Juhon xo‘jaligi tizimining rivojlanish konsepsiyalari va tendensiyalari.

1. Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari. 2. Jahon xo‘jaligi tizimining rivojlanish konsepsiyalari va tendensiyalari.

1. Shaharlarni geografik o‘rganish va geourbanistika muammolari.

Geourbanistika yoki geourbanistik tadqiqotlar bevosita shahar aholi punktlari, shaharlashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘langan. Binobarin, shaharlar ishlab chiqarish kuchlarini hududiy mujassamlashuvining o‘ziga hos shakllaridan biri bo‘lishi bilan birga, aholi ijtimoiy hayotining ajralmas qismidir. Shaharlashuv jarayonlarining rivojlanish darjasini bevosita shu hudud yoki davlatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘lanib ketadi. Shaharlar yirik aholi punktlari bo‘lib, unda yashaydigan kishilar qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmasdan, boshqa ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy sohalarda shug‘ullanishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o‘ynagan. Shahar aholi punktlari o‘lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi punktlaridagi nisbatan ko‘p sonliligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyat bilan belgilanadi.

Aholi punktlari shaharga aylanishida ularning iqtisodiy salohiyati, funksiyasi ham muhim mezonlardan biridir. Shahar aholi punktlarida yashovchilar qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lmasligi yoki juda kam sonlini tashkil etishi kerak. O‘zbekistonda ishchi, xizmatchi va ularning oila a’zolari shahar aholisining 2/3 qismidan ko‘prog‘ini tashkil etishi hamda bunday aholi punktlarida sanoat korxonalari (og‘ir industrial), kommunal xo‘jalik tashkilotlari, davlat uyjoy fondi, o‘quv yurtlari, madaniyma’rifiy, tibbiy, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari mavjud bo‘lishi lozim. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas.

Sobiq SSSRda aholi punktlariga shahar maqomini berish bo‘yicha bir qator qonun-qoidalar qabul qilingan. Bunday qonun-qoidalar ayrim respublikalarda o‘zaro farq qilar edi. Masalan, Ukrainada aholi soni shaharlar uchun 10000, shahar tipidagi posyolkalar (SHTP) uchun 3000 kishi qilib belgilangan. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich tegishlicha 7000 va 2000 kishini tashkil etadi.

Aholi punktida istiqomat qiluvchilarning ko‘pchilik qismi mehnatning qanday turi bilan bandligi darjasini ham shaharcha maqomini berishda muhim belgilaridan hisoblanadi. Shahar aholi punktlarining shahar, deb nomlanishida unda yashovchilar miqdori ham muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o‘sib borishi – urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya’ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. BMT bergan statistik ma’lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi shaharlarda yashaydi, ya’ni 2014 yilda yer shari aholisining 50 foizi shaharlarga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich 2030 yilda 60 foizni, ya’ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil etadi.

Geourbanistik tadqiqotlarda urbanizatsiya darjasini bo‘yicha mamlakatlarni solishtirganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, aholi soni);
- shaharlarning umumiyligi soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;

-shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi; - qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya; -aholining bandlik darajasi va tarkibi va x.k.

Bulardan shahar aholi salmog‘i urbanizatsiya darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u yer sharining barcha hududlarida urbanizatsiya jarayonining borishini ko‘rsatadi.

Urbanizatsiya darajasining keskin farq qilishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim o‘rin tutadi. Biron-bir mamlakat, mintaqalijmoiyyat-iqtisodiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘sha joyda urbanizatsiya darajasi, shahar aholisi salmog‘i katta bo‘ladi. Ayrim hollarda tabiiy omillar tufayli ham urbanizatsiya darajasi ko‘tarilishi mumkin. Masalan, istiqbolli foydali qazilma konlari, qulay iqtisodiy geografik o‘rin va x.k.

Shulardan iqtisodiy geografik o‘rni (IGO‘) shahar va shahar aholi punktlarini tarkib topishida muhim omil hisoblanadi. Ma‘lumki, IGO‘ mikro, mezo va makro darajada ajratib ko‘rsatiladi. Shahar aholi punktlari paydo bo‘lishida, IGO‘ning mikrodarajadagi ahamiyati katta mavqega ega bo‘ladi. Uning mezo va makrodarajadagi ahamiyati esa keyinchalik shaharchalarning rivojlanishi va yirik markazlarga aylanishida muhim o‘rin tutadi. Binobarin, ayrim shaharlarning mikrodarajadagi o‘rni noqulayligi uning asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Shaharlarning mezodarajada o‘rni qulayligi uning yirik va katta shaharlarga aylanishiga zamin bo‘lishi mumkin. Agarda bu aksincha bo‘lsa, shahar kichik xolatida qolaveradi.

Shaharlarni tadqiq qilishda IGO‘nini to‘rtta bosqichga ajratish tavsiya etiladi. mikro o‘rni- yaqin shahar atrofiga nisbatan o‘rni;

mezo o‘rni-mamlakat katta bir qismiga yoki uncha katta bo‘lmagan davlatga nisbatan o‘rni; makro o‘rni-yirik davlat chegaralariga nisbatan o‘rni; mego o‘rni-dunyo miqyosida yoki uning yirik regionlariga nisbatan tutgan o‘rni.

Makrodarajadagi o‘rin shaharlar rivojlanishida, yuqori bosqichlarga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu o‘rin shaharlar taraqqiyotida ijobiy xususiyat kasb etmasa, ular hayot faoliyati o‘zgarishsiz qolaveradi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o‘rni (IGO‘) bir qancha komponentlardan tashkil topadi. Bular esa o‘z navbatida yana bir necha elementlarga bo‘linib ketadi.

Jumladan:

1. Shaharlarning tabiiy geografik o‘rni:
 - dunyo tomonlariga nisbatan o‘rni;
 - tabiat zonalariga nisbatan o‘rni; - tabiiy resurslarga nisbatan;
2. Sanoat –geografik o‘rni:
 - xom ashyo manbalariga nisbatan, ya’ni elektro energiya, yoqilg‘i va hakozo;
 - qayta ishslash sanoati markazlariga nisbatan;
3. Shaharlarning agro-geografik o‘rni:
 - qishloq xo‘jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan; - oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;
4. Transport-geografik o‘rni:
 - ichki muhim transport magistrallariga nisbatan; - xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan;
5. Bozor-geografik o‘rni:

- maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan; - istyemol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan; 6. Geodemografik o'rni:
- aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rni; - fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan; 7. Siyosiy-geografik o'rni:
- mamlakat poytaxtiga nisbatan; - davlat chegaralariga nisbatan; 8. Harbiy-geografik o'rni:
- mudofaa ahamiyatiga ega obyektlarga nisbatan; - siyosiy (harbiy) konfiliqt o'choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o'rnlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim geografik o'rni bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi.

Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo'lishidan qat'iy nazar har birining bajaradigan o'z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasi-aholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funksiyasiga ko'ra ikkita asosiy guruhg'a ajratish mumkin: I. Ishlab chiqarish (industrial):

- sanoat; - transport;
- savdo-sotiq.

II. Noishlab chiqarish:

- harbiy;
- madaniy; - kurort.

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi.

- siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar;
- ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari;
- ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari;
- asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iiga ixtisoslashgan shaharlar;
- transport markazlari;
- agroindustrial shaharlar;
- tuman markazlari;
- rekreatsiya shaharları;
- Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k.

Shaharlar katta-kichikligiga qarab ham funksional tiplarga ajratiladi. Shaharlarning katta-kichikligi ular aholisi soniga qarab belgilanadi.

Shaharlarning funksional tuzilishi shahar hayotining barcha jabhasida yaqqol sezildi, shu boisdan shaharlarni turli yo'nalishda **tadqiq etishda** buni albatta hisobga olish lozim. Shaharlarning funksional tuzilishi aholi takror barpo bo'lishi sur'atiga, aholi demografik tarkibiga, aholi bandligi, aholi migratsiyasi xarakteriga, aholi ijtimoiy tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholining yirik shaharlarda to'planishi yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, kommunal-xo'jalik aloqalari o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi punktlarining yangi turi fanda aglomeratsiya, deb nomланади.

Aglomeratsiya—aholi punktlarning bir-birlariga qo'shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o'rnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi. Shahar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to'planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o'rin tufayli eniga va bo'yiga kengayib borishidan hamda yirik shahar atrofida va unga yaqin joyda shahar va shaharchalarning tarkib topib qo'shilib ketishidan paydo bo'ladi.

Shahar aglomeratsiyasi quyidagi shart va sharoitlarga tayangan holda shakllanadi:

- shahar atrofida bitta yoki ikkita yirik shahar bo'lishi lozim;
- uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlik vaqt doirasida bo'lishi zarur;
- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o'rtasida mayatniksimon (tebranma) migratsiya aloqasi rivojlangan bo'lishi shart;
- atrofidagi shaharlar aholisi eng kami aglomeratsiya aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va x.k.

Aglomeratsiya chegaralari odatda, markaz shahar bilan uning atrofidagi shaharlar o'rtasidagi mehnat, madaniy-maishiy aloqalar samaradorligi bilan belgilanadi. Bu aloqalar chegarasi hozirgi zamonaviy transport rivojlangan bir vaqtida 50-60 km oraliqdagi radiusni tashkil etadi. Ko'pgina hollarda bu shahar aglomeratsiya chegarasi ma'muriy chegaralar bilan mos kelmaydi.

Shahar atrofidagi aholi punktlarining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi shahar aglomeratsiyasining o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga olib kelmoqda. Bu jarayon fanda suburbanizasiya-deb ataladi (suburbanizasiya lotinchadan subur-shahar atrofi). Shahar markazidagi ekologik vaziyat, o'ziga xos murakkab turmush tarzi, narx-navoning balandligi, jinoyatchilikning o'sishi, va boshqalar odamlarning shahardan tashqariga ko'chib o'tishi va shahar markaziga ishga kelib-ketishi suburbanizasiya jarayoning rivojlanishida yetakchi omillar hisoblanadi. Eng avvalo bunda aholining moddiy jihatdan o'ziga to'q qatlami shahar atrofiga kelib joylasha boshlaydi. Keyinchalik o'rta qatlam va o'z navbatida aholi bilan baravariga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham kelib o'mashadi, rivojlanadi. 2. Jahon xo'jaligi tizimining rivojlanish konsepsiyalari va tendensiyalari⁴.

Savol va topshiriqlar:

Shaharlar yoki geourbanistika muammolarini tadqiq qilishning ilmiy-uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Geourbanistik tadqiqotlar mazmunini tushuntiring.

Shaharlar geografiyasi va geourbanistikaga oid tadqiqotlarning ilmiy – amaliy ahamiyatiga baho bering.

Jahon xo'jaligi tizimlari va ularni tadqiq qilishning geografik jihatlarini aniqlang.

⁴ Vaxabov A., Tadjibayeva D., Xajiboqiyev SH. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma.-T.:Moliya, 2011.- b.- 6-13.

Qo'shimcha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Spens N., Owens A. Methods of geographical analysis. Published by: University of London, 2007. Reprinted with minor revisions 2011.
2. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. Izd.: «Progress», Moskva, 1966.
3. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. M: GU - VSHE, 2001, 2003.
4. Anna Battimer. Put v geografii. – M.: Progress, 1990.
5. Asanov G. R. Sotsial – iqtisodiy geografiY. Termin va izohli tushunchalar lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbrannye trudi. – M., 1980.
7. Zokirov SH., Toshev X. Geografiya tarixi. – Buxoro, “Durdona”, 2015.
8. Kolosov V.A. Geopolitika i politicheskaya geografiY. – M., 2002.
9. Maksakovskiy V.P. Istoricheskaya geografiya mira. – M., 1999.
10. Porosenkov Y.V., Porosenkova N.I. Iстория i metodologiya geografii. – Voronej, 1991.
11. Saushkin Y.G. Iстория i metodologiya geograficheskoy nauki. – M.: MGU, 1980.
12. Saushkin Y.G. Geograficheskaya nauka v proshlom, nastoyashem i budushem. – M., 1984.
13. Soliyev A., Axmedov E. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.:Universitet, 2003.
14. Ahmedov E.A. O‘zbekiston shaharlari. T., 2002.
15. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metod va amaliyot. – T., 2013.
16. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.- Toshkent: Universitet, 2007.
17. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2014.
18. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T., 2009.
19. Sotsialno-Ekonomicheskaya geografiya: ponyatiya i termini. – Smolensk, 2013.
20. Skopin A.Y. Vvedeniye v ekonomiceskuyu geografii. – Smolensk., 2013,
21. Trofimov A.M. Sharigin M.D. Obshaya geografiya (Voprosi teorii i metodologii). – Perm, 2007.
22. Alayev . E . . B . . Sotsialno- ekonomicheskaya geografiya: Ponyatiyoterminologicheskiy slovar / E .B. Alayev. – M .:Misl, 1983. -350 s.
23. Golubchik M .M . Iстория geografii : ucheb. posobiye / M.M. Golubchik, S .P . Yevdokimov, S .N . Maksimov. – Smolensk : Izd-vo Smolen. gum .un- ta, 1998. 224 s.
24. Golubchik M.M. Politicheskaya geografiya mira. Ucheb. Posob. Smolensk,1998.
25. Xagget P . Geografiya: sintez sovremennix znaniy / P . Xagget . – M.: Progress, 1979. – 684 s.
26. Vaxabov A., Tadjibayeva D., Xajiboqiyev SH. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma.-T.:Moliya, 2011.

3-amaliy mashg‘ulot:

Sotsial va madaniy geografiY. Servis geografiyasi.

1. Sotsial va madaniy geografiY.
2. Servis geografiyasi.

1. Sotsial va madaniy geografiY.

Jamiyat rivojlanishining konuniyatlarini o‘rganishda, uning hududiy tashkil etilishi masalalarini tadqiq etishda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ahamiyati katta. Avvalambor, bevosita moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari yoki xo‘jaliklar geografiyalarining rivojlanishi bilan tarkib topgan iqtisodiy geografiya, o‘tgan asrning 80 yillariga kelib, hozirdagi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi, bunda uning sotsial qanoti tezroq rivojlandi. Mazkur fan rivojlanishining ichki mantiqidagi bunday qonuniy jarayonlarning markazida, inson va uning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq barcha m ur a k k ablik la rni g h ud ud i y qir r al arini o‘r gani sh masalalari yotadi.

Sotsial geografiya, zamonaviy geografiya fanlari tizimidagi aholi va u bilan aloqador barcha ijtimoiy hodisa va j a r a yo n l a r n i n g h u d u d i y q o n u n i ya t l a r i n i t a d q i q q i l u v ch i , ya n g i va tez rivojlanayotgan tarmog‘idir. Uning shakllanishi va rivojlanishi bir tomonidan geografiya fanlarining o‘z ichki rivojlanishi mantiqi va, ikkinchi tomonidan esa unga bo‘lgan “ijtimoiy buyurtma” bilan chambarchas bog‘langan.

Hozirgi davrda sotsil geografiyani, mustaqil fan tarmog‘i sifatida to‘la shakllangan deb bo‘lmaydi. Uning shakllanishi jarayonlari davom etmoqda, Ayniqsa, uning tadqiqot obyekti, ichki tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o‘rni masalalariga yanada oydinlik kiritish zarur.

Sotsial geografik tadqiqotlarning diqqat markazida (ya’ni maxrajida) doimo inson (omili) yotadi. Shuning uchun ham sotsial geografiyani shakllanishining ilk asosi bevosita aholi geografiyasi bilan bog‘liq. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiysi, rekreatsiya, tibbiyot, madaniyat, ta’lim va fan geografiyalarining rivojlanishi bilan sotsial geografiyaning rivojlanishi yanada jonlandi. Shuning bilan birga, uning jinoyatchilik, xulq-atvor va turmush tarzi geografiyalari kabi bo‘limlari o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Hozirgi zamon fanlari tizimida bevosita aholi va u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda zamonaviy iqtisodiy va sotsial geografiya alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning sotsial geografiya qanoti jamiyat yoki aholi ijtimoiy r i v o j l a n i s h i n i n g x u d u d i y q i r r a l a r i , q o n u n i ya t l a r i n i o‘rganishi bilan muhim ahamiyaga ega.

So‘nggi o‘n yilliklar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy iqtisodiy va sotsial geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti doirasi ancha kengaydi, mukammallashdi. Avvallari ilmiy tadqiqotlarning negizida ko‘proq, ishlab chiqarish kuchlari va ularni rivojlantirish masalalari yotgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, aholining o‘zini yoki insonning ijtimoiy extiyojlari bilan bog‘lik, masalalarni xar tomonlama o‘rganishga, ayniqsa, axolining ijtimoiy, madaniy-ma’naviy turmush tarzini xududiy t a sh k i l e t i sh q o n u n i ya t l a r i n i t a d q i q e t i sh g a e ‘ t i b o r

kuchaydi va shu asnoda ijtimoiy geografiyaning fan tarmog‘i sifatida shakllanishi jarayonlari tezlashdi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda bir qator ijtimoiy fanlar, birinchi navbatda iqtisodiy fanlardagi «ijtimoiylashuv» jarayoni tom ma’noda iqtisodiy geografiyaga ham xos. Binobarin, aholi geografiyasi, aholi manzilgohlari geografiyasining rivojlanishi bilan iqtisodiy geografiyaning sotsial qanoti shakllana boshladi.

Iqtisodiy geografiyaning rivojlanishi va uning muhim qismi bo‘lgan sotsial geografiyaga (bu erda u tor ma’noda) e’tiborning kuchayishi ayrim olimlar tomonidan xatto Baranskiy-Kolosovskiy ilmiy maktabining asosiy ko‘rsatmalaridan qaytish sifatida ham tushuniladi. Biroq, iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuvini uning tarmoqlarini bir tomonlama rivojlanishda deb emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda, bir-birini to‘ldirishda, boyitishda deb tushunmoq maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan asrning 30-yillaridayoq taniqli olim N.N.Baranskiy “sotsial geografiya”ni yaratish masalasini ko‘ndalang qo‘ygan edi va keyinroq, uni muhim bo‘limlarining asosiy masalalarini (aholi geografiyasi, xo‘jaliklar geografiyasi, shaharlar geografiyasi va b.) o‘rgandi. O‘scha davrdayoq N.N.Baranskiy ta’kidlagan ediki, iqtisodiy- geograf nafaqat aholining tarkibi, joylashuvi, aholi manzilgohlarining tavsifini, balki uning fikr-o‘ylari, urf-odatlari va madaniyatini ham bilishi kerak.

Sotsial geografiya, geografiya fanlari tizimidagi yangi shakllanib kelayotgan yo‘nalishlardan biridir. Uning tadqiqot obyekti va predmeti to‘la shakllanmagan va bu borada olimlar o‘rtasida hozirgacha bahs-munozaralar mayjud.

Turli davrlarda bevosita aholi, ya’ni uning yashash, mexnat qilish, dam olish, sog‘lig‘ini saqlash va boshqa ijtimoiy, madaniy - ma’naviy hayot faoliyatlari bilan bog‘liq masalalar xorijda va shuningdek, sobiq sovet iqtisodiy geografiyasi doirasida ham o‘rganib kelingan. Shuning uchun ham taniqli olim Y.G.Saushkin sotsial geografiyani iqtisodiy geografiyadan ajratish, iqtisodiy va sotsial geografiyani bir butun xolda rivojlanishiga zid ekanligini, real borliqni anglashga to‘la javob bermasligini, ya’ni insonni ijtimoiy xayoti murakkabliklari bilan iqtisodiy geografiyadan «sug‘urib» tashlab bo‘lmasligini ham uqtiradi⁵.

Hozirgi kunda sotssial geografiyaning tor va keng ma’nodagi talqini mavjud. Jumladan, professor A.Soliyevning ta’kidlashicha, tor ma’nodagi ijtimoiy geografiya (ya’ni, sotsial geografiya)-bu bevosita inson hayoti bilan borliq masalalarning hududiy jihatlarini, uning o‘zi yashab turgan muhiti bilan munosabatini o‘rganuvchi fandir. Keng ma’nodagi ijtimoiy geografiya esa o‘z ichiga tor ma’nodagi sotsial geografiya va insonning ijtimoiy xayot tarzi, madaniy, ma’naviy, ruhiy rivojlanishi masalalarining hududiy qirralarini ham qamrab oladi.

Sotsial geografiyaning rivojlanishidagi ilk o‘zgarishlar xorijda (Yevropada) ko‘zga tashlanadi. Xususan, “sotsial geografiya” tushunchasi XIX asrning oxirlaridayoq fransuz maktabi vakili, iqtisodchi va sotsiolog Le-Ple tomonidan foydalanilganligi manbalardan ma’lum. Yana bir tadqiqotchi G.S.Dunbarning ta’kidlashicha, ushbu tushuncha ilk bor P.de Ruzening 1884 yilda chop etilgan sotsial geografiya bo‘yicha izlanishlarida qo‘llanilgan.

Le-Ple ilmiy maktabining taniqli namoyondasi e.Demolen esa sotsial geografiyani “sotsiogeografiya” tarzida talqin qiladi va uning mohiyati mahalliy shart-sharoitlar (shu jumladan tabiiy sharoitlar)ni ijtimoiy rivojlanishga, “ijtimoiy gurux”larning vujudga kelishiga ta’siri sifatida tushuntiradi.

⁵ Вопросы географии, - М., № 115, стр.19.

Taxminan shu davrlarda, ya’ni 1895 yili sotsial geografiya tushunchasi e.Reklyu tomonidan uning salmoqli asari bo‘lgan “Umumiy geografiya”da qo‘llanildi. Bunda u sotsial geografiyanı tabiiy shart-sharoitlarning kishilarni mehnat va turmush tarziga hududiy jihatdan o‘zgaruvchan ta’sir etishi ma’nosida tushungan. Ammo, shunga qaramay “sotsiografiya” maktabining vakillari ham, e.Reklyu xam sotsial geografiya tushunchasining mohiyatini to‘liq ochib berolmadilar va geografiya fanida yangi fan yo‘nalishini yaratdilar, deb ham bo‘lmaydi.

XX asrning boshlariga kelib Niderlandiyada geografiya va sotsiologiyaning uyg‘unlashuvidan vujudga kelgan “yangi fan”-sotsial geografiya paydo bo‘ldi. Uning predmeti “jamiyatdagi guruxlar va o‘zaro aloqadorliklarning regional taqsimlanishini o‘rganish” deb tushunildi. Mazkur fan tarmog‘ining aynan Niderlandiyada paydo bo‘lishi ham bejiz emas. Chunki, uning amaliy vazifalari, aholisi zich va er resurslari taqchil bo‘lgan Niderlandiyada mintaqaviy rejalshtirish masalalarini hal etishda o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etdi. O‘tgan asrda 50-60 yillarga kelib esa sot si og ra fiya qishl oq joy l ari dagi h ud ud i y i jti m oiy tafovutlarni o‘rganuvchi fan sifatida Amsterdam universitetida rivojlandi. Xuddi shu o‘rinda biz sotsial geografiyanı obyektiv va shiddatli rivojlanishining nafaqat Niderlandiya, balki hohlagan kapitalistik mamlakat uchun xos bo‘lgan manbalarini aniqlashimiz mumkin. Bunday manbalar, sabablar ushbu davlatlarning taraqqiyotidagi mintaqaviy tafovutlarning keskinlashuvi, shaharlar rivojlanishining tangligi kabi o‘ta dolzarb muammolar b i l a n b o g‘ l i q . Ba’zi bir g‘arb (jumladan, shved) olimlari sotsial geografiyada tadqiqotlarning “xulq–atvor” (povedencheskiy) xamda “farovonlik” (blagosostoyaniya) mavqeидаги yondoshuvlarini ajratib ko‘rsatishadi. Birinchi yondoshuv - bu xo‘jalikni makondagi tabaqlanishini subyektiv ravishda, ya’ni odamlarning oqilonasi yo‘naltirilgan xatti-xarakatlari orqali asoslash, yoki tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lsa. ikkinchi, ya’ni D.Bartels asoslab bergen “farovonlik” yondoshuvi nuqtai - nazaridan bajariladigan sotsial geografik tadqiqotlarning vazifalari jamiyatning diskriminatsiya qilingan guruh va hududlarini aniqlash va tadqiq etishdan iborat. Ularga kambag‘allik, ochlik, insonga munosib hayot sharoitlaridan chekinishni tadqiq etish va ularni bartaraf etishning chora - tadbirlarini ishlab chiqish kabilar kiradi. Ammo, ta’kidlash joizki, ayrim sobiq Ittifoq hamda g‘arb olimlari yuqorida zikr etilgan yondoshuvlarning izchil ilmiy natijalar berishiga avvallari shubha bilan qaraganlar.

Sotsial geografiyaning shakllanishi va rivojlanishi jahoning ko‘proq g‘arb davlatlari hamda sobiq Ittifoqda o‘ziga xos shart-sharoitlarda kechdi.

Hozirgi sotsial geografiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga sobiq Ittifoq geograf olim va tadqiqotchilari ham munosib hissa qo‘shganlar. Bu davrda sotsial geografiyaning rivojlanishida shartli uch bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin: **Birinchi bosqich** - o‘tgan asrning 50 - yillarigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davrga xos xususiyatlardan biri ijtimoiy xodisa va jarayonlarning ayrimlari iqtisodiy va etnogeografik tadqiqotlar doirasida o‘rganildi. Shularga qaramay aholining turmush sharoitlari, madaniy, maishiy xususiyatlarini o‘rganishning zarurligi sobiq sovet geografiya fanining dastlabki yillardayoq ta’kidlangan edi.

Sotsial geografiya aholi geografiyasi asosida shakllandi. Barcha aholi yoki muayyan bir ijtimoiy guruxning sotsial rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni tadqiq etish faqatgana ijtimoiy geografiyaning predmeti bo‘lmay, balki mintaqaviy sotsiologiyaga ham xosdir. Ammo, sotsiologik tadqiqotlarning hududiy qamrovini etarli darajada deb bo‘lmaydi.

Ikkinci bosqich - bu qisqa davr, ya’ni 50 - 70 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda aholi geografiyasi tez rivojlandi va shu bilan birga, geografik tadqiqotlarda sotsiologiya kategoriyalari va tushunchalari keng qo‘llanila boshlandi.

Uchinchi bosqich - keyingi bir necha o‘n yillarni o‘z ichiga oladi va sotsial geografiya aynan shu davrda rasman tasdiqlandi. Ushbu bosqichda bevosita sotsial geografiyaga xos ishlarning ko‘lamin etarli deb bo‘lmasada, avvalgilariga nisbatan e’tiborga molik ishlar bajarildi. Bu davrda bajarilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlar sohaviy hamda mintaqaviy jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, aholiga xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyasi bo‘yicha salmoqli ishlar e’lon qilindi. Ular orasida quyidagilarni aloxida ajratib ko‘rsatish mumkin: Sotsialnaya geografiya Kaliningradskoy oblasti. Kaliningrad, 1982.; Gabiani A.A., Gachechiladze R.G. Nekotoriye voprosi geografii prestupnosti. Tbilisi, 1982; Abramov M.A. Geografiya servisa. M., 1985; Alekseyev A.I., Kovalev S.A., Tkachenko A.A. Geografiya sferi obslujivaniY. Kalinin, 1988; Merkusheva L.A. Geografiya sferi obslujivaniY.

Krasnoyarsk, 1989; Alekseyev A.I. Geografiya selskoy mestnosti. M., 1989; Alekseyev A.I. Mnogolikaya derevnya, M., 1990 va boshqalar.

Sotsial geografiyaning vujudga kelishida «Voprosi geografii» ilmiy to‘plamining 5 hamda 115 sonlari va, ayniqsa “Sotsialnaya geografiya SSSR. L., 1984”; “Problemi sotsialnoy geografii SSSR i zarubejnjix stran. L., 1985” kabi ilmiy ishlar to‘plamlarining ahamiyati katta.

Yuqorida nomlari qayd etilgan ilmiy manbalardan ma’lum bo‘ladiki, sotsial geografiyaning predmeti, mohiyati va vazifalari turli davrlarda va mualliflar tomonidan turlicha talqin qilib kelindi va bu borada to hozirga qadar bahs - munozarali holatlar mavjud.

Sotsial-geografik tadqiqotlarning obyekti va mazmuni xususidagi ilk natijalarni R.M.Kaboning ishlarida uchratamiz. Jumladan, uning fikricha “sotsialmadaniy” geografiya mehnat faoliyati bilan bog‘langan aholi joylashuvi tiplari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining hududiy tafovutlarini va, shuningdek, har bir ijtimoiy-hududiy odamlar guruxini o‘zida mujassam etgan barcha elementlarning murakkab uyg‘unligini ko‘rib chiqadi.

Sotsial geografiyaning tuzilishi va vazifalarini M.F.Grin yanada kengroq talqin qildi. Uning fikricha, ijtimoiy geografiya sotsial siklga mansub geografik fanlar bilan birga, iqtisodiy geografiyani ham qamrab oladi. Sotsial geografiyaning bunday keng ma’nodagi talqini V.M.Goxman va S.Y.Nimmik tushungan “Obshestvennaya geografiya”ga mos tushadi.

Ushbu masalaga amaliy nuqtai nazardan real va asosli ravishda yondoshgan A.A.Dolininning fikricha “ijtimoiy hodisa va jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlarini, mintaqalarning tabiatini, iqtisodiyoti va demografik vaziyatini tavsiflovchi narsalarni jalb etmasdan chuqur o‘rganib bo‘lmaydi, demak bunday tadqiqotlarni iqtisodiy-geograflar muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirishlari mumkin”. A.A.Dolinin bo‘yicha sotsial geografiyaning obyekti - bu odamlarning o‘zaro munosabatlari orqali bog‘langan hududiy birikmalaridan iborat. Ushbu holatda turlicha iqtisodiy, sotsial, demografik jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi ta’kidlanib, geografik fan sifatida sotsial geografiya tabiiy sharoitning ta’sirini ham e’tiborsiz qoldirmaydi. Shunday qilib, AA.Dolininning ko‘rsatmalaridagi e’tiborni o‘ziga tortadigan jihatni turli taksonomik toifadagi rayonlarning ijtimoiy rivojlanishi darajalarini aniqlashda, hamda ijtimoiy voqeя va hodisalarini o‘rganishda geografik masalalarga e’tiborni kuchli ekanligidir.

S.B. Lavrov, A.A.Anoxin, N.T.Agafonovlar esa sotsial geografiyani ijtimoiyiqtisodiy geografiyaning bir bo‘g‘ini sifatida, sotsial tuzilmalarni muayyan ijtimoiytarixiy sharoitlarda joylashuvi va hududiy tashkil etilishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan deb yoki, boshqacha qilib aytganda, agarda ijtimoiy tuzilmalar jamiyat bilan bir butun xolda hududiy tashkil etilar ekan, u holda sotsial geografiyani hududiy ijtimoiy tuzilmalarning rivojlanish omillari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida ham tushunish mumkin deb ta’riflashadi.

Ammo, yuqoridagi mualliflar o‘z tadqiqotlarining so‘ngida aholi geografiyasi doirasida ayrim sotsial xodisalarni taxlil etish tajribasiga ko‘ra, sotsial geografiyani sotsial sohalarni hududiy jihatdan o‘rganuvchi fanlar pog‘onalashuvida tutgan o‘rnini quyidagi to‘rt yo‘nalishga ajratadi:

1. Sotsial geografiya mavjud emas, ammo geografiyada sotsial jihatlarni borligi shubhasizdir.

2. Sotsial geografiya – mustaqil fan bo‘lib, geografiya fanlari tarkibida eng quyi pog‘onada joylashgan. Ko‘p hollarda uni aholi geografiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish mumkin.

3. Sotsial geografiya – mustaqil fan bo‘lib, geografiya fanlari tarkibida o‘rta iyerarxik pog‘onada, ya’ni masalan, iqtisodiy geografiya bilan bir pog‘onada joylashgan.

4. Sotsial geografiya - mustaqil fan bo‘lib, keng ma’nodagi ijtimoiy geografik fanlar tarkibida yuqori iyerarxik pog‘onada joylashgani holda, ijtimoiy geografiyaning sinonimi hisoblanadi; sotsial (ijtimoiy) geografiya tarkibiga iqtisodiy geografiya xam kiradi.

Birinchi yo‘nalishga mansub mualliflar sotsial (ijtimoiy) geografiya mustaqil mavjud emasligini yoqlaydilar. Ular jumlasiga e.B.Alayev, S.A.Kovalev, N.Y.Kovalskaya, G.M.Lappo, S.B.Lavrov, G.V.Sdasyuk, Y.G.Saushkin, A.A.Tkachenkolarni kiritish mumkin, Ushbu olimlar yaratgan bir qator manbalarda sotsial va iqtisodiy jihatlar bo‘linmasligi va qatiy bo‘lishga urinishlar natijasiz bo‘lishi ta’kidlanadi. Nosotsial iqtisodiy hodisalar va nosotsial iqtisodiy rayonlashtirish yo‘q, shu bilan bir vaqtida ular “sotsial geografiya”ni shakllanishini inkor etmaydi, deyiladi.

Ikkinchi yo‘nalishga mansub qarashlarga ko‘ra, sotsial geografiya mustaqil bo‘lib, geografiyaning quyi iyerarxik pokonasida, aholi geografiyasi tarkibiga kiradi. (Anoxin A.A. Kostyayev A.I. Dolinin A.A). Jumladan, A.A.Dolinin sotsial geografiyani axoli geografiyasining o‘ziga xos bug‘ini sifatida qaraydi. Uning fikricha, sotsial geografiya odamlarning xududiy birikmalarini ijtimoiy rivojlanish darajalarini aniqlashda mujassamlashgan.

A.A.Anoxin va A.I.Kostyayevlar esa sotsial geografiya avval boshdanoq turli taksonomik toifadagi rayonlarning ijtimoiy hayotini hududiy tashkil etilishini o‘rganuvchi fan sifatida shakllandi deb xisoblaydilar. Sotsial geografiyani axoli geografiyasi doirasidan ancha keng ma’noda tushunishlariga qaramay, yuqoridagi mualliflar, baribir axoli geografiyasi asoslaridan kelib chiqadilar.

Uchinchi yo‘nalishga mansub qarashlarga ko‘ra, sotsial geografiya-bu mustaqil fan bo‘lib, iqtisodiy geografiya bilan bir darajada turgani holda, ijtimoiy geografiyaning (keng ma’noda) ohirgi asosiy tarmog‘i hisoblanadi. bunday nuqtai - nazarni V.M.Goxman va S.Y.Nimmiklar yoqlab chiqishgan va ular bir hil shunday xulosaga kelishgan. Shuningdek, ular rivojlanganlik darajasiga ko‘ra sotsial geografiyani iqtisodiy geografiyadan orqada qolyapti, chunki sotsial geografiya ancha keyin shakllana boshladi degan, fikrdalar. Ba’zi bir mualliflar, masalan S.Nimmik sotsial geografiyani iqtisodiy geografiyaga qaramligini va shuningdek, sotsial va madaniy geografiyani bo‘linmasligini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda ijtimoiy (obshestvennaya) geografiya iqtisodiy geografiya va “noiqtisodiy”, ya’ni sotsial geografiyaga bo‘linadi degan fikrdagi mualliflar soni ortib bormoqda. Bunday ilmiy qarash uchinchi va to‘rtinchi yo‘nalishlar orasida oralii, bo‘g‘inni hosil qiladi.

To‘rtinchi yo‘nalishga mansub nuqtai-nazarga ko‘ra sotsial geografiyani barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan fan sifatida tushunish mumkin. Bu erda “sotsial” va “ijtimoiy” (obshestvennaya) tushunchalari o‘zaro mos va ular o‘zaro sinonimlardir. Demak, bularga ko‘ra

sotsial geografiya (ijtimoiy geografiya) boshqa ijtimoiy-geografik tarmoqlar (aholi geografiysi, siyosiy geografiya, xarbiy geografiya, tarixiy geografiya va b)dan tashqari iqtisodiy geografiyanı ham qamrab oladi. N.N.Baranskiy ham ijtimoiy geografiyanı shunday keng ma'noda tushungan va bunday tushunish mahalliy olimlarga (A.Soliyev, O.Otamirzayev va boshqalar) ham xos.

Sotsial geografiyanı tutgan o'rni xususidagi birinchi yo'nalishga mansub qarashlar uni rivojlanishiga sharoit yaratmaydi. Ikkinci yo'nalishga mansub qarashlar esa aholi geografiyasining ahamiyatini oshirib yuboradi. Ko'pchilik tadqiqotchilar aholi geografiyasini geografiyaning sotsial qanoti, yadrosi degan fikrdalar (Lavrov S.B., Sdasyuk G.V.), yoki aholi geografiysi ijtimoiy (obshestvennaya) geografiyada alohida shrin tutadi (Nimmik S.YA).

Sotsial geografiyanı tutgan o'rni xususidagi uchinchi yo'nalishdagi qarashlarning vujudga kelishi to'la qonuniydir. Bunga ko'ra, sotsial geografiya, geografiya fanlari tarkibida o'rtta darajadagi (pog'onadagi) fan hisoblanadi. To'rtinchi yo'nalishdagi qarashlar barchaga tushunarli va mantiqiydir. Unga ko'ra sotsial geografiya (keng ma'noda) barcha ijtimoiy-geografik fanlarni qamrab olgan fan bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida ko'pchilik mualliflar tomonidan "sotsial geografiya" terminini bir vaqtning o'zida tor va keng ma'noda tushunishning zarurati tug'ildi. U.Merestening fanlarni integratsiyalashuvi konsepsiysi bo'yicha, ijtimoiy geografiya (keng ma'nodagi sotsial) sotsial geografiyaning sinonimidir. Sotsial geografiya – barcha ijtimoiy obyektlar va ular o'rtasidagi sotsial va geografik munosabatlarni qamrab olgan ijtimoiy geografik tizimlarni o'rganadi.

Jamiyat tomonidan yaratilgan va o'zining infratuzilma (ijtimoiy, ishlab chiqarish) sharoitlariga ega bo'lgan xolda muayyan ijtimoiy vazifani bajarish yuklatilgan xo'jalik tarmoqlari yoki sohalari, obyektlari mavjudki, ularning infrastruktura tizimlarini shakllanishi va rivojlanishining hududiy masalalarini tadqiq etish, bizningcha, tor ma'nodagi ijtimoiy (ya'ni, sotsial) geografiyaning tadqiqot doirasiga kiradi. Keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya yuqorida sotsial geografiyanı xamda jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini, guruxlarini, kishilarning ijtimoiy, madaniy - ma'naviy xayot tarzini rivojlanishining hududiy masalalarini, jihatlarini qamrab oladi.

Falsafiy mohiyatiga ko'ra, agarda inson va uning turmush sharoitlari, mexnat qilishi, bilim va dam olishi, sog'lig'ini tiklashi, fikr-o'ylari, urf--odatlari bilan bog'liq yoki bir so'z bilan aytganda, keng ma'nodagi ijtimoiy voqeа-hodisalar makon va zamonda mavjud ekan, o'z navbatida ularni vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining hududiy qonuniyatlarini o'rganish zaruriyatining tug'ilishi tabiiy va ushbu masala, fanlar mantiqiga ko'ra, avvalo geografiya fanining tadqiqot obyekti doirasiga kiradi, aniqrog'i u bilan ijtimoiy geografiyaning shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir.

Sotsial yoki tor ma'nodagi ijtimoiy geografiyaning O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishiga mahalliy olimlar, xususan A.S.Soliyev va M.I.Nazarovlar o'z xissalarini qo'shdilar. Jumladan, A.S.Soliyev o'tgan asrning so'nggi o'n yilligida e'lon qilingan qator risola va o'quv qo'llanmalarida an'anaviy iqtisodiy geografiyaning rivojlanish yo'nalishlarini ochib bergen va shu o'rinda mazkur fanning sotsiallashuvi (ijtimoiylashuvi)ga alohida urg'u bergen.

A.Soliyev fikricha, keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya (iqtisodiy va sotsial geografiya) eng avvalo quyidagi uch blok yoki tarkibiy qismidan iborat: *birinchi blokka* u iqtisodiy geografiya, ya'ni ishlab chiqarish geografiyasini, *ikkinci blokka* aholi bilan bog'liq sotsial-iqtisodiy geografik fanlarni va, *uchinchi blokka* esa, tor ma'nodagi ijtimoiy geografiya yoki aniqrog'i sotsial geografiyanı kiritadi. Shuningdek, A.Soliyev ayrim hollarda «sotsial» tushunchasi to'la «ijtimoiy» tushunchasiga mos kelmasligini ham ta'kidlab, birinchi atamananing ham ba'zan ishlatilishini maqsadga muvofiq deb biladi.

Sotsiallashuv jarayonlarining natijasi, o'laroq o'tgan asrning 90-yillari boshlariga kelib, taniqli olim A.Soliyev rahbarligida M.Nazarov tomonidan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muammolari bo'yicha bajarilgan dissertatsiya ishi (1996) an'anaviy iqtisodiy geografiyadan sotsil geografiya tomon muhim bir qadam bo'ldi. Buning davomi sifatida keyinchalik fan, va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi (Nazarova

X., 1997), tibbiyot geografiyasi (Komilova N., 1999, 2012), jinoyatchilik geografiyasi (Qayumov A., 2006) bo'yicha dissertatsiyalar yoqlandi.

Shunday qilib, sotsial geografiya (keng ma'noda) – bu geografiya va ijtimoiy fanlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarida vujudga kelayotgan geografiya fanlari tizimidan iborat. Xozirgi davrda ushbu tizimda fanlarning uyg'unlashuvi (sintezi) ro'y bermoqda va ijtimoiy geografiyaning umumiylazariyasi tez shakllanmoqda. Demak, ijtimoiy geografiya shakllanish bosqichini boshidan kechirmoqda va shuning uchun ham uning mustaqilligi va bir butunligi istiqbolidan dalolat beradi.

Sotsial geografiyaning mustaqilligi birinchi navbatda, mazkur fan nazariyasini vujudga keltirilishi bilan va ikkinchidan, uning atrofida integratsiyalashgan turli fanlarning shakllanishi bilan ta'minlanadi.

Sobiq Ittifoq davridan boshlab sotsial geografiya quyidagi uch asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda:

Birinchi yo'nalish, bu ushbu fanning hozirga qadar shakllangan bo'limlarining (aholi geografiyasi, geodemografiya, aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi va ijtimoiy infratuzilma) rivojlanishini davom etishi.

Ikkinchi yo'nalish yangi shakllanayotgan bo'limlarni o'z ichiga oladi. Bularga tez rivojlanayotgan rekreatsiya geografiyasini, aholining turmush tarzi geografiyasi, madaniyat geografiyasi va boshqalar mansub.

Uchinchi yo'nalish, sekinlik bilan bo'lsada, ijtimoiy geografiyaning umumiylazariyasi paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy geografiyaning muhim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) sotsial geografiya "tarmoq"larini rivojlantirish, ya'ni aholi geografiyasi va joylashuvi, xizmat ko'rsatish sohalari, iste'mol, rekreatsiya va boshqalar; 2) yirik masshtabli sotsial - geografik tadqiqotlarni olib borish;
- 3) sotsial geografiyaning xorijiy mamlakatlarda rivojlanishini o'rganish; 4) sotsial geografiyaning barcha yo'nalishlariga tegishli bo'lган o'ziga xos vazifasi, ya'ni ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tadbiqini kuchaytirish.

Hozirgi davrda sotsial geografiya shakllanish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Shu sababdan, aynan shu davrga xos bo'lган eng dolzarb muammolar jumlasiga quyidagilar kiritiladi:

- ijtimoiy-geografik rayonlashtirish (prinsiplari, mezonlari, ko'rsatkichlar tizimi, tadqiqot usullari, iqtisodiy va boshqa turdag'i rayonlashtirish turlari bilan nisbati);
- aholining turmush tarzi va darajalaridagi, ijtimoiy tuzilmalar va ularning tadrijiy o'zgarishlaridagi, ijtimoiy soxalarni hududiy tashkil etishdagi rayonlararo tafovutlar;
- umumlashtiruvchi va maxsus ijtimoiy-geografik tipologiyalar (geodemografik vaziyat, shaharlar va aholi joylashuvi tizimlari, qishloq joylar va boshqalar);
- tibbiy – geografik tadqiqotlar va ularning dolzarbligini etarlicha baholanmaslik va x.k.

Mazkur muammolarning har biri sotsial geografiyani to'la shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3.2. Servis geografiyasi.

Servis geografiyasi yoki boshqacha qilib aytganda, aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining nisbatan kam o'rganilgan soxalaridan biridir. Mazkur ilmiy yo'naliishning shakllanishi va rivojlanishi, geografiya fanlari tarkibidan o'rinn olishi asosan sobiq ittifoq davriga to'g'ri keladi. Binobarin, servis ya'ni aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi o'quv predmeti sifatida o'tgan asrning 60 – yillaridan boshlab sobiq ittifoq oliv ta'lum geografiya yo'naliishlarida o'qitila boshlangan edi.

Servis geografiyasining **tadqiqot obyekti** – bu, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarini to'ri va ularning hududiy tarkibi hisoblanadi.

Servis geografiyasining **tadqiqot predmeti** esa aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarining hududiy tizimlarini shakllanishi va rivojlanishini ilmiy tadqiq qilish bilan belgilanadi.

Binobarin, sevis yoki aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasining geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni va predmeti xususida A.I.Alekseyev va boshqalar quyidagicha ta'rif berishgan: *"Aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi ijtimoiy - iqtisodiy geografiyaning o'ziga xos tarmog'i bo'lib, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar va ularning qondirilishi darajasidagi hududiy tafovutlar vashuningdek, xizmat ko'rsatish sohalarini tabiiy ijtimoiy, iqtisodiy, demografik hamda turlichayli joylashuvchi shakllarida hududiy tashkil etilishi masalalarini o'rganadi"*.

Inson jamiyatda yashar ekan, mehnat taqsimoti va uning ixtisoslashuvini chiqurlashishi, ehtiyojlarning o'sib borishi sharoitida turli iste'mol predmetlari (buyumlari) bilan bir qatorda unga jamiyat tomonidan to'lov evaziga yoki "bepul" taqdim etiladigan (milliy daromad hisobiga yaratiladigan va davlat tomonidan taqsimlanadigan, ijtimoiy fondlardan amalga oshiriladigan) hilma-xil xizmatlarga ehtiyoj sezadi.

Xizmatlar – bu, muayyan shaxs - individual buyurtmachi, mijoz, shu xizmat iste'molchisi ehtiyojlarini (talabini) bevosita qondirishga qaratilgan mehnatdir.

Xizmat "sof ko'rinish"da ko'rsatiladi (shifikorlar, huquqshunos qabuli, kutubxonachi, sotuvchi, ofitsiant va hokazolar xizmati) yoki "buyum" shaklida (buyurtma bo'yicha kiyim, poyafzal, mebel tayyorlash yoki bu kabi buyumlarni, shuningdek turli maishiy texnika va yokazolarni ta'mirlash) bo'ladi.

Birinchi holda holiga xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat "noishlab chiqarish" sohasiga tegishli, ikkinchi holatda xizmat moddiy ishlab chiqarish sohasiga kiradi, biroq aynan xizmat bo'lib qoladi, chunki ish umumiylashtirish tarmog'iga tushadigan ommaviy sanoat mahsuloti shaklida emas, balki individual topshiriq bo'yicha bajariladi (masalan, o'lcov, andoza asosida kiyim tikish, aniq buyumlarni remont qilish va xokazolar).

Demak, xizmat ko'rsatishning tarkibiga xalq xo'jaligining noishlab chiqarish sohasini hamda har bir mamlakat, har bir rayon moddiy ishlab chiqarish sohasining unchalik katta bo'lmagan, biroq iste'molchi uchun sezilarli qismi kiritiladi. Xalq iste'moli darajasi turli iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish ko'لامi kabi, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar xajmi bilan ham bog'liq.

Xizmatlar sohasi muassasalarini va korxonalarini yig'indisini ba'zan jamiyatning **ijtimoiy infratuzilmasi** deb atashadi. Bundan ko'rindaniki, bu tushunchalarni sinonim sifatida qarash unchalik katta xatolik bo'lmaydi. Infratuzilma deganda, odatda, "moddiy buyumlar ishlab chiqarishga bevosita tegishli bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish jarayoni uchun (ishlab chiqarish iinfrotuzilmasi - transport, aloqa, energiya ta'minoti, suv ta'minoti tarmoqlari va xokazolar) hamda aholi kundalik hayotini ta'minlash uchun (ijtimoiy infratuzilma - sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini va hokazolar) zaruriy binolar, inshootlar, tarmoq va tizimlar yig'indisi" tushuniladi.

Ijtimoiy xizmatlar jamiyatning har bir a'zosiga davlat, turli ijtimoiy tashkilotlar va birlashmalar, shuningdek xususiy tartibda - muayyan xizmat turiga ixtisoslashgan alohida shaxslar yoki firmalar tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari tarkibi bo'yicha olimlar orasida yakdil qarashlar mavjud emas. Shu sababdan, maxsus adabyotlarda ushbu sohani yaxlit hosil qiladigan xizmatlar turi yoki tarmoqlarining bir qancha farqli ro'yxatlarini ko'rish mumkin.

Xizmatlar sohasi tarkibi masalalari bo'yicha soha iqtisodchilari orasida turlicha qarashlar mavjud va ular asosan quyidagilardan iborat: a) savdo va umumiy ovqatlanish, ular "moddiy ishlab chiqarish jarayonining davomi va uning bir qismi; b) yo'lovchi transporti va aloqa (infratuzilmaning muhim elementlari, biroq ko'p jihatdan ijtimoiyga qaraganda ishlab chiqarish infratuzilmasi); v) o'quv-tarbiya muassasalarining barcha turlari; g) davlat apparati (boshqaruvi) va ijtimoiy muassasalari. Turli nuqtai nazarlar ommaviy axborot vositalarining xizmatlar sohasiga kirish-kirmasligi bo'yicha ham mavjud.

Savdo xalq xo'jaligining muhim, taqsimlash vazifasini bajaruvchi alohida tarmog'i hisoblanadi. Biroq undagi barcha ishlovchilarning atigi 20 % ulgurji savdoda band, 80 % esa "do'kon ishchilari" iste'molchilarga bevosita yuzma-yuz xizmat ko'rsatuvchi chakana savdo xodimlaridir. Demak, chakana savdoni to'liq xizmatlar sohasiga kiritish mumkin (ba'zilar tarmoqni to'la ushbu sohaga kiritishadi, chunki ulgurji va chakana savdo o'zaro chambarchas bog'liqdir).

Umumiy ovqatlanish tarmog'i (oshxonalar, bufetlar, kafe, restoranlar va xokazolar) ham xuddi shunday xizmatlar sohasiga kirib, tayyor taomlar, yarim tayyor mahsulotlar, ichimliklarni o'ziga xos shaklda ishlab chiqarish hamda ularni iste'molchilarga etkazishni amalga oshiradi.

Jamoat transportining barcha turlari - temir yo'l, suv, avtomobil, havo transportida yo'lovchi tashish, shubhasiz aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining bir qismini tashkil etadi, demakki, transport sohasi ishchilarning mos ravishda uning asosiy fondlarining bir qismini xizmatlar sohasiga kiritishga barcha asoslar bor. Bunday holat aloqa tarmog'iga ham tegishli. Lekin, transportning bevosita moddiy ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi bo'g'ini ham mavjud.

Xalq ta'limining barcha muassasalarini ikki qismga ajratish mumkin: umumta'lim (maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalari) va kasbiy tayyorgarlik beruvchi (litsey, kasb-hunar ta'limi va OO'Yulari). Ayrimlar bularning ikkalasini ham xizmatlar sohasiga kiritish mumkin deb xisoblashadi. Boshqalar esa, ushbu sohaga faqat maktablar va bog'chalarni kiritish, butun kasbiy tayyorgarlikni, ya'ni mutaxassislarni tayyorlashni esa noishlab chiqarish sohasining alohida muhim qismi sifatida (xizmatlar sohasi bilan bir qatorda, biroq uning tarkibida emas) qaraladi.

Noishlab chiqarish sohasi

Xizmatlar ko'rsatish sohasi	Ommaviy axborot vositalari	Ma'naviy qadriyatlar		Malakali mutaxassislar tayyorlash	Davlat boshqaruvi
		<i>Sa'nat</i>	<i>Fan</i>		
<i>I</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	
Moddiy ishlab chiqarish					

1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining xalq xo'jaligida tutgan o'rni.

1- xizmatlar sohasidagi moddiy ishlab chiqarish (savdo va umumiy ovqatlanish, kiyim, poyafzal tikish va ta'mirlash, xo'jalik buyumlari, maishiy texnika, shaxsiy avtotransport, kvartira va xokazolarni ta'mirlash);

- 2- ommaviy axborot vositalari;
- 3- muzeylar, teatrlar va hokazolar qoshidagi ustaxonlardagi ishlab chiqarish;

- 4- ilmiy tadqiqot institutlari ustaxonalari, tajribalaridagi ishlab chiqarish;
- 5- oly o‘quv yurtlari, kollejlar qoshidagi ustaxonalar, tajriba xonalaridagi ishlab chiqarish.

Davlat apparatining noishlab chiqarish sohasidagi o‘rniga kelsak, uning roli va funksiyasi shundaki, uni “butunlay” xizmatlar sohasiga kiritish mumkin. Ushbu sohaga, masalan militsiya va sud organlari faoliyatini (fuqarolarning konstitutsion huquqini himoya qilish), notariat ishini va boshqalarni kiritish mumkin. Biroq qolgan barchasida davlat organlari alohida shaxslarga emas, balki butun jamiyatga - uning rivojlanishi va hayot faoliyatini, davlat xavfsizligini ta’minlashga xizmat ko‘rsatadi (shu sababli bu kategoriyyaga armiyani ham kiritish mumkin).

Ommaviy axborot vositalariga kelsak, ular aholining axborotga bo‘lgan talabiga xizmat ko‘rsatish va madaniy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha muhim vazifalarni bajarib, yanada kengroq umum davlat ahamiyatiga ega, xususan jamiyatning butun moddiy va ma’naviy hayotini, oshkoraliq va demokratiya sharoitida ijtimoiy fikrni aks ettiradi. Shu boisdan ularni ishlab chiqarish sohasining alohida “blok” i sifatida, xizmatlar sohasi bilan bir “qator”da hamda u bilan chambarchas aloqada qarash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Mamlakatda aholiga xizmat ko‘rsatishning barcha turlari va tarmoqlarining joyylanishi va zamonaviy holatini batafsil o‘rganishga asoslangan, ya’ni butun xizmat ko‘rsatish sohalarini turli darajalarda - har bir shahar va qishloq tumanidan butun mamlakat darajasigacha – kompleks mutanosib rivojlantirishni hududiy tahlil etishni ilmiy asoslash - iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning (va qisman shaharsozlik va rayon planirovkasini) tadqiqot doirasiga kiradi.

Servis geografiyasining fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari

Servis geografiyasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o‘ziga xos tarmoqlaridan biridir. U bevosita inson, ya’ni aholi, uning xizmatlarga bo‘lgan turli – tuman ehtiyojlar, xizmat ko‘rsatish sohalari va ularning korxona hamda muassasalari bilan chambarchas bog‘liqidir.

Servis yoki boshqacha qilib aytganda, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasining fanlar tizimida tutgan o‘rni haqida turlicha fikrlar mavjud. Aksariyat tadqiqotchilar uni sof xizmatlar sohasiga mansub desalar, ba’zi olimlar xizmatlar kompleksidan bir qismini (masalan, transport – ham aholiga xizmat ko‘rsatadi, ham ishlab chiqarishga, savdo – ishlab chiqarish jarayonining bir qismi sifatida) moddiy ishlab chiqarishga taalluqli deb hisoblaydilar.

O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasining yirik vakillaridan biri – professor A.S.Soliyev (1994 y.) aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini, uning bir vaqtning o‘zida ham moddiy, ham ishlab chiqarish xarakteridan kelib chiqib, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning 2 bloki – ijtimoiy-iqtisodiy geografiya turkumiga kiritgan edi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyasi bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar sobiq Ittifoq davrida ko‘proq amalga oshirilgan. Bunda yana shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa tarmoqlariga (masalan, aholi yoki qishloq xo‘jaligi geografiyasiga) nisbatan bu sohoda bajarilgan ilmiy ishlar ko‘lamini katta deb bo‘lmaydi. O‘zbekistonda esa xizmatlar sohasi asosan soha iqtisodchilari tomonidan o‘rganilgan ishlar mavjud, aytish joizki ular ham ko‘p sonli emas.

Iqtisodiy geografik jihatdan servis sohalarini hududiy tashkil qilish va rivojlantirish masalalarini chuqur o‘rgangan olimlar qatoriga quyidagilar kiritiladi - Buryan A.P., Merkusheva L.A., Chepkasov P.N. (Geografiya sotsialnoy infrastrukturi Urala. Ucheb. posobiye. Perm, 1984), Abramov M.A. (Geografiya servisa (Sfera obslujivaniya).- M.:Misl, 1985), Alekseyev A.I., Kovalev S.A., Tkachenko A.A. (Geografiya sferi obslujivaniY. Ucheb. posobiye. Kalinin, 1988), Merkusheva L.A. (Geografiya sferi obslujivaniya (Teoriya i metodologiya). Krasnoyarsk, 1989), Abdurashidov A. (Sfera obslujivaniya v Uzbekistane. T., 1989), xorijiy olimlardan Lyosh A.

(Geograficheskoye razmesheniye xozyaystva. M., 1959), Kristaller V. (Janubiy Germaniyaning markaziy joylari, 1926) va boshqalarni kiritish mumkin.

Mustaqillik yillarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik o'rganishga taalluqli pioneer ishlardan biri, bu 1996 yili M.I.Nazarov tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston (Namangan viloyati) qishloq joylari misolida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanishining geografik jihatlari o'rganilgan.

Mamlakat xalq xo'jaligi va jamiyat hayotida hizmat ko'rsatish sohalarining o'rni

Xizmatlar sohasini aholini rivojlanishi va hayot faoliyati uchun zaruriy barcha xizmatlar majmuini ta'minlash kabi funksiyalarni birlashtirvchi tizim sifatida qarash mumkin, ushbu tizim bo'g'inlaridan har biri boshqasini to'ldiradi. Xizmatlar sohasining ijtimoiy ahamiyati, eng avvalo, uning aholi rivojlanishi va hayot faoliyatini ta'minlash, uning turmush darajasini oshirish, shaxsning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratishdan iborat.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalarining barchasi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirishni talab etadi. Bu aholining yashash va mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, jamiyatda ijtimoiyadolat tamoyillarini to'larq amalga oshirish, turli ijtimoiy guruqlar, mamlakat turli rayonlari aholisining turmush darajasini yuksaltirish, shahar va qishloqlar orasidagi sezilarli tafovutlarni bartaraf etish elementlaridan biri xisoblanadi.

Bu kabi ijtimoiy vazifalarini, hal etishda shu narsa muhimki, ijtimoiy **xizmat ko'rsatish darajasi** bilan aholining **vaqt byudjeti** chambarchas bog'liqdir. Savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar, yo'lovchi transporti kabi tarmoqlar yaxshi ishlagan holatda ishchilarning maishiy ehtiyojlarga sarflaydigan vaqtlarini sezilarli qisqartirish va shunga mos ravishda ularning bo'sh vaqtleri fondini oshirish imkonini beradi. Mutaxassilar kishilarning bo'sh vaqtini "jamiyatning haqiqiy boyligi" sifatida qaraydilar. Ijtimoiy xizmatlar faqatgina bo'sh vaqtini ko'paytirib qolmasdan, balki undan to'liq foydalanish (madaniy-ma'rifiy xizmatlar turlarini ijtimoiy tarbiya va sport, turizm va hokazolar barcha turlarini rivojlantirish evaziga) imkonini beradi.

Uy xo'jaligidagi vaqt sarfiga turli yo'nalishdagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, turar-joylardagi qulayliklar darajasi oshib bormoqda (aholining asosiy qismini yoqilg'i tayyorlash va uylarni isitish, suv tashish va xokazolardan ozod qiladi), uy mehnatining texnik yuklanganligi oshmoqda, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori ko'paymoqda va ularning sifati tobora yaxshilanmoqda (bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hissini kamaytiradi). Boshqa tomondan, oilalarning (katta murakkab, 3-4 avlodli oilalarning kamayishi hamda kichik va oddiy, bir va ikki avlodli oilalarning ko'payishi), moddiy ehtiyojlarning o'sishi (oziq-ovqatlar tarkibi, komfortga talablarning oshishi), uzoq muddat foydalilaniladigan buyumlar bilan ta'minlanishning oshishi (ya'ni ta'mirtalab buyumlar sonining oshishi ham), turar-joy maydonlarining ko'payishi uy xo'jaligiga vaqt sarfini oshirishni keltirib chiqaradi. Natijada umumiy vaqt sarfini juda sekin kamayadi. Ayollarda ovqat tayyorlash va uy ishlariga, ya'ni aynan xizmat ko'rsatish sohalari yetarlicha rivojlangan sharoitda ularga ketadigan vaqtini ancha kamaytirish mumkin bo'lgan (umumiy ovqatlanish, yarim tayyor mahsulotlar savdosи, turar-joylar ta'miri va yig'ishtirish xizmatlari va xokazolar). Ko'rinish turibdiki, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish xususiyati va darajasi ma'lum darajada aholining turmush tarzini belgilab beruvchi hayotining muhim shartidir. Chunki xizmatlar sohasining rivojlanish turlicha turmush tarzi ko'payishiga olib keladi. Masalan, qishloq joylarda turmush sharoiti shahardagiga qaraganda og'irroq, inson xulq-atvorini tabaqalashtiradi: ko'pchilik qishloq aholisi o'z individual hislatlariga qaramay, yoqilg'i tayyorlash, suv tashish, uyni ta'mirlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish kabilarga majbur bo'ladi. Ko'pchilik shaharliklarda esa bunday zaruriyat yo'q, umuman ular keng imkoniyatlarga ega, masalan uyda yoki qisman umumiy ovqatlanish joylarida ovqatlanish, kiyim-kechaklarini o'zi yuvish yoki kirxonaga berish va

xokazolar xizmatlar turi qancha ko‘p va ularni sifati qancha yuqori bo‘lsa, insonda tanlov imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning xizmatisiz moddiy ishlab chiqarishning har qanday tarmog‘i ishchilarining ishlab chiqarish mehnati samarasi ham bo‘lmash edi. U ishchi kuchi va butun aholining, ya’ni yangi ishchilar avlodining takror barpo bo‘lishida katnashadi, bu ayniqsa, uy-joy xizmati, savdo va umumiy ovqatlanish, bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish, tibbiy xizmat kabi tarmoqlarda ko‘rinadi.

Xizmatlarning rivojlanish darajasi ya’ni ular turlarining to‘liqligi, sifati va arzonligi moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning, ya’ni mamlakat milliy daromadi va milliy boyligini yaratuvchilarning mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ishchi va uning oilasi ahvoli, ish joyigacha qancha vaqt, jismoniy va ruhiy kuch sarflashi, shundan keyin uning qanchalik maroqli dam olishi, o‘z vaqtida ovqatlanishi kabilarga uning mehnat unumdorligi bog‘liqdir. Sog‘lijni saqlash kabi tarmoqning iqtisodiy samaradorligi yaqqol sezilarlidir. Masalan, davolash samaradorligini oshirish, kasalliklarni o‘z vaqtida profilaktika qilish, gigiyena qoidalariga rioya etish, jismoniy madaniyatni rivojlantirish natijasida kasallanishni atigi 10% ga kamaytirish yiliga kattta miqdordagi mablag‘larni tejash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasi mehnat resurslarini talab etish bilan bir vaqtida bolasi bo‘lgan ko‘plab ayollarni ishlab chiqarishga jalg etishga imkoniyat yaratadi (xususan maktabgacha bolalar muassasalari orqali aholiga xizmat ko‘rsatilganda).

Nazorat savollari va topshiriqlar:

Sotsial geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti, fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniqlang.

Sotsial geografiyaning rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.

Sotsial geografik tadqiqotlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini tushuntiring.

Servis yoki xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti, geografiya fanlari tizimida tutgan o‘rnini aniqlang.

Servis geografik tadqiqotlar va ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini tushuntiring.

4-amaliy mashg‘ulot:

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosat masalalari

1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va uning geografik xususiyatlari.
2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

1.Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va uning geografik xususiyatlari.

Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayotidagi hozirgi vaziyat hamda bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni xo‘jalikni rivojlantirishning yangi va ustivor yunalishlarini izlab topishni talab qiladi. Hozirgi kunda Respublika mustaqil davlat sifatida o‘z ichki siyosatiga,

ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish buyicha ilmiy jihatdan asoslangan konsepsiyasiga ega. Ayni vaqtda bunday ichki siyosat har bir hududning holatini, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda mintaqaviy tabaqlashtirish asosida shakllanishi zarur.

Rivojlangan hamda endi rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda mintaqaviy taraqqiyotning ozmi-ko‘pmi aniq ishlab chiqilgan maqsad va vazifalari, sabab va muammolarni hal etish yullari bir-biridan tubdan farq qiladi. Nazarimizda, xorijiy mamlakatlar, avvalo "**rivojlangan**" davlatlarning mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasini tanqidiy o‘rganish va qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyo mamlakatlarida BMTning nufuzli komissiyalari va ekspertlari yordamida dunyoning ilg‘or davlatlarida ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalarni tatbiq etish yuli bilan iqtisodni davlat tomonidan yulga solish, xo‘jalikning mustamlakachilik davridan meros bo‘lib qolgan yaroqsiz tuzilmasini tugatish hamda hududiy rivojlantirishni maxsus tuzilgan dasturlar yordamida boshqarish borasida muayyan muvafaqqiyatlarga erishilgan. Xuddi shunday vazifa bizning respublikamiz oldida ham ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Mintaqaviy taraqqiyotni dasturlashtirish amaliyoti bilan tanishuv jarayoni shuni ko‘rsatadiki, hududiy rejalashtirish va istiqbolni belgilash maqsadida tuzilgan iqtisodiy rivojlantirishning mavjud ilmiy asoslangan tartiboti mintaqaviy siyosat o‘tkazish uchun asos hamda ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi

Har bir mamlakat o‘zining turli yunalishdagi siyosatini amalga oshirib boradi. Bu uning mustaqil, suveren davlat ekanligini eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Siyosat esa subyektning u yoki bu masalaga (obyektga) nisbatan tutgan yul-yo‘riqlarini ko‘rsatma va tadbirlarni majmuasidir.

Siyosat turlari ham ko‘p. Odatda siyosat deganda ko‘proq, siyosiy masalalar ko‘z oldimizga keladi. Vaholanki, bu faqat "siyosiy siyosatdir", aslida esa siyosatning turlari xilma xil. Masalan, davlat yoki oila boshlig‘ining o‘z qo‘shnilariga, ichki va tashqi ahvoliga, iqtisodiyotiga, ijtimoiy hayotiga, fan-texnikasi kabi masalalarga ma’lum bir yo‘nalish va maqsaddagi bosh prinsip va munosabatlari bo‘ladi. Bu munosabatlar subyekt, ya’ni boshqaruvchi tomonidan bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilib boriladi. Bizning mamlakatimizda bozor munosabatlariga o‘tish davrining 5 asosiy tamoyillari orasida davlatning bosh islohotchi ekanligi ta’kidlangan. Demak, demokratik jamiyat qurish, halk turmush sharoitini yaxshilash, mamlakatning jahon jamiyatidagi mavqeini mustahkamlash kabi tub masalalar davlat tomonidan belgilanadi va hal etiladi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning pirovard natijalari, strategiyasi

ijtimoiy (sotsial) maqsadlarga yo'naltirilgan. Binobarin, vosita, yo'nalish iqtisodiyot bo'lsa, uning maqsadi ijtimoiy jabhalar, aholining yashash sharoiti va darajasini yaxshilab berishdan iboratdir.

Shu o'rinda iqtisodiy siyosatning avvalgi siyosiy iqtisoddan farqini anglab olish zarur. Siyosiy iqtisod endigi sharoitda yo'q, chunki davlatimizning siyosatida iqtisod siyosatdan ajratilgan. Aslida esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy iqtisod bor, xolos. Sababi - iqtisodiy siyosatning asosiy mohiyat va maqsadi ijtimoiy jabhalardir.

Shunday qilib, siyosatning turlari xar xil: u ichki va tashqi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli yo'nalishlariga bag'ishlangan bo'ladi. Bu borada eng avvolo iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika siyosatini ajratish mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z navbatida sanoat, qishloq xo'jaligi, transport siyosatlariga, ijtimoiy siyosat esa aholi, uning takror barpo bo'lishi va migratsiya, demografik, turli yoshdag'i kishilarga, oilaga bo'lgan davlatning rasmiy ravishda amalga oshirayotgan tadbirlaridan tashkil topadi. Shuningdek, ijtimoiy siyosat ta'lim-tarbiya, til, salomatlik, ekologik muammolar, kadrlarni tayyorlash masalalarini ham o'z qamroviga oladi. Ammo har qanday siyosatni, ayniqsa davlat ahamiyatiga mansub siyosatlarni mayda "**siyosatchalarga**" bo'lib yuborish yaxshi emas. To'g'ri, sanoatda, masalan yoqilg'i-energetika, qishloq xo'jaligida don mustaqilligi, transportda-ichki yagona transport yullari tizimini barpo etish singari masalalar muhim va dolzarb, binobarin, ular davlat siyosati doirasida ko'rinishi mumkin. Biroq masalalarni, yanada parchalab yuborish maqsadga muvofiq, bo'lmasa kerak. Xo'sh, chegara qayerda, qaysi darajada to'xtashi kerak. Uylaymizki, bu masalaning mohiyati va murakkabligi, unga sarflanadigan vaqt moddiy va moliyaviy harajatlar ko'لامи bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday siyosat o'zining tarkibiy qismi va uni bosqichma-bosqich hal etish yo'llarini ifodalovchi maxsus dasturlarga ega bo'lishi shart. Albatta, turli viloyat va tuman rahbarlarining, vazirliklarining o'zlariga tegishli masalalarga siyosatlari (aniqrog'i munosabatlari) bo'lishi muqarrar. Lekin bu toifadagi muammolarni davlat darajasidagi siyosat, deb yuritish nodurustdir. Siyosat ma'lum maqsadga qaratilgan va shu bosh maqsadga erishish yhlidagi muammo va "muammochalarni" hal etish, muayyan sohani takomillashtirib borish va uni tizim sifatida boshqarishni nazarda tutadi.

Biz avvalroq siyosatni (davlat siyosatini) ichki va tashqi siyosatga bo'linishini ta'kidlagan edik. Tashqi siyosat ham murakkab bo'lib, u o'z doirasiga xalqaro munosabatlar, geografik masalalar, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika aloqalarini oladi. Shubhasiz bularning ichida siyosiy masalalar, ya'ni "siyosiy siyosat" asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, davlatlar orasida to'g'ri, osoyishtalik, hamdo'stlik munosabatlar o'rnatilgandagina, qolgan boshqa masalalarga yo'l ochiladi. Ana shu ma'noda, faqat ana shu sohada siyosatni iqtisoddan yuqori qo'yish mumkin,

qolgan barcha hollarda, xususan mamlakat ichki hayotida iqtisod siyosatdan ustun va ustivordir. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro (davlatlararo) siyosiy munosabatlar negizida ham iqtisodiy masalalar yotadi.

Ichki siyosat - bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etish va boshqarishdan iboratdir. U o‘z navbatida sohaviy va hududiy bo‘ladi. Sababi har qanday voqeа yoki xodisa albatta qayerdadir, ma’lum bir makonda sodir bo‘ladi. Shu ma’noda u yoki bu muammoni muayyan hudud, geografik muhitdan ajralgan xolda, muallaq qarash noto‘g‘ridir.

Sohaviy siyosatlarga iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika yo‘nalishlari kiritiladi. O‘z navbatida ularning ham pastroq va aniqroq darajadagi siyosatlarga bo‘linishini ham aytib o‘tgan edik. Hududiy siyosatlarga kelsak, u o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkabroq, yuqoridaq barcha masalalarni qamrab oluvchi siyosatdir.

Birok, "xududiy siyosat" tushunchasini to‘g‘ri tushunish kerak. Bu yerda sohaviy siyosatlarga o‘xshab, u yoki bu tarmoqni rivojlantirish kabi masalalar hududni (geografik ma’noda) kengaytirish yo‘nalishida qarash mutlaqo noto‘g‘ri va zararlidir. Shu bois mazkur tushunchani mintaqaviy siyosat shaklida talqin qilish ma’kulroqdir. Ammo bu tushunchaga ham geograflar e’tiroz bildirishlari mumkin. Sababi geografiyada mintaqa (poyas) ma’lum bir tabiiy komponentlarni tasmasimon joylanishini anglatadi (masalan iqlim mintaqalari). Bizning iqtisodiy sohada bunday shakllar mavjud emas. Ana shularni e’tiborga olib, hududiy iqtisod yoki siyosat emas, balki mintaqaviy iqtisodiyot yoki mintaqaviy siyosat iboralarini qo‘llash ma’kulroqdir.

Shunday qilib mintaqaviy siyosat u yoki bu hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga qaratilgan bo‘ladi. Bunday siyosatni esa maxsus, aniq maqsadga yo‘naltirilgan dastur orqali amalga oshiriladi. Dasturda asosiy masala va uning ichki qismlari ochib beriladi, muammolarini yechimi bosqichma-bosqich tasvirlanadi, tegishli moddiy, moliyaviy, tashkiliy masala va imkoniyatlar bilan asoslab beriladi. Xuddi shunday mintaqaviy dastur Namangan viloyati uchun qabul qilingan (1998-2000 yillar).

Mintaqaviy siyosatning obyekti turli xil bo‘lishi mumkin. Chunonchi, davlatning ayrim hududlar-iqtisodiy rivojlanish masalalari yoki turli tabiiy geografik mintaqalarining (cho‘l, tog‘ va tog‘ oldi rayonlar, daryo havzalari, Orol buyi mintaqasi va h,k) muammolarini yechish mintaqaviy siyosat doirasida boshqariladi.

Tabiiyki, hamma joyni bir vaqtning o‘zida birday yuqori darajada rivojlantirish qiyin, buning uchun hamma vaqt ham, moddiy-moliyaviy imkoniyatlar ham mavjud emas. Binobarin, mintaqaviy siyosat navbatma-navbat, alohida viloyat va shaharlar yoki geografik rayon doirasida olib boriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda ham ustuvor, rivojlanishi mumkin va zarur

bo‘lgan hududlar ajratib olinadi va bor imkoniyatlar vaqtincha faqat aynan shu masalaga qaratiladi. Quyida mamlakatimiz mintaqaviy siyosatining asosiy maqsad va vazifalari o‘z aksini topgan:

- * iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning biryoqlama agrar - xomashyo tuzulmasini tugatish.
- * mahalliy tabiat zahiralari va mehnat manbalaridan imkon qadar to‘la va samarali foydalanish.
- * ishlab chiqaruvchi kuchlarni rayonlararo oqilona joylashtirish.
- * mintaqaviy nomutanosibliklarni yumshatish hamda alohida (qishloq xo‘jaligi bilan) mintaqalarning iqtisodiyotini yuksaltirish.
- * aholi turmush darajasidagi ijtimoiy-hududiy tafovutlarni tenglashtirish.
- * shaharlar kengayishi hamda shaharlashuv jarayonini yulga solish.
- * ekologik muammolarni hal etish va samarali demografik siyosatni amalga oshirish.
- * respublikanig turli qismlaridagi ishlab chiqaruvchi kuchlarni o‘zaro bog‘lik holda rivojlanirish hududiy iqtisodiy yaxlitlikni ta’minlash.
- * ma’muriy-xududiy tuzilishning barqarorligini oshirish.

Turli mavqeидаги (jumladan kichik va qo‘shma) korxonalarни uyg‘unlashtirish, xo‘jaliklarni tor iqtisodiy ixtisoslashuvi va agrar-xom ashyo yunalishini bartaraf etish, iqtisodiyotni ijtimoiy jihatdan keskin qayta belgilab olish, ishlab chiqarishni ekologik holatini yaxshilash va barcha hududlarda jamoat turmushini birdek oqilona yulga solish ishlari respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy mezonlari bo‘lib qolishi kerak.

O‘zbekistan Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida tezroq natija beradigan asosiy soha va rayonlarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Zero, taniqli fransuz iqtisodchisi F. Perru yozganidek, "Iqtisodiy o‘sish bir vaqtning o‘zida va joylarda emas, balki turli darajadagi jadalliklarga ega bo‘lgan o‘sish qutblarida namoyon bo‘ladi". Shunday ekan an’anaviy va tom ma’nodagi tenglashtirish siyosatidan voz kechish zarur. Chunki turli darajadagi hududiy notekisliklar mintaqaviy taraqqiyot omili bo‘lib xizmat kiladi. Shu bois, "tenglashtirish to‘g‘risida gap borar ekan, avvalo ijtimoiy sohadagi, aholi turmush darajasidagi tenglik nazardautiladi, hayot kechirish sharoitlari, muhiti esa doim hududiy tabaqlashgan bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi vaqtida tez va soz samara olish uchun qayerda va nima barpo qilish kerak, degan muammo ko‘ndalang turibdi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, asosiy kuchni quvvat va mablag‘ni, jumladan davlat mablag‘ini eng old sohalar va rayonlarni rivojlantirishga sarflash zarur.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, yetarlicha rivojlanmagan hududlarning ahvolini yaxshilash, muammolarini yechishning turlicha usullari va yo‘llari mavjud.

O‘zbekistonning hozirgi hududiy tuzilmasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, respublikada rivojlangan rayonlar bilan bir qatorda ularga nisbatan qoloq hamda muammoli rayonlar ham mavjud (bu respublika miqyosida uzoq yillar davom etgan o‘ta past daraja umumrivojlanishning hosilasi ekanligini eslatib qo‘ymoqchimiz!). Turgan gapki, rayonlarning "tomir urishi" bir xil emas va o‘z-o‘zidan ayonki, ularning har biriga o‘ziga xos, alohida yondashuv zarur. *2.Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.*

Ishlab chiqarish kuchlari tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi (inson) hamda ishlab chiqarish munosabatlarini qamrab oladi. Iqtisodiy geografik jihatdan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda deganda, eng avvalo turli tarmoqlar, sohalar, alohida olingan ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish va rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarning hududiy jihatlari, qonuniyatlari tushuniladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, va umuman olganda, har qanday tadqiqot obyekti doirasiga kirgan voqeа hodisalarini muayyan bir makonda – hududda tutgan o‘rni (joylashuvi, joylashtirish) masalasi iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarning bosh talablaridan biridir.

Savol va topshiriqlar

Mintaqaviy siyosatning mazmun – mohiyatini tushuntiring.

Mintaqaviy siyosat va uning ilmiy amaliy ahamiyatini tushuntiring.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat va uning geografik xususiyatlarini aniqlang.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy siyosatning roli va ahamiyatiga baho bering.

V. GLOSSARY

Termin	Komentariya	Ingliz tilidagi sharhi
--------	-------------	------------------------

Ijtimoiy gografiya Social geography	– obshchestvennaya geografiya – sovokupnost vsekh geograficheskikh nauchnykh dissiplin, obyektom issledovaniya kotorix yavlyayetsya <i>territorialnaya organizatsiya obshestva</i>	- social geography is the totality of all geographical scientific disciplines, the object of research of which is the territorial organization of society
Siyosiy geografiya Political geography	– otrasl obshchestvennoy geografii, izuchayushaya territorialno-politicheskiye sistemy (TPS) v ikh vzaimodeystviyu drug s drugom.	a branch of social geography that studies territorial-political systems (TPS) in their interaction with each other.
Sanoat majmuasi Industrial complex	– sochetaniye vzaimosvyazannix (texnologicheski, posredstvom kooperirovaniya ili kombinirovaniya proizvodstva) promishlennix predpriyatiy na opredelennoy, otnositelno kompaktnoy territorii (v predelakh goroda ili gorodskoy aglomeratsii).	a combination of interconnected (technologically, through cooperation or combination of production) industrial enterprises in a certain, relatively compact territory (within a city or urban agglomeration)
Hududiy tahlil territorial analysis	– nauchnoye napravleniye v sotsialno-ekonomicheskoy geografii, rodstvennoye <i>teoreticheskoy geografii</i> regionalnoy nauke (poslednyyu v RF otnosyat k regionalnoy ekonomike i ekonomicheskoy geografii). Issleduet kolichestvennymi metodami prostranstvenniye formi geograficheskikh yavleniy (rasseleniya, proizvodstva, transporta).	- scientific direction in socioeconomic geography, akin to theoretical geography and regional science (the latter in the Russian Federation is referred to as regional economy and economic geography). Explores by quantitative methods the spatial forms of geographic phenomena (settlement, production, transport)
Mintaqaviy siyosat Regional policy	– zakonodatelno oformленная sistema gosudarstvennykh mer, neposredstvenno napravленная na resheniye zadach kompleksnogo razvitiya regionov stran s pomoshchyu pereraspredeleniya resursov mejdu regionami; v shirokom smisle –regionalniy srez vsey vnutrenney politiki gosudarstva.	- a legislatively formalized system of state measures, directly aimed at solving the problems of integrated development of the country's regions through the redistribution of resources between regions; in a broad sense, a regional cut of the entire internal policy of the state
Qishloq aholi joylashuvi Rural settlement	– forma territorialnoy organizatsii naseleniya na vnegorodskix territoriyax v vide sovokupnosti <i>selskix poseleniy</i> razlichnykh tipov. S. p otlichayetsya ot gorodskogo menshey lyudnostyu poseleniy i bol'shey gustotoy ikh	the form of the territorial organization of the population in non-urban areas in the form of a set of rural settlements of various types. S. p differs from urban settlements in the lesser population density and the greater density of their network

	seti.	
--	-------	--

Tizim-tarkib yondashivi Systemstructural approach	– napravleniye metodologii nauchnogo issledovaniya, v osnove kotorogo lejtit rassmotreniye obyekta kak selostnogo mnojestva elementov i sovokupnosti otnosheniy i svyazey mejdju nimi	- direction of scientific research methodology, which is based on the consideration of an object as an integral set of elements and a set of relations and connections between them
Inson geografiyasi Human geography	– vety sotsialno-ekonomiceskoy geografii; izuchayet prostranstvenniye protsessi i formi organizatsii jizni lyudey, prejde vsego s tochki zreniya usloviy truda, bita, otdixa, razvitiya lichnosti i vosproizvodstva jizni cheloveka, vzaimosvyaz mejdzu razlichnimi aspektami chelovecheskoy deyatelnosti i ix proyavleniyem v prostranstve.	- branch of socio-economic geography; studies the spatial processes and forms of organization of human life, primarily from the point of view of working conditions, everyday life, recreation, personality development and reproduction of human life, the relationship between various aspects of human activity and their manifestation in space
Hududiy tashkil etish Territorial organization	– sovokupnost vzaimosvyazannix i vzaimodeystvuyushix v prostranstve elementov sistem raznogo iyerarchicheskogo urovnya, a takje protsessov i deystviy, napravlennix na podderjaniye, vosproizvodstvo i razvitiye otdelnix elementov i sistem v selom	- a set of interconnected and spaceinteracting elements of systems of different hierarchical levels, as well as processes and actions aimed at maintaining, reproducing and developing individual elements and systems as a whole
Hududiy tarkib Territorial structure	– vzaimoraspolojeniye, vzaimodeystviya prostr: virajennix eleme: geograficheskogo tov slojnogo rassmatrivayemogo obyekta, kak Territorialnaya sistema. xarakteristika struktura – prostranstvennoy lyuboy sistemi ekonomiceskoy, – sotsialnoy, politicheskoy, priro noy i dr.	- mutual arrangement, interconnection and interaction of spatially expressed elements of a complex geographic object, considered as a system. Territorial structure is a characteristic of any spatial system - economic, social, political, natural, etc.
Hududiy mehnat taqsimoti The territorial division of labor	– vid geograficheskogo razdeleniya truda, spetsializatsiya otdelnix rayonov i sentrov na proizvodstve opredelennix vidov tovarov i uslug, prednaznachennix dlya realizatsii za ix predelami	- type of geographical division of labor, specialization of certain regions and centers in the production of certain types of goods and services intended for sale outside of them
Agrosanoat integratsiyasi Agroindustrial integration	- texnologicheskoye i organizatsionnoye obyedineniye pervichnogo, vtorichnogo i tretichnogo sektorov ekonomiki: selskogo xozyaystva, promishlennosti, transporta, torgovli i drugix otrasley nematerialnogo proizvodstva, rezulatom kotorogo yavlyayetsya formirovaniye agrarnopromishlennix kompleksov (APK)	- technological and organizational unification of the primary, secondary and tertiary sectors of the economy: agriculture, industry, transport, trade and other sectors of non-material production, the result of which is the formation of agro-industrial complexes (AIC)

Aholi population	– sovokupnost lyudey, projivayushix na opredelennoy territorii. Oba termina poyavilis v Rossii v nachale XIX v. «narodonaseleniye» stalo knijnim, a rechevim–yego oblegchenniy analog «naseleniye»	- a set of people living in a certain area. Both terms appeared in Russia at the beginning of the 19th century. "Population" became bookish, and speech became its lightweight analogue "population"
Infratuzilma Infrastructure	– sovokupnost raspolojennix na opredelennoy territorii soorujeniy, zdaniy, sistem i slujb, neobxodimix dlya funkcionirovaniya i razvitiya materialnogo proizvodstva i obespecheniya povsednevnoy jizni naseleniya	- a set of structures, buildings, systems and services located on a certain territory, necessary for the functioning and development of material production and ensuring the daily life of the population
Geografik ekspertiza Geographic expertise	– proverka spetsialistami geografami proyektov, napravlennix na izmeneniye okrujayushey sredi ili sposobnix kosvenno povliyat na neye	- verification by geographers of projects aimed at changing the environment or capable of indirectly affecting it
Geografik rayon Geographical area	– organichnaya chast prostranstva Vselennoy v granitsax geograficheskoy obolochki; fundamentalnaya kategoriya geografii, izuchayushey prostranstvenno-vremenniye otnosheniya geograficheskix obyektorov	- an organic part of the space of the Universe within the boundaries of the geographic shell; a fundamental category of geography that studies the spatio-temporal relationships of geographic objects
Madaniyat geografiyasi Geography Culture	V shirokom smisle – sinonim vsey <i>kulturnoy geografii</i> , chasto ispolzuemiy v russkoyazichnoy geograficheskoy literature	- In a broad sense - a synonym for all cultural geography, often used in Russian-language geographical literature
Geosiyosat Geopolitics	– problemnaya nauchnaya oblast, osnovnoy zadachey kotoroy yavlyayetsya fiksatsiya i prognoz prostranstvennykh granits razlichnykh silovix poley (politicheskix, voyennix, ekonomicheskix, sivilizatsionnx, ekologicheskix, yestestvenno-resursnix) preimushestvenno na globalnom urovne	- a problematic scientific area, the main task of which is to fix and forecast the spatial boundaries of various fields of force (political, military, economic, civilizational, environmental, natural resources) mainly at the global level
Geourbanistika Geourbanistika	– razdel sotsialno-ekonomiceskoy geografii, izuchayushiy gorodskiye poseleniya, ix seti i sistemi, a takje protsessi urbanizatsii	- a section of socio-economic geography that studies urban settlements, their networks and systems, and urbanization processes

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b. 4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.
20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688-modda.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. **A.S.Soliyev**, N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov, F.T.Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiY. Darslik. 2019.
2. Abdunazarov O’.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiY. Darslik. Toshkent, 2019.
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. DemografiY. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
5. Basil Gomez, John Paul Jones. Research Methods in Geography. A Critical Introduction. United Kingdom. Wiley-Blackwell Publishing Ltd. 2010.
6. Colin Flint, Peter J. Taylor. Political Geography: World-economy, Nation-state and Locality. Taylor & Francis, 2012.
7. Dr.S.Harichandan, Dr.Asam Shaik, Mrs. Sujana Sunni. Methodos of teaching geograph. English,2009.– 93p.
8. Elmar Kulke. Wirtschaftsgeographie. Herstellung: 2004, Ferdinand Schoningh, Paderborn. München, Deutschland.
9. Goudie A. Physische Geographie. Heidelberg, Berlin. Spektrum Akademischer Verlag. 2002.
10. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017. – 186 b.
11. Jennifer Hickes Lundquist, Douglas L. Anderton, David Yaukey. Demography: The Study of Human Population Fourth Edition. - 2014.
12. Karimova V.A., Zaynudinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari.– T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. –192 b.
13. Michael Pacione. Urban Geography: A Global Perspective Kindle Edition. England, 2012.
14. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Accoun 2015. - 134 pp.

15. Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography. Second Edition. SAGE Publications Ltd. London EC1Y1SP. 2010.
16. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.
17. Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart 2004.
18. Rachel Pain. Introducing Social Geographies. Routledge, UK, 2001.
19. Richard J. H. Fundamentals of Geomorphology. Second Edition. London and New York. Routledge. 2011. – 466.
20. Robert E.Gabler, James F.Petersen, L.Michael Trapasso. Essentials of Physical Geography. Thomson Brooks/Cole. Thomson Higher Education 10 Davis Drive Belmont, CA 94002-3098 USA. 2007.
21. Sergey M. Govorushko. Natural Processesand Human Impacts. Interactions between Humanityand the Environment Springer Dordrecht Heidelberg London New YorkSpringer Science+Business Media B.V. 2012.
22. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiy. – T.: Universitet. 2017. – 144 b.
23. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi.-T.,2018.
24. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019.- 252 b.
25. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –T.: Bilim, 2005.
26. Vincent J. Del Casino, Jr. Social Geography: A Critical Introduction Wiley-Blackwell, USA. 2009.
27. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 edition 2015. - 350 pp.
28. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN, 2015. 572b.
29. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. T.: Turon zamin ziyo, 2016.
30. Anoxin A.A., Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii: Uchebnoye posobiye. – SPb. Izd-vo SPbGU, 2018. – 279 s.
31. Arxangelskiy V.N., Zvereva N.V. Teoreticheskiye osnovi monitoringa regionalnoy sotsialno-demograficheskoy politike. - M.:MAKS Press, 2009.-220. 32.
- Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
33. Vtorov P.V., Drozdov N.N. Biogeografiy. – M.: Vlados, 2001.
34. Informatsionniye texnologii v pedagogicheskem obrazovanii / Kiselev G.M., Bochkova R.V. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Dashkov i K, 2018. - 304 s.
35. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

36. Karimova V.A., Zaynudinova M.B. Informatsionniye sistemi. - T.: Aloqachi, 2017.- 256 str. 37. Kolbovskiy YE.Y. Landshaftnoye planirovaniye: ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / YE.Y.Kolbovskiy. – Moskva. «Akademiya», 2008.
38. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Y.G.-3-ye izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”, 2012.–319 s.
39. Lastochkin A.N. Osnovi obshey teorii geosistem. Kn. 1 i 2. Uchebnoye posobiye. Izd-vo.Peterburgskogo un-ta. 2016 – 132 s.
40. Mamatqulov M. O‘rta Osiyo geomorfologiyasi. —T.: Universitet, 2008.
41. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyot. – T.: Kamalak, 2013.
42. Sochava V.B. Vvedeniye v ucheniye o geosistemax. -Novosibirsk, 1978.
43. Tojiyeva Z.N., Do‘smonov F.A. DemografiY. O‘quv qo‘llanma.–T.: “Nodirabegim”, 2019.
44. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
45. Hasanov I., G‘ulomov P.N., Qayumov A. O‘zbekiston tabiy geografiyasi (2-qism). O‘quv qo‘llanma.-T.: Universitet, 2010.

IV. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. . <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyonET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi